

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR
TA‘LIMI MARKAZI

D.A. KARIMOVA, D.Q. QODIROV, S. KARIMOV

MUSIQA TO‘GARAGINI TASHKIL ETISH

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

2-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

UO‘K 372.878(075)
KBK 74.200.58
K25

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik birlashmalari
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Taqrizchilar:

G.M. Sharipova — Nizomiy nomidagi TDPU «Vokal va musiqa o‘qitish metodikasi» kafedrasining dotsenti;

N.K. Yo‘ldosheva — Yunus Rajabiy nomidagi pedagogika kolleji o‘quv ishlari mudiri.

O‘quv qo‘llanmada berilgan metodik tavsiyalar va musiqiy materiallar maktabda sinfdan tashqari musiqa to‘garaklari faoliyatini zamon talablari asosida olib borishga qaratilgan. Qo‘llanma o‘quvchilarni nazariy va amaliy bilimlar bilan tanishtirib, ularda uslubiy ko‘nikma hamda malakalarni tarkib toptirishga yordam beradi.

KIRISH

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi tufayli buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy qadriyatlari, ming yilliklarni qamragan betakror va jozibali madaniyatimizga asoslangan ma'naviy merosimiz tiklandi.

Jamiyatimiz taraqqiyotini yuksaltirishning iqtisodiy va siyosiy omillari singari o'ta zarur bo'lgan yana bir muhim asos borki, usiz mustaqillikni mustahkamlash, ko'zlangan ozod va obod Vatan, erkin va farovon jamiyat qurishga erishish mumkin emas. Ya'ni mustaqillik iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan bir qatorda odamlar ongi va dunyoqarashida, odob-axloqi, imon-e'tiqodi, bilim saviyasi va ruhiyatida, madaniyati va ma'naviyatida tub asosli o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi.

«Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e'tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash talablari oldimizga muhim vazifalar qo'yimoqda», deb ta'kidlagan respublikamizning birinchi Prezidenti

I. Karimov. Bu haqda so'z yuritganda, milliy musiqa madaniyati ham e'tiborga olinadi, albatta. Chunki milliy musiqa madaniyatimiz yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda katta ijtimoiy-tarbiyaviy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etuvchi, dolzarb ilmiy va amaliy muam-molar o'zaro uyg'unlashgan muhim sohadir.

Yosh avlodning ham mumtoz, ham zamonaviy milliy musiqa madaniyatining eng yaxshi namunalaridan bahra olishi uchun ularni darsdan tashqari ishlarga ham jalb etish maqsadga muvofiqdir. Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini targ'ib qilish va omma-lashtirish esa yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash-ning asosi bo'lmog'i kerak.

O'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi kasb-hunar kolleji va umumta'lim maktablarida musiqa darslari va darsdan tashqari musiqiy mash-g'ulotlarni tashkil etish, sinfdan tashqari musiqa to'garaklari (ularning eng ko'p qo'llaniladigan shakllari xor bilan ishlash, drama to'garagi, xalq cholg'u asboblari to'garagi, raqs to'garagi, vokal va folklor to'garaklaridan iboratdir) faoliyatini yo'lga qo'yish masalalarini yoritishga qaratilgan.

NAZARIY QISM

1. MAKTABDA TO'GARAK ISHINI TASHKIL ETISH VA UNING MAQSADI

Respublikamiz taraqqiyoti va o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarning har tomonlama kamol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z mustaqil Vatanimizdan faxrlanish tuyg'usiga boy qilib tarbiyalash zamonamizning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamlı muam-molardan biridir.

Tarbiyalash deganda, har tomonlama yetuk, o'zida axloqiy poklik, ma'naviy boylıq va jismoniy barkamollıknı mujassamlashtirgan insonni kamol toptirish nazarda tutiladi. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi. U bola ilmiy dunyoqarashining shakllanishi va mustahkamlanishi yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarimizni ma'naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda maktablar bilan birga darsdan tashqari to'garaklar faoliyati shakshubhasiz katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'smirlarning to'garak orqali hayotga qiziqishi, his-tuyg'ularining o'sib borishi, atrof-muhitni kuzatish qobiliyatining o'sishida musiqa san'ati muhim o'rin tutadi. Boshqa san'at turlariga nisbatan musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim tarbiyaviy qismidir.

Estetik tarbiya go'zallıknı his qilish va tushunish tarbiyasi demakdir. Estetik tarbiyada darsdan tashqari olib boriladigan musiqa san'ati mashg'ulotlari o'ziga xos, alohida o'tkir ta'sirchanlikka ega bo'lganligi sababli maorifchilarning e'tiboriga sazovor bo'lib kelmoqda. Qolaversa, o'quv maskanlarida musiqa orqali amalga oshiriladigan estetik tarbiya yosh avlodda go'zal odob-axloq, insoniy fazilatlarnı tarkib toptirishda muhim vosita ekanligi tarixdan ma'lum. Zero, jamiyat taraqqiyoti moddiy madaniyat bilan ma'naviy madaniyatning bir-birini to'ldirishi va uyg'unlashtirilishi orqali amalga oshadi.

Qo'shiq, musiqa insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarga yaxshilik qilishga undaydi. Har bir qo'shiq, musiqa orqali insonda yashirinib yotgan qobiliyat va iqtidorlarnı topish imkoniyati yuzaga keltiriladi. Xonandalik san'ati odamlardagi yaxshi fazilatlarnı ko'paytirib, yomon sifatlarnı bartaraf etishga yordam beradi. Milliy madaniy merosni o'rganish va o'zlashtirish orqali o'zbek millatiga mansubligi bilan faxrlanish hissini uyg'otadi. Musiqa

ma'naviy madaniyatimizning muhim tarkibiy qismidir. Shunday ekan, O'zbekistonning barcha fuqarolari milliy madaniyatimiz, xususan, musiqa va xonandalik san'atidan xabardor bo'lishi lozim.

Maktablarda tashkil etiladigan musiqa to'garaklarining asosiy maqsadi yoshlarimizga musiqa tarbiyasi ko'nikmalarini singdirishdan iboratdir. Shu bilan birga ularning faoliyatida o'quvchilarnı Vatanga, millatga mehr-muhabbatli, komil inson qilib tarbiyalash, to'garak a'zolarini ko'rik-tanlovlarga tayyorlash alohida o'rin tutadi.

Birinchi Prezidentimizning maxsus Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining besh yilligi munosabati bilan o'tkazilgan «O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq bayrami xalqimiz madaniy-ma'naviy hayotida unutilmas voqea bo'ldi. Umu-man, «O'zbekiston — Vatanim manim» mavzuidagi ko'rik-tanlovning o'tkazilishi mustaqillikning mohiyatini anglash, Vatanni ardoqlash va ulug'lash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi, mamlakat va xalqimiz hayotida qo'shiq bayramining odat tusiga kirishi uchun zamin yaratdi.

Farmonda insonlar qalbida muqaddas Vatan tuyg'usini tarbiyalovchi yuksak badiiy musiqa asarlari va qo'shiqlarning yaratilishiga keng imkoniyatlar berish maqsadida har yil avgust oyining uchinchi yakshanbasi «O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb belgilab qo'yildi. Mamlakatda musiqa, xonandalik san'ati va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida «O'zbeknavo» estrada birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs san'atini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek xonandalik san'atida erishilgan eng katta yutuqlardan biri 1995-yil dekabrda «O'zbekiston — Vatanim manim» mavzuidagi qo'shiqlar ko'rik-tanlovi bo'ldi. Bu ko'rik-tanlov mamlakatimizning hamma viloyatlarida, shahar va tumanlarida yuksak ko'tarinkilik ruhida o'tkazildi.

1996-yil mart oyida Toshkentning «Bahor» konsert zalida «O'zbekiston — Vatanim manim» deb atalgan qo'shiq tanlovining birinchi bosqichi bo'lib o'tdi. U O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga qarashli muassasalar o'rtasida o'tkazildi. Ko'rik juda qiziqarli bo'lib, unda maktabgacha ta'lim

muassasasi tarbiyalanuvchilaridan tortib, mamlakatdagi bir qancha pedagogika institutlari talabalari ishtirok etdi. Ko'rik-tanlov qatnashchilarining ona-Vatan go'zalligi, uning istiqlolini madh etgan qo'shiqlari taniqli bastakorlar, shoirlar va Xalq ta'limi vazirligining etakchi mutaxassislaridan iborat nufuzli hay'at a'zolari tomonidan baholandi.

Ko'rik-tanlovning faqatgina birinchi bosqichida 54 mingdan ziyod ishtirokchilar qatnashdi. 10 mingdan ortiq qo'shiq ijro etildi. 1996-yil 24-avgust kuni Toshkentdagi «Turkiston» saroyida qo'shiqlar ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'ldi. Ozod Vatanimiz va mustaqilligimizni tarannum etuvchi eng sara qo'shiqlar mamlakat bosh hay'ati hukmiga havola etildi. Tanlovda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'pgina millat vakillari faol qatnashdi. Rus, qozoq, turkman, qirg'iz, koreys, uyg'ur tillarida jonajon Vatanimizni kuylovchi qo'shiqlar yangradi. Uch kun davom etgan ko'rik-tanlovning yakunlovchi bosqichida hakamlar hay'ati va san'at muxlislari e'tiboriga 60 dan ortiq qo'shiq tavsiya etildi.

1996-yil 27-avgustda poytaxtimiz Toshkent shahrida qo'shiq bayrami o'tkazildi.

Tanlovlar teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar orqali ham millionlab kishilarning va qatnashchilarning ma'naviy olamini boyitmoqda.

Mustaqillik ma'naviy jihatdan mustahkamlanganligina, uning kelajagi porloqdir. O'zbek xalqining uzoq tarixi bunga guvohdir, zero, ma'naviyat, xususan, musiqa san'atisiz millat tarixi, hozirgi kun va kelajagini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Milliy ta'lim va tarbiya o'z mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, axloqiy va umuminsoniy fazilatlarini mujassam etishi bilan jamiyat rivojida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda milliy ta'lim va tarbiya oldidagi eng muhim vazifalardan biri ham o'quvchi-yoshlarda milliy ong va milliy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa, birinchi navbatda, ta'lim va tarbiya ishlarida milliy-ma'naviy qadriyatlardan unumli, oqilona va o'z o'rnida foydalanishni taqozo etadi. Fikrimizni birinchi Prezidentimiz I. Karimovning «Biron-bir jamiyat ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaratishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz», — degan gaplari to'la tasdiqlaydi (I.A. Karimov. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». T., «O'zbekiston», 1998).

O'zbek xalqi milliy qadriyatlari tizimida xalq musiqa ijodiyoti xalq hayotining barcha tomonlarini badiiy aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Unda xalqimiz hayotining turli davrlaridagi tarixiy-badiiy ko'rinishlari bilan birga xalq pedagogikasining

eng ilg'or, oliyanob g'oyalari umumlashganligi bois, yoshlarning badiiy-estetik va axloqiy, ma'naviy tarbiyasida foydalanish ta'lim sohasiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmani bajarishda qo'l keladi. So'nggi yillarda milliy musiqiy boyliklarni tiklash, to'plash, nashr qilish hamda ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslarini o'rganish bo'yicha e'tiborga molik ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu ulkan bebaho xazinaning qamrovi va ko'lami oldida qilingan ishlarni talab darajasida deb bo'lmaydi. Qudratli tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lgan xalq musiqa ijodiyotidan ta'lim tizimida, xususan, umumta'lim maktablarida dars va darsdan tashqari (turli madaniy-ommaviy tadbirlar, badiiy havaskorlik to'garaklari, ko'rik-tanlovlarga tayyor-garlik va hokazo) faoliyatlarda keng foydalanishni yanada kuchaytirish, birinchidan, ta'lim mazmunini boyitsa, ikkinchidan, ta'limning milliy negizini mustahkamlaydi. Xo'sh, umumta'lim maktablarida xalq musiqa ijodiyotini o'rganishda nimalarga e'tibor berish, ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatni qanday tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi? Ushbu yo'nalishdagi tadqiqiy izlanishlar quyidagi pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish ijobiy natijalarga erishish imkonini berishni ko'rsatdi:

1. Umumta'lim maktablarida dars va darsdan tashqari faoliyatda xalq musiqa ijodiyoti namunalariidan foydalanishda ularni ma'lum mezon va talablarga ko'ra tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda:

a) xalq musiqa ijodiga mansub asarlarning har bir sinfnining musiqiy mavzulari (yil, chorak)ga va dastur talablariga mosligi;

b) asarlarning o'quvchilarning musiqiy qiziqishi, qobiliyati va ijrochilik imkoniyatlariga to'g'ri kelishi;

d) tanlangan asarlar o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashi va tafakkurini, pirovard natijada milliy madaniyatini shakllantirish nuqtayi nazaridan tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lishi;

e) o'quvchilarda o'qishga, mehnatga, ijodiy izlanish, ijtimoiy foydali ishlarga rag'bat uyg'otishi;

f) xalq musiqa ijodiyoti namunalariining hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan umumxalq bayramlari, madaniy-ma'rifiy va ommaviy tadbirlar mavzulariga mosligi;

g) asarlarni o'rganishda ta'limning boshqa tarkibiy qismlarini (musiqa savodi, musiqa adabiyoti, musiqa ijodkorligi) o'zlashtirish uchun ahamiyatliligi yoki ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga egaligiga e'tibor qaratilishi muhimdir.

2. Xalq musiqa ijodiyoti namunalariidan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda sinfda o'rganilgan mavzularni mustahkamlash nuqtayi nazaridan yondashish. Dars va darsdan tashqari jarayonda xalq musiqasi namunalariini o'rganish, ijro

etish ishlari ular haqidagi tarixiy, adabiy, nazariy manbalardan imkon qadar ko'proq foydalanish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu pedagogik talab musiqa darslarining asosiy faoliyat turlari mazmuni va mohiyatiga muvofiq holda ish yuritishni nazarda tutadi. Ya'ni erkin tanlov asosida o'rganilgan asar ayni vaqtdagi asosiy maqsad va hal etilayotgan vazifalarga ijodiy yondashish xarakterida bo'lishi lozim.

3. Dars va darsdan tashqari faoliyatda o'rganish uchun tanlab olingan namunalar o'quvchilarning an'anaviy mumtoz va folklor yo'nalishida mustaqil bilim olishga bo'lgan talab va istaklariga mos kelishi va o'qituvchi tomonidan mashg'ulotlarni tashkil etishda e'tiborda tutilishi lozim. Bu pedagogik sharoit o'z mazmunida o'quvchilarning musiqiy iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun izchil va maqsadli mashg'ulotlar olib borishni nazarda tutadi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarga imkon qadar keng va ommaviy jalb qilishni, sinf va sinfdan tashqari ishlarda o'zaro aloqadorlikni kuchaytirishni uqtiradi.

4. Xalq musiqa ijodiyotiga murojaat qilganda, ularning qaysi mahalliy uslubga xosligi, janri, ijrodagi cholg'ular ishtiroki, raqs jo'rliigi kabilarga e'tibor berish eng muhim shartlardan hisoblanmog'i lozim. Chunki bu jihatlar xalq musiqasining eng muhim xususiyatlarini aks ettiradi va o'quvchilarning umum-musiqiy biluv darajasining takomillashuviga, milliy musiqaning o'ziga xos uslublarini, ijrochilik an'alarini chuqur o'zlashtirishlariga ijobiy ta'sir etadi, ta'kidlab o'tilgan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishishni kafolatlaydi.

5. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qituvchisi dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarni xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishtirib borishga nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan doimiy ravishda tayyorgarlik ko'rib, o'z bilim va malakalarini oshirib borishi lozim. Chunki o'qituvchi-murabbiyning bu faoliyatdagi muvaffaqiyati uning xalq tarixi, madaniyati, urf-odatlar va an'analari, shuningdek, musiqa san'ati sohasida qanchalik keng bilim va malakaga ega ekanligiga hamda shaxsiy namunasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Xalq musiqa ijodiyoti orqali o'quvchi-yoshlarda milliy madaniyatni shakllantirishda ushbu pedagogik talab va mezonlarni eng maqbul va mukammallikdan xoli deyish fikridan yiroqmiz. Zotan, milliy musiqiy ta'lim va tarbiyani milliy negizda takomillastirish vazifalari har bir pedagog-murabbiydan fidoyilikni, tashabbuskorlikni, o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanish holda ish tutishni talab qiladi.

Inson shaxsi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-

muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va to'garaklar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilishdir.

Tarbiyaning bosh maqsadi — yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib, hayotga joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi — shaxsning aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun:

— yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

— o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

— har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarida joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

— insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg'onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik)ni keng qo'llashi lozim;

— vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat-muloqotni o'rganish, o'z xalqi, davlatining himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish. O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

— qonuniy jamoa axloqiy va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya;

— mustaqil davlatimiz — O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to‘g‘ri tushuntirmoq kerak;

— turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

— sog‘lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo‘lish istagini shakllantirish;

— yoshlarni erkin, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo‘lishi lozim:

— tarbiya — tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigit-qizning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e‘tiborga olish;

— yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg‘usini qaror toptirish;

— milliylikning o‘ziga xos an‘analari va vositalariga tayanish;

— shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e‘tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo‘lish.

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ekanligiga va bu jarayon turli yoshdagi bolalarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish lozim.

O‘smir yigit va qizlar nafaqat bo‘lg‘usi katta hayotga tayyorgarlik ko‘radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bag‘rida yashaydilar ham.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, xohish-istaklari va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o‘ziga xosligi shundaki, to‘garak dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o‘smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

2. TO‘GARAK ISHINI YO‘LGA QO‘YISH VA UNING VAZIFALARI

Hozirgi davrda fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch» asarida ko‘rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma‘naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, kishilarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analimizga, umuminsoniy qadriyatlarga, Vatanga muhabbat, istiqloq g‘oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo‘nalishlarini topib joriy etishga bog‘liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda olib borish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e‘tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

O‘quvchilarning estetik tarbiyasi turlicha tuzilishi zarur. Mashg‘ulot shakli, maqsadi, mazmuni, pedagogik jihatdan o‘ziga xosligi, shuningdek, ish rejaları fan mantig‘ini hisobga olgan holda, bolalar yoshi va imkoniyatiga ko‘ra farqlanishi lozim. O‘quvchilarni serqirra, atroflicha ta‘sir etuvchi estetik qadriyatlarga yo‘naltirish zarur. Birinchi navbatda, milliy qad-

riyatlar, ona Zamin tabiati, milliy xalq san‘ati, Sharqning, O‘zbekistonning badiiy madaniyati, tarixiga muhabbat tuyg‘usini rivojlantirish lozim.

O‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq pedagogikasi asoslariga tayanish, Sharq mutafakkirlarining dono fikr-mulohazalaridan, shuningdek, jahon umuminsoniy qadriyatlaridan foydalanish lozim. Maktab va maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari oldida turgan vazifa yagona ichki estetik tarbiya tizimlarini yaratishdir. Bu tizimlar shaxsning har tomonlama yaxshi rivojlanish butunligini belgilaydi. Bu aniqlangan yangi bilimlar tizimini singdirish, o‘rganish, fikrlash, mulohaza etish, munosabat, baholar, g‘oyalar, mukammal bilimni oshirish va o‘z-o‘zini tarbiyalashdir. Darsdan tashqari ishlarda estetik tarbiya mazmuni, birinchi navbatda, tizimli tatbiq etishga ko‘ra uch vazifa birligi — ilmiy, rivojlanib borish, psixologik va pedagogik jarayonlar mush-tarakligi, ta‘lim jarayonida jamiyat talablarini e‘tiborga olish, yangicha bilimlarga amal qilish va hokazo qoidalar asosida tarkib topishi kerak. Ular asosida o‘quvchi shaxsiyatiga nisbatan yo‘nalish belgilanadi. Bu maqsadlarga erishish uchun o‘quvchilar bilan to‘garak tashkil etish, san‘atning ayrim turlarini, milliy va jahon madaniyatini o‘rganish va boshqa tarbiya shakllaridan foydalanish mumkin. Darsdan tashqari ishlarning barcha turlarida amalga oshiriladigan va yana qayta tiklanadigan turli das-

turlarida shaxsning shakllanishiga, uni ma'naviy mas'uliyat bilan yashashga o'rgatishni shakllantirishga e'tibor qaratilishi lozim. Ayniqsa, o'rta va katta yoshdagi o'quvchilarni o'z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga o'rgatish kerak. Estetik tarbiyaning yangi shakllari va mazmunini topish zarur. Jumladan, folklor milliy ansambllari, milliy raqs va qo'shiqlar, san'atning milliy-an'anaviy turlari nazariyasi va tarixini o'rganish, qadimiy estetik tarbiya vosita-uslublarini tiklash lozim.

Qobiliyatli va iste'dodli tarbiyalanuvchiga alohida munosabatda bo'lish kerak. Ommaviy tadbirlardan (suhbatlar, madaniyat, san'at namoyandalari bilan uchrashuv, konferensiyalar, hisobot chiqishlari, «Navro'z», «Qo'shiq bayrami», «Raqs bayrami», «Bolalar bastakorlari bilan uchrashuvlar», «Qo'shiq olamiga sayohat», «Bir qo'shiq tarixi», «Yalla va laparlar kechasi», Xalq qo'shiqlari bayrami», «Maqom kechasi», «Sahna ustalari bilan uchrashuv» kabi tadbirlari va hokazolar) keng foydalanish lozim. O'quvchilarni muzey, teatr kabi madaniyat dargohlariga, ko'rgazma va konsertlarga, madaniyat va me'morchilik obidalarini tomosha qilishga, tabiatning go'zal maskanlariga borishni tashkil etish va ulardan olgan taassurotlarini o'rtoqlashishga o'rgatish zarur.

Estetik tarbiyaning asosiy mazmuni, istalgan sohadagi darsdan va maktabdan tashqari to'garak

mashg'ulotlari tarbiyaning yagona qoida va uslublarini tashkil etadi.

Ya'ni san'atning aniq turlari va ifoda vositalarining o'ziga xosligi tasvirdagi, musiqa va hokazolar zamiridagi ifodani, badiiy vositalarni amaliy o'zlashtirish natijasidir. Bu borada asosiy vazifa to'laqonli badiiy va ijodiy asarni chuqur his etishdir. Shuningdek, milliy va tarixiy san'at shakllari andozasi bilan qarashni, o'qituvchining o'quvchilar va tarbiyachilar bilan o'zaro suhbatlarini, olamni estetik va badiiy his etish faoliyati davomida o'quvchilarning mustaqil ijodkorligini, turli o'yinlarni, didaktik sahna o'yinlarini bolalarning qobiliyatiga qarab tashkil etish bo'yicha to'garak rejasini tuzish kerak.

Maktabdan va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilar qiziqishiga suyanilgan holatda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi. O'quvchilarning mustaqil bilim olish uslubini o'zlashtirishlariga, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishiga imkoniyat yaratadi. Darsdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, o'quvchilarning bo'sh vaqtlariga muvofiq uslublar vositasida jamoat foydasi uchun ommaviy guruh, alohida ishlash orqali tarbiyaviy ish tashkil etiladi. To'garak dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit va qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar tug'diradi.

3. TO'GARAK RAHBARINING PEDAGOGIK MAHORATINI BELGILASH OMILLARI

Ma'lumki, inson shaxsining shakllanishi nihoyatda tinimsiz va murakkab jarayon bo'lib, unda ko'plab omillarning ta'siri bor, bularning ayrimlari tarqoq, ayrimlari maqsadga yo'naltirilgandir.

Insonni atrofini qurshab turgan vositalar tarbiyalaydi: oilasi, ota-onasi, maktab, do'stlar, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va h.k. Bolaning rivojlanish jarayonini boshqarib borish kerak, insonning biologik-ijtimoiy asosini tashkil qiluvchi, o'zini tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish lozim.

Tarbiyaning yetakchi maqsadi sifatida asrlar davomida shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi g'oyasi asos bo'lib keladi. Shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi — bu uning insoniy fazilatlarini to'laqonligini, jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi:

— yoshlarni falsafiy dunyoqarashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishda ko'maklashish, o'zligini tanishni, o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal zaruratini uyg'otish;

— o'quvchilarni umuminsoniy va Vatanimiz qadriyatlarini, boy madaniyati bilan oshno qilish, estetik tushunchalarini shakllantirish;

— har bir o'smirning, yigit va qizning tug'ma ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada rivojlantirish uchun shart-sharoit hozirlash;

— insonparvarlik axloqi me'yorini shakllantirish, mehribonlik, bir-birini tushunish, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik, muomala odobi, ziyolilik madaniyati kabi tarbiya choralari ko'rish, yolg'onchilikka toqatsizlikni qaror toptirish lozim;

— qonuniy jamoa axloqi va turmushi qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilab beradigan fuqarolik va ijtimoiy faollik hissini rivojlantirish;

— vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, tilga bo'lgan e'tiborli munosabat;

— mehnatga ijodiy yondashishni kuchaytirish, amaliy munosabatlarda tadbirkorlik, to'g'riso'zlik va mas'uliyat hissini tarbiyalash va h.k.

Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarbiyachilari (o'qituvchilar, sinf rahbarlari, to'garak

rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, bolalar yetakchilari va boshqalar) jamoasi oldida doimo o'quvchilarga umuminsoniy axloq qoidalari asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi.

Fanni o'rganishga muhabbat uyg'otish, bilimga tashnalik fazilatlarini axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. Bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyatida uning guruhdagi o'rni, atrofdegilarning u bilan qanday munosabatda ekanligi aniqlanadi, o'qishdagi muvaffaqiyat bolaning axloqiy tarbiyasini yuqori darajaga ko'taradi.

O'quvchilar qalbida yuksak ma'naviyatlikni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyosligini chuqur tushuntirish lozim.

Kitob yoshlar uchun hayot maktabidir.

4. XOR TO'GARAGINI TASHKIL ETISH VA XOR BILAN ISHLASH USLUBIYATI. O'ZBEKISTONDA BOLALAR XORI RAVNAQI

Mustaqillik sharoitida xalqning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish va mustahkamlash ishlari muhim davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xalq an'alarini va qadimgi bayramlarni tiklash, yangi bayramlarni joriy etish, xalqaro («Sharq taronalari» va boshqa) musiqa festival va anjumanlarini tashkil etish — bularning hammasi musiqa, shu jumladan, xor madaniyati sohasida yangi shakllarni izlab topish faoliyatini jadallashtirishni talab etmoqda.

Respublikamizdagi ijodiy kuchlarning yuksalishi bolalar ijodi sohasida ham o'z aksini topmoqda. Yosh avlod estetik tarbiyasi ishlarining rivojida «Biz — O'zbekiston bolalarimiz», «Chegarasiz go'zallik» tanlovlari, «Ustalar shaharchasi», «Qadimgi rivoyatlar kulgisi», atoqli hofiz va bastakorlar Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozovlarga bag'ishlangan xonandalar tanlovlari muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bu yo'nalishdagi yangi tashabbuslar sifatida «O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq tanlovi, yosh ijodkorlar (shu jumladan, yosh xonandalar) tanlovlari ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, 1997-yildan boshlab o'tkazilayotgan «O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq tanlovida boy va qiziqarli tajribalar orttirilgan. Unda barcha maktab xor jamoalari qatnashib, ijodiy iqtidorlarini namoyish etmoqda. Jamoalarning badiiy repertuari rang-barang bo'lib, E. Shvars, Sh. Yormatov, N. Norxo'jayev, A. Varel, A. Mansurov, D. Omonullayeva va boshqa bastakorlarning asarlarini qamrab olgan. Xor rahbarlari qo'shiq tanloviga tayyorlanish jarayonida bolalar bilan katta ijodiy va tarbiyaviy ishlarni bajarishmoqda.

Bilim manbai bo'lgan kitobni sevish, uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish lozim. Shu bilan birga, o'qish uchun kitobni tanlay olish va o'qish madaniyatiga ega bo'lish kerak. Bu ishda ustoz-murabbiylar, kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim.

Tarbiya muassasalarida umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo'lishi va uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va demokratiyani himoyalash har bir kishining asosiy vazifasidir. Jamiyatda dinning ta'siri ortib borar ekan, yoshlar bilan ishlashda dinga munosabatni to'g'ri shakllantirish, ularga dinni umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tushuntirish lozim. Bolalarga dinning alohida dunyoqarash, bilimning esa hayotni mukammallashtirish va rivojlantirish vositasi ekanligini anglatish zarur.

Respublika madaniy hayotida «Bizning kelajagimiz» bolalar ijodiy festivali ham yorqin iz qoldirgan. U «Yorqin yulduzchalar» jamg'armasi, Uspenskiy nomidagi musiqa maktabi va «Festival» interklubi tomonidan 2002-yilda tashkil etilgan. Festival dasturida bolalar badiiy ijod ko'rgazmasi hamda bolalar ijodiy (jumladan, xor) jamoalari qatnashadi.

Mustaqil O'zbekiston musiqa madaniyati badiiy turlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bunga hozirda mavjud bo'lgan milliy mumtoz musiqa an'analari, xalq ijodi, kompozitorlar faoliyati, badiiy havaskorlik shakllari hamda keng rivoj topgan estrada yo'nalishlari dalolat beradi. Zamonaviy kompozitorlar ijodida yangi uslublarni mujassam etgan asarlar paydo bo'lmoqda. So'nggi paytlarda bolalar uchun estrada yo'nalishidagi, pop-musiqa uslubida ham asarlar yaratilmoqda. Bunga N. Norxo'jayevning «Burgut va toychoq» musiqali ertagi, A. Ergashevning «Morozko», «Yer osti podshohining xazinasi», A. Mansurovning «Hayvonlar sultoni», «O'zga sayyoralik robot» operalari yorqin misol bo'la oladi.

O'zbekiston bolalar xor madaniyati rivojiga, bu sohada erishilgan yutuqlarga ajoyib musiqachi, bolalar xor san'ati faol targ'ibotchisi, O'zbekiston xalq artisti, «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibi, O'zbekiston teleradiokompaniyasining «Bulbulcha» bolalar xorining badiiy rahbari va bosh dirjori Sh. Yormatovning qo'shgan hissasi nihoyatda salmoqlikdir. Respublika bolalar xor san'atidagi ko'pgina ijodiy tashabbuslar uning nomi bilan bog'liqdir. U doimo xor madaniyati rivojlanishida yangi yo'llarni izlab topmoqda. Konservatoriyada o'qish davrida Sh. Yormatov Respublika bolalar va o'smirlar saroyi qoshida bolalar xorini tashkil etdi.

Konservatoriyani tugatgandan so'ng Sh. Yormatov o'sha maktabning o'zida, xor to'garagi rahbari va musiqa o'qituvchisi sifatida ishini davom ettirdi.

Sh. Yormatovning tolmas tashkilotchilik faoliyati, undagi ishtiyoq, bolalarga bo'lgan muhabbat yuqori darajadali, kasbiy mahorati qisqa muddat ichida unga xorning ijrochilik saviyasini yanada yuqori bosqichga olib chiqish imkonini berdi. O'zining ijodiy yo'lini topib olgan ushbu xor jamoasi endi xor musiqasi ishqibozlari, barcha musiqa shinavandalari orasida shuhrat qozonib, turli respublika va chet el ko'rik-tanlovlarida qatnashchi va sovrindor bo'lmoqda, shuningdek, mamlakatimizda o'tkaziladigan barcha bayram tadbirlarida faol ishtirok etmoqda. Sh. Yormatovning ijodiy sinchkovligi, izlanuvchanligi, bolalarning musiqa tarbiyasiga oid yangi shakllarga moyilligi unga maktab musiqali-xor sinflarini tashkil qilishga imkon berdi. Aksariyat hollarda ushbu sinflarga musiqa sohasida qobiliyati bor bolalar qabul qilingan. Bular respublikamizda xor studiyalarining tarkibiy qismi sifatida ilk bor tashkil qilingan xor sinflaridan edi. Bularning hammasi xor mashg'ulotlarining faollashuvi va samaradorligiga asos bo'ldi. Aynan shu davrda Sh. Yormatov maktabda o'zini barqaror va o'ziga xos jamoa sifatida ko'rsatgan o'g'il bolalar xor guruhini ham tashkil etdi.

Uning o'ziga xosligi, birinchi navbatda, akademik va o'zbek milliy qo'shiqchiligi an'alarini o'zida mujassam etgan yangi ijrochilik yo'nalishida namoyon bo'ldi. O'ziga xos bolalar xor jamoasining konsert faoliyati tez orada uni mashhur qildi va o'zbek o'g'il bolalarini xor ijrochiligiga jalb etishda katta ahamiyat kasb etdi. Shunday qilib, 1970-yillarning o'rtasida Toshkent shahar 99-maktabida «Boychechak» katta xor guruhi, o'g'il bolalar xori, qizlar vokal ansambliga asos solindi.

Yil sayin xor jamoalarining ijrochilik mahorati yuksalib bordi, dasturlari kengayib, konsert chiqishlari ko'paydi. Maktabning ikkala xor jamoasi «Do, re, mi, fa, sol», «Kuylang, bolalar», «Birga kuylaymiz», «San'at g'unchalari» kabi bolalar televizion dasturlariga jalb etildi. «Boychechak» xor jamoasi O'zbekiston bo'ylab gastrolga bo'ldi, Finlandiya, Bolgariya xor jamoalarining festival-tanlovlarida, bir necha

marta Estoniyada bo'lgan qo'shiq bayramlarida qanashdi. 1970-yilda «Boychechak» xor studiyaga aylanib, «Respublikaning namunali bolalar xor jamoasi» unvoniga sazovor bo'ldi. Gastrol faoliyati kengligi tufayli uning boy va rang-barang (jahon mumtoz asarlari, O'zbekiston kompozitorlari xor asarlaridan iborat bo'lgan) dasturlaridan turli xalq qo'shiqlari ham o'rin oldi.

Afsuski, bolalar saroyidagi sharoitning yetishmovchiligi sababli o'g'il bolalar xor jamoasi 1980-yillarda tarqalib ketdi.

O'zbekiston kompozitorlarining bolalar xor musiqasi sohasidagi faol ijodi, turli ko'rik-tanlov, festival, qo'shiq bayramlarining o'tkazilishi tufayli 1970-yilda O'zbekiston Davlat teleradioqo'mitasi qoshida Sh. Yormatov boshchiligida bolalar xor jamoasi tashkil qilingan edi. Bugungi kunga kelib, bu jamoa O'zbekiston teleradiokompaniyasining respublikamizdagi eng mashhur «Bulbulcha» bolalar xoriga aylandi. Bolalar xorining jarangdor, zavq-u shavqqa to'la san'ati barcha xor musiqasi muxlislariga ma'lumdir. Repertuardagi asarlarning ijrosi yuksak mahorati, musiqaviyligi, jonliligi, samimiyligi bilan ajralib turadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu jamoa mashhur xor jamoalari (Rossiya markaziy televideniye va radiosi qoshidagi katta bolalar xori, «Pioneriya» xor studiyasi) tajribalariga ijodiy suyanib, xor ijrochilarini tayyorlash va tarbiyalashning o'ziga xos qoidalariga asos soldi. Hozirda jamoa tarkibida 600 ga yaqin bola bo'lib, u o'zining quyidagi tuzilmasiga ega:

- maktabgacha bo'lgan bolalar guruhi;
- kichik xor guruhi;
- o'rta xor guruhi;
- o'g'il bolalar xor guruhi;
- yoshlar xor guruhi;
- folklor xor guruhi.

Xor jamoasi rahbari Sh. Yormatov keyinchalik o'zining maslakdoshlariga aylangan, «Bulbulcha» xorida vokal maktabini o'tgan xor dirijorlari (ularning deyarli barchasi konservatoriya bitiruvchilari)ni taklif etdi. Bular S. Olimov, A. Nesterova, I. Ro'ziyev, N. Ibrohimova, G. Mansurova, D. Sobirova, N. Mirzayeva va boshqalardir.

Havaskorlik xori faoliyatining tashkiliy asoslari. Havaskorlik xorining vazifalari

Hozirgi davrda havaskorlik xorining faoliyati quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

a) keng xalq ommasini g'oyaviy va estetik tarbiyalash;

b) xor jamoasi qatnashchilarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va ularning madaniy-estetik saviyalarini oshirish;

d) xor ishtirokchilariga musiqa ma'lumotini berish;

e) havaskor artistlarni badiiy ijro mahoratiga jalb qilish, ularning konsert ijrochilik faoliyatini tashkil qilish.

Xor har bir a'zosi jamoa oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun faol bo'lishi kerak. Havaskorlik xori jamoasi faqat dam olish,

ko'ngil ochish maqsadlari uchun tuziladi, deb qarash mutlaqo noto'g'ri. Bunday holda jamoaning tarbiya funksiyasi yo'qoladi, u kundalik ijtimoiy-siyosiy hayotdan chetda qoladi.

Xor a'zolarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirish havaskorlik xorlarining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Ma'lumki, kishilar havaskorlik xorlari faoliyatiga o'zlarining dam olish vaqtlarida, o'z xohishlari bilan qatnashib, madaniy saviyalarini oshiradilar, qo'shiq aytish, musiqa tinglash va musiqa savodi kabi bilimlarga ega bo'ladilar. Bu esa ularning badiiy didlarini oshira boradi.

Havaskorlik xorini tashkil qilish

Havaskorlik xorini tashkil qilish, asosan, ikki davrga bo'linadi. Birinchi davrga havaskorlik xori jamoasini tashkil qilish uchun bajariladigan barcha tayyorgarlik ishlari kiradi.

Ikkinchi davrga rahbarning xor bilan birinchi uchrashuvi, xonandalarning vokal, musiqiy qobiliyatlarini tekshirish va ovozlarni aniqlay borish, xor partiyalarini butlash ishlari kiradi.

Mana shu ishlarning hammasi xor tuzilishining tashkiliy davri hisoblanadi.

Xor rahbari o'z atrofidagi faollar bilan xor tashkil qilish uchun keng targ'ibot ishlari olib bormog'i lozim. Bu ishda barcha targ'ibot vositalaridan keng foydalaniladi.

Bo'lajak xor a'zolari bilan bo'ladigan birinchi uchrashuvga jiddiy qarash, puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Agar birinchi yig'ilish yomon tashkil qilinsa, bu ish qo'shiq-xor ijrochiligini sevuvchilarga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Xor rahbari mahalliy sharoit bilan, shu yerning qo'shiqchilik an'analari bilan yaxshi tanishgan va yuqoridagi ko'rsatmalarga amal qilgan holda xor tuzishga kirishadi. Shundan keyin ikkinchi tashkiliy davr rahbarning xor a'zolari bilan birinchi rosmana uchrashuvidan boshlanadi.

Puxta tayyorgarlik ko'rib o'tkaziladigan birinchi tashkiliy mashg'ulotda xodimlardan biri yig'ilgan kishilarga xor rahbarini tanishtiradi. Shundan so'ng xor rahbari oldinga qo'yilgan vazifalar haqida, xor qo'shiq san'ati haqida gapirib beradi. To'garak a'zolarini yangi qo'shiqlar bilan tanishtiradi va tanish qo'shiqlardan bir-ikkitasini aytib beradi, xonandalarni ham tanish qo'shiqni birgalashib aytishga taklif qiladi. Ilk bor qo'shiq aytish ishtiyoqida kelgan shaxslar mashg'ulot mazmunidan yaxshi taassurot olishlari kerak. Birinchi mashg'ulotda to'garak a'zolariga xor tuzish uchun har bir xonandani eshitib ko'rish, ularning ovoz xarakterini, qaysi partiyaga mansubligini aniqlash zarurligi tushuntiriladi. Shuningdek, xonandalar bilan

Havaskorlik xorlarining yana bir muhim ahamiyati shundaki, ular keng konsert chiqishlari, konsertleksiya, konsert-suhbat, har xil uchrashuvlar o'tkazish yo'li bilan diyorimizda xalq qo'shiqlari, vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar, klassik asarlarni targ'ib qilib, o'ziga xos madaniy-oqartuv ishlarini olib boradilar.

Shunday qilib, havaskorlik, xor jamoalari o'zlarining badiiy-ijrochilik mahoratlarini oshirishni o'quv-tarbiya va g'oyaviy-tarbiyaviy ishlar bilan bog'lagan holda olib boradilar va mehnatkashlarga madaniy xizmat qilish vazifasini bugungi kun talabiga mos ravishda bajaradilar.

maslahatlashib, mashg'ulotlarning aniq kunlari va vaqtlari belgilanadi.

Shunday qilib, xor rahbari birinchi darsda xor qatnashchilari bilan qisman tanishadi, ularni ro'yxatga oladi. Xor jamoasining tashkiliy davrida xonandalarni xorga tezroq ko'proq jalb qilish uchun rahbar birinchi tashkiliy kundan boshlab o'zining butun pedagogik mahoratini ishga solishi va mashg'ulotlarni qiziqarli o'tkazishi zarur.

Ma'lumki, musiqaga butunlay uquvsiz kishilar juda ham kam uchraydi. Chunki hozirgi vaqtda radio, televideniye, axborot vositalari orqali juda ham ko'p musiqa eshitish imkoniyati mavjud. Mana shu vositalar orqali insonlar ko'p musiqa axboroti oladilar. Bu ishlar, albatta, yoshlar va kattalarning musiqiy didini, tushunchasi va ongini o'stiradi. Shuningdek, radio, televideniye kishilarning eshitish qobiliyatiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Xorda o'z-o'zini boshqarish organlarini saylash muddati biroz cho'ziladi va bu ish xonandalar bir-birlari bilan birmuncha tanishganlaridan so'ng amalga oshiriladi. Keyingi mashg'ulotlar davomida xor qatnashuvchilari orasida faol, yaxshi musiqiy qobiliyati bor kishilar ma'lum bo'la boshlaydi. Shular orasidan xor boshlig'i saylanadi. Xorda olib boriladigan, butun o'quv-tarbiya, jamoat ishlari, shuningdek, mashg'ulot va konsertlar o'tkazish uchun joy tayyorlash, jamoa tarkibini yangi xonandalar bilan to'ldira borish kabi tashkiliy ishlar boshliq yordamida o'tkaziladi.

Bundan tashqari, xor jamoasiga kotib va kutubxonachi ham tayinlanadi. Kotib jamoa faoliyatiga taalluqli hujjatlarni yig'ib yuradi va saqlaydi. Kutubxonachi esa nota materiallarini saqlaydi. Mashg'ulot vaqtida xonandalarga nota partiyalarini tarqatadi va yig'ib oladi. Shunday qilib, asta-sekin havaskor jamoa o'z-o'zini boshqarish tamoyiliga asoslanib ish olib borishga o'rganadi.

Xonandalarning ovoz va musiqa qobiliyatlarini aniqlash.

Xorga musiqa qobiliyati bor, ya'ni musiqaviy xotiraga, eshitish qobiliyatiga, ritmga va shirali ovozga ega bo'lgan kishilar qabul qilinadi. Musiqa eshitish qobiliyati yaxshi rivojlanmagan, ammo o'rtamiyona ovozga ega bo'lgan kishilarni xorga qabul qilish mumkin. Bunday kishilar xorda ishtirok etishni, qo'shiq aytishni astoydil xohlaydilar va ular bilan yaxshi ish olib borilsa, asta-sekin ularning eshitish qobiliyati va ovozi rivojlana boradi.

Shunday qilib, xonandalarga xorda qo'shiq aytishni o'rgatishga kirishishdan oldin, albatta, dastlabki mashg'ulotlarda ularning ovozlari sinovdan o'tkazish zarur.

Bunda xonanda ovozi:

- xorga loyiq va noloyiqdigi;
- qaysi partiyaga mansubligi;
- tembrli;
- diapazoni;
- chidamlilik darajasi aniqlanadi.

Shuningdek,

- xonandaning vokal tayyorgarligi;
- intonatsiyaning tozaligi;
- musiqiy xotirasi;
- nutq;
- ritmni sezish qobiliyati;
- musiqiylik;
- notani o'qiy olish kabi muhim tomonlarini tekshirib ko'rish foydali va maqsadga muvofiqdir.

Shuni ham aytish kerakki, xonandaning yuqorida aytilgan ovoz xususiyatlarini va uning umumiy musiqiy qobiliyatlarini darhol aniqlash oson emas. Agar professional xorlarda bu xususiyatlarning aksariyatini xonandani xorga qabul qilishdan oldin aniqlash talab qilinsa, havaskorlik xorlarida ovozni aniqlash ish jarayonida asta-sekin bajariladi.

Ovozni tekshirish va aniqlash uchun har xil usullar va mashqlar qo'llaniladi.

Masalan, professor A. Yegorov o'z tajribasiga tayangan holda quyidagi maslahatlarni beradi:

1. Major va minor uch tovushli ovozlari alohida-alohida aytirish.

2. Major va minor gammasining tovushlarini alohida-alohida aytirish.

A. Yegorov bu ikki mashqni o'rtta registrlardan boshlab, avval yuqoridan pastga, keyin pastdan yuqoriga xromatik tartibda ovoz diapazoniga qarab bajarishni taklif qiladi.

3. Ikki va uch tovush oralig'ini xromatik tartibda kuylash.

4. Har xil intervallar yoki kuyning kichik-kichik bo'laklarini fortepianoda chalib berish va qaytarish.

Uchinchi va to'rtinchi bandlardagi maslahatlarga ko'ra xonandaning intervallarni qanchalik sof talaffuz eta olish ko'nikmasiga egaligi aniqlanishi

uqtiriladi. Shundan keyin notani solfedjio qilish qobiliyati tekshirilishi, bunda musiqa adabiyotidan biror vokal yoki xor asarining bo'lakchasini matni bilan kuylash orqali xonanda ovozi xorga yaroqliligi aniqlanadi.

Individual tekshirish tugagach, bir jinsli ovozlarning bir nechtasini birga qo'shib, o'rtta registrdagi, yaxshisi, bir notadan ma'lum bir bo'g'inni yoki biror unli tovushni cho'zish orqali tekshirish mumkin. Bu holda har xil tembrli ovozlarda yaxshi eshitiladi. Sekin-asta ovoz partiyasining ichida bir ovozni ikkinchi ovozga yaqinlashtira borib, ovozlarga deyarli qo'shiladigan guruhlar barpo qilish va xor partiyasini tuzish mumkin. Bu uslub har bir xonandaga bir-birining ovozi eshitilish imkonini beradi.

Havaskorlik xorlarida chiroyli tembrli va o'ta katta diapazonli ovozlarda kam uchraydi. Umuman, havaskorlik xorlarida qatnashishni xohlovchilar o'z ko'pmi o'zlaricha ashula aytib yurgan va aytishni xohlovchi, lekin umuman ashula aytmagan kishilar bo'ladi. Bunday kishilarning ovozi va musiqa eshitish qobiliyati hali rivojlanmagan bo'ladi. Xor rahbari ishni, avvalo, xonandalarning ovozi bor-yo'qligini, individual sifatlarini va musiqiy qobiliyatini aniqlashdan boshlashi kerak. Buning uchun, dastavval, ovozlarning primar tovushlarini, ya'ni zo'riqmasdan, bemalol jaranglovchi tovushlarni eshitib ko'rish kerak. Buning uchun rahbar xonandalarning tortinmasligi, ovozlari barala chiqarishiga yordam berishi, uni qisqa vaqtda bo'lsa ham tayyorlashi kerak.

Boshlang'ich mashg'ulotlarda butun jamoa bilan ularga tanish va yaqin bo'lgan qo'shiqlardan ikki-uchtasini bir ovozdan aytish mumkin. Masalan, «Yallama yorim», «Yor-yor» va hokazo.

Mashg'ulotlarda xor qatnashuvchilari bir-birlariga ancha o'rganib olishadi. Shu davrda xor rahbari uchun qatnashuvchilar bilan erkin suhbatlashish imkoniyati tug'iladi. Ana shunday suhbatlarda rahbar qatnashuvchilarning xorga qatnashishdan maqsadlarini, ular qanday ashulalarni yoqtirishlarini, qanday musiqalar ularga ko'proq yoqishini, shu bilan birga, xor qatnashuvchilarining badiiy-musiqiy qiziqishi va xohishlarini yaxshiroq bilib oladi.

Mana shu ishlardan keyin xonandalarni yakka-yakka eshitishga kirishish mumkin. Masalan: erkaklar uchun kichik oktavada, ayollar uchun birinchi oktavada major gammasidan birorta tovushni eshitib, xonandadan ovoz bilan takrorlash hamda tanish ashulani aytib berish so'raladi. U ashulani aytib bergach, shu kuy boshqa tonlikda aytiriladi. Agar xonanda yangi tonlikka moslashib aytib olsa, rahbar uning musiqa qobiliyatini, xotirasini va boshqa tomonlarini aniqlab oladi. Shundan so'ng xor rahbari xonandaga ma'lum tovushni eshittirib, uni takrorlashni yoki uncha qiyin bo'lmagan mashqlarni

eshittirib, ularni ovoz bilan takrorlashni soʻraydi. Mashqlar pastki yoki oʻrta registr notalaridan boshlab yuqoriga qarab, keyin esa pastga tushiladi. Natijada, ovozning yuqori va pastki chegaralari, yaʼni diapazoni aniqlanadi. Buning uchun major uch tovushliklaridan foydalanish mumkin.

Bu tekshirish jarayonida rahbar xonanda ovozigagi soxtalik, musiqa eshitish qobiliyati yetarli rivojlanmaganligi, xotiraning yomonligi, nafasning notoʻgʻriligi kabi sabablar natijasida paydo boʻlishini anglab oladi. Baʼzi xonandalar berilgan tonga darhol tusha olmaydilar, lekin kvarta yoki kvinta oraligʻida joylashgan ikkinchi tovushga tusha oladilar. Ular faqat «oberton» tovushlarni eshitish yoʻli bilan ikkinchi tovushga tushadilar. Bunday kvarta-kvintaviy eshitish va uni ovoz bilan qaytarish «oberton — eshitish qobiliyati» deb ham nomlanadi. Bunday xonandalarning eshitish qobiliyati mashgʻulotlar davomida oʻsadi. Ular musiqa qobiliyatiga va ovozni ichki muvofiqlashtirish malakasiga ega boʻladilar. Ayrim xonandalar biron-bir musiqa asbobida hosil qilingan tovushni qaytara olmasalar-da, lekin ovoz bilan berilgan tovushni bemalol takrorlay oladilar.

Shuni ham aytish kerakki, musiqa asbobi ham eshitish qobiliyatini oʻstiradi, yaxshi eshitishga yordam beradi.

Shunday qilib, ovoz, avvalo, uning tembriga, keyin esa diapazoniga qarab aniqlanadi.

Tekshirish paytida ovoz diapazoni kichik boʻlsa ham, undan xavotirlanmaslik kerak, balki mashqlar natijasida ovoz diapazonini kengaytirib borish zarur.

Baʼzida kishilar oʻzlariga xos boʻlmagan ovoz bilan qoʻshiq aytib yuradilar. Ular, asosan, koʻkrak registrda, kichik oktava «sol», «lya» va birinchi oktava «lya», «si»da kuylashga oʻrganib qolgan boʻladilar. Agar shu ovoz bilan balandroq notalarda kuylatilsa, u bemalol yuqori notalarni oladi. Shu bilan u alt emas, soprano yoki bariton emas, balki tenor ekanligi aniqlanadi. Bu hol, koʻpincha, ayollarda uchraydi. Xonandaning ritmik sezgisini aniqlash uchun quyidagi har xil ritmik usullardan foydalanish mumkin.

Xonandaning musiqiy xotirasini aniqlash uchun kichik kuy, alohida jumalardan iborat mashqlardan foydalanish mumkin. Kichik bir kuy xonandaga chalib eshittiriladi, keyin esa uni takrorlash soʻraladi. Agar xonanda kuyni aniq takrorlasa, kuyni oʻzgartirib, qayta chalinadi. Xonanda kuyni bir eshitganda-yoq ilgʻab ololmasa, uni ikki va hatto uch marta chalib eshittirish kerak. Xonandaning sof va aniq intonatsiya qilishiga qarab, uning musiqa xotirasini baholash mumkin.

Xonandalarning ovozini tekshirib boʻlgach, yuqorida aytib oʻtilganidek, alohida jurnal yoki daftarga har bir ovoz haqidagi toʻliq maʼlumot taxminan quyidagicha yoziladi:

№

Xonandalarning

ismi va familiyasi

Tugʻilgan yili, kun va oyi

Xorga kirgan vaqti

Umumiy maʼlumoti

Musiqa maʼlumoti

Eshitish qobiliyati

Ritm sezishi

Ovoz temбри va uning toʻliq taʼrifi

Diapazoni

Qaysi partiyaga yozildi

Ayrim belgilari

Xor rahbari — xor jamoasi ijodiy faoliyatining tashkilotchisidir. Havaskorlik xori rahbari qobiliyatli, bilimdon mutaxassis boʻlishi bilan birga, mahoratli pedagog-tarbiyachi ham boʻlishi shart. Xor rahbarining tashkilotchilik mahorati gʻoyat muhim ahamiyatga ega. Rahbarning jonkuyarlik bilan, rejali ish olib borishi jamoaning oyoqqa turish davrini tezlashtiradi. Rahbarning xorda psixologik va ijodiy muhitni barpo qila olishi ish jarayonida muvaffaqiyatga erishish garovidir. Jamoani boshqarish maʼlum talablar, nazorat va ijodiy intizom bilan bogʻliq. Bu ishlarning hammasi rahbarning jamoa oldidagi obroʻsiga ham bogʻliq boʻladi. Oʻzining mashaqqatli mehnati, oʻtkir bilimi va mahorati, xulqi, shaxsiy namunasi va jamoa bilan munosabati orqali u xonandalar hurmatiga sazovor boʻladi. Rahbar jamoaning ijodiy ishini aniq va unumli olib borishi, ijodiy rejalarini oldindan belgilay bilishi va ularning pishiq-puxta bajarilishini taʼminlash choralarni koʻrishi kerak.

Xor jamoasini boshqarish — bu, avvalo, havaskor xonandalarga estetik-axloqiy kamolotlarini oshirish maqsadida taʼsir qilish jarayoni hisoblanadi.

Ijodiy muhit rahbar va jamoaning oʻzaro hamkorligida yaratiladi, albatta. Lekin havaskorlik mashgʻulotlari kamolot sari eltuvchi yoʻl boʻlibgina qolmay, ayni paytda keng maʼnoda tashkiliy-tarbiyaviy saboq hamdir. Ijodiy ishni, intizomni yoʻlga qoʻyishda, oldinga qoʻyilgan maqsadga erishishda rahbarning mustahkam irodasi va talabchanligi muhim rol oʻynaydi. U xor qatnashchilarining xarakterini bilishi, ular bilan munosabatda boʻlganda individual yoʻl tutishi, oldinga qoʻyilgan vazifani bajarishda hammaga bir xil talab qoʻyishi maqsadga muvofiqdir.

Havaskorlik xori rahbarining vazifalari, asosan, quyidagilardan iborat:

— ijrochilik mahoratiga ega boʻlgan xor jamoasini barpo qilish;

— xonandalarda yaxshi musiqiy did va ijodiy qiziqishni shakllantirish;

— xorda g'oyaviy-tarbiyaviy va o'quv-tarbiya ishlarini olib borish;

— konsert dasturlarini tayyorlash, konsertlarda chiqish va boshqalar;

— g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish.

Badiiy havaskorlikning asosiy vazifalari insonlarning badiiy didini oshirish, g'oyaviy-siyosiy ongini o'stirish va ularni ilg'or madaniyatli kishilar darajasiga ko'tarish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Havaskorlik xorida olib boriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy ishlar xor qatnashchilarini siyosiy, mada-

niy, axloqiy va ma'naviy jihatdan boyitadi. Havaskorlik xorida g'oyaviy-siyosiy, tarbiyaviy ishlar shu jamoaning kundalik madaniy-ijtimoiy hayoti bilan bog'langan holda olib borilsa, yanada yaxshi samaralar beradi.

Xonandalarni g'oyaviy-siyosiy tarbiyalash maqsadida har xil mavzudagi ma'ruzalar, leksiyalar va suhbatlar tashkil qilinadi. Ma'lum bir mavzuda ma'ruza o'tkazish uchun tajribali o'qituvchi jalb qilinadi. Ma'ruzani qaysi mavzuda o'tkazish kerakligi oldindan maslahatlashib olinadi. Albatta, bu tadbir xorning umumiy g'oyaviy-badiiy, tarbiyaviy ishlar rejasidan kelib chiqib o'tkaziladi.

5. DRAMA TO'GARAKLARI

O'zbekiston madaniy hayotida musiqali drama va komediya teatrlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqali drama va komediya teatrlari, opera va balet, operetta, drama, miniatura, yoshlar, bolalar va qo'g'irchoq teatrlari respublikamizda yashayotgan barcha millat vakillarining ma'naviy yuksalishiga barakali hissa qo'shib kelmoqda.

XX asr boshlarida o'lkamizda yuzaga kelgan musiqali drama va komediya teatrlari tarixiy ahamiyatga molik sharafli yo'lni bosib o'tdi. Mazkur sohaning yetakchi dargohi bo'lmish Muqimiy nomli poytaxt teatri hamda viloyat teatrlarining aksariyati o'ziga xos ijodiy qiyofasiga ega. Bu san'at maskanlarida yaratilgan sahna asarlari xalqimizning madaniy va ma'naviy boyligidir.

Turli davrlarda yaratilgan o'nlab musiqali sahna asarlari teatr tarixida va bugungi kunda ham mumtoz merosimiz sifatida ardoqlanib kelinmoqda.

Darhaqiqat, musiqali teatr o'z vaqtida respublikamiz madaniy hayotining faol markazlaridan biri sifatida o'zbek xalqining ezgu niyatlarini badiiy vositalar bilan ifodalashda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ijtimoiy hayotning dolzarb masalalarini yoritishda, xalqimizni yangi zafarlarga chorlashda, milliy ruhdagi yorqin sahna asarlarining yuzaga kelishida musiqali teatr jamoatchiligi ulkan hissa qo'shishga muyassar bo'ldi.

Respublikamizda bunday vazifalarning amalga oshirilishida, musiqali teatr poydevorini qurishda, uning rivojlanishi va kamol topishida o'zbek xalqining taniqli adabiyot va san'at namoyandalari katta hissa qo'shganlar. Ular haqida gap ketganda, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Muhiddin qori Yoqubov, Mannon Uyg'ur, G'ulom Zafariy, Shamsiddin Xurshid, Abulhamid Cho'lpon, Ziyo Said, Shorahim Shoumarov, To'xtasin Jalilov, Komil Yashin, Mirshohid Miroqilov, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboyeva, Nurxon Yo'ldoshxo'jayeva, Tursunoy Saidazimova,

Usta Olim Komilov, Yusuf qiziq Shakarjonov, Matyusuf Xarratov, Sheroziy, Madrahim Yoqubov, Eshonxo'jayev, Polvonov, Matpano Xudoyberganov, Hoji Siddiq, Yunus Rajabiy, Rizqi Rajabiy, Usta Ro'zmatxon, Ma'suma Qoriyeva, Lutfixonim Sarimsoqova, Tolibjon Sodiqov, Ali Ardobus, M. Tojizoda va boshqa ko'plab fidokor san'atkorlarning nomlarini hurmat-ehtiromla bilan tilga olish mumkin.

O'zbek musiqali teatrlarining poydevorini qurishda va uning ravnaq topishida boshqa millat vakillari bo'lgan iste'dodli san'atkorlar N. Mironov, V. Uspenskiy, A. Kozlovskiy, G. Mushel, R. Gliyer, S. Vasilenko, keyinchalik B. Brovsin, B. Nadejin, B. Giyenko, G. Sobitov ham hissa qo'shganlar. Bu kompozitorlar o'zbek xalq musiqasi merosini o'rganib va o'zbek bastakorlari bilan hamkorlikda musiqali spektakllar yaratishgan. Ular sahna asarlarini va klavir partituralarini yozishda, o'zbek xalq kuylarini simfonik orkestrga moslashtirishda va milliy bastakorlarni tarbiyalashda ko'maklashganlar.

O'zbek musiqali drama va komediya teatrlarining rivojlanishida Ikkinchi jahon urushi yillari va urushdan keyingi davr ayniqsa samarali bo'ldi. Bu davrda yangi avlod dramaturg va kompozitorlari dadil qadamlar bilan ijod sohasiga kirib keldilar. Ular orasida dramaturglardan Sobir Abdullo, Uyg'un (Otaqo'ziyev), Shukur Sa'dullo, Zinnat Fatxullin, Nazir Safarov, Tamkin, Umarjon Ismoilov, Turob To'la, Ahmad Bobojon, Shuhrat, Hamid G'ulom, Ibrohim Rahim, Jumaniyoz Jabborov, Husniddin Sharipov, O'tkir Rashid, Ramz Bobojon, bastakorlardan esa Po'latjon Rahimov, Komiljon Jabborov, Muxtorjon Murtazoyev, Saidjon Kalonov, Manas Leviyev, Doni Zokirov, Hamid Rahimov, Dadaali Soatqulov, Olimjon Halimov, Sobir Boboyev, Ibrohim Hamroyev, Fattoh Nazarov, Ikrom Akbarov, Abdurahim Muhammedov, Matniyoz Yusupov, Abdusharif Otajonov, Sulton Hayitboyev va boshqalar bor edi.

O'zbekiston zaminida bunyodga kelgan musiqali drama va komediya teatr san'atining turli davrlari, xilma-xil musiqali spektakllar, ayrim dramaturg va bastakorlarning ijodi to'g'risida musiqashunos, teatrshunos va adabiyotshunoslar tomonidan ko'plab maqolalar bitilgan va kitoblar yaratilgan. Lekin ularning aksariyati rus tilida yozilgan.

Masalan: musiqashunos Y. Romanovskayaning «Музыкальный театр Узбекистана» maqolasida O'zbekistonda musiqali teatrning shakllanishi «Halima», «Po'rtana», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Gulsara» musiqali dramalari misolida ko'rsatib beriladi. Musiqashunos V. Belyayev «Узбекский музыкальный театр в Москве» maqolasida «Farhod va Shirin», «Gulsara» spektakllarini tahlil etadi. Y. Bronfin «Творческая история музыкальной драмы», «Фархад и Ширин» nomli maqolasida kompozitor V. Uspenskiyning «Farhor va Shirin» musiqali dramasi yaratish ustida olib borgan ijodiy tajribasi, yutuq va kamchiliklari to'g'risida mulohaza yuritadi. Teatrshunos A. Troitskaaya «Из истории народного театра и цирка в Узбекистане» tadqiqotida oldingi davrlarda Farg'ona vodiysining xalq teatrlari faoliyati va repertuari haqida ma'lumot beradi. Musiqashunos T. Vizgo «Опера и музыкальная драма» maqolasida 1917—1951-yillarda O'zbekistonda opera va musiqali drama janrlarining shakllanishi va rivojlanishini qisqacha yoritib, asosan, Ikkinchi jahon urushi yillarida bunyodga kelgan sahna asarlariga to'xtaladi. Teatrshunoslar L. Avdeyeva, T. Tursunov va V. Dyachenkolarning «На пути создания музыкально-драматического театра» maqolasi O'zbekistonda bevosita musiqali teatr tashkil topishidan oldingi davrlarda o'zbek milliy tomosha san'atida sahna asarlariga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib berishga qaratilgan. Teatrshunos F. Jo'rayevning «Сценическая история музыкальной драмы «Гулсара»» maqolasida mazkur spektaklning turli davrlarda yuzaga kelgan sahnaviy hayoti to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Musiqashunos K. Olimboyevaning «Узбекская музыкальная драма» tadqiqotida musiqali teatr rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va ayrim asarlarning ilmiy tahlillari berilgan. Olima M. Hamidovaning «Узбекская музыкальная драма» kitobida turli sahnaviy asarlarning ijro va ovoz masalalarini tahlil etish misolida, mazkur janrning rivojlanish taqdiri to'g'risida mulohaza yuritiladi. Kompozitor, etnograf-olim V. Uspenskiy «Научное наследие» maqolasida musiqali spektakllar yaratish borasidagi o'z tajribalarini bayon etadi. Musiqashunos Yan Pekker «Виктор Александрович Успенский» kitobida kompozitorning «Farhod va Shirin» musiqali dramasi tarixiy va ilmiy-nazariy jihatlardan batafsil tahlil etadi. Yan Pekker o'zining

boshqa yirik tadqiqoti «Узбекская опера» kitobining ikkinchi bo'limini O'zbekistonda musiqali drama teatrining shakllanish tarixiga bag'ishlaydi.

O'zbek tilida quyidagi ilmiy maqola va maxsus tadqiqotlar nashr qilingan. M. Rahmonovning «O'zbek teatri tarixi» va «O'zbek teatri» kitoblarida O'zbekistonda qadim zamonlarda paydo bo'lgan xalq teatr san'ati, XX asr boshlarida Yevropa uslubidagi milliy teatr shakllanishi va shu munosabat bilan yaratilgan sahna asarlari to'g'risida keng ma'lumot beriladi. Teatrshunos M. Qodirovning «Sehr va mehr» asarida O'zbekistonda musiqali drama teatrining shakllanishi va rivojlanishi, ayrim yetuk asarlarning dramaturgiyasi va rejissorlik, ijrochilik mahoratiga oid masalalar talqin qilinadi. Shu muallifning «O'zbek xalq og'zaki ijodi», «Xalq qo'g'irchoq teatri» va «O'zbek xalq tomosha san'ati» kitoblarida o'zbek xalqining an'anaviy tomosha san'atining tarixiy ildizlari va zamonaviy sharoitda rivojlanish masalalari yoritilgan. Teatrshunos B. Nasriddinovning «Xurshid» nomli kitobida O'zbek milliy teatrining tashkilotchilaridan biri, atoqli shoir va dramaturg Shamsiddin Sharofiddin o'g'li Xurshidning hayoti va ijodi, o'zbek sahnalarida ilk bor namoyish etilgan «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi mashhur sahna asarlarining yaratilishi bilan bog'liq ma'lumotlar beriladi. O'zbekiston xalq artisti Sh. Mag'zumovning «Sahna sururi» esdaliklar kitobida o'zbek milliy teatrining yuzaga kelishida faol ishtirok etgan san'atkorlar va ilk sahnaviy asarlarning yaratilishiga oid qiziqarli suhbatlar bayon etilgan. M. Qodirovning Muqimiy nomli teatr faoliyatining 50 yilligiga bag'ishlangan asarida O'zbekistonda musiqali drama sohasining yetakchi dargohlaridan bo'lmish mazkur teatrning tarixi va unda ijod etgan san'atkorlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan mualliflarning maqola va tadqiqotlarida o'zbek musiqali drama va komediya janrining shakllanish va rivojlanish jarayoniga oid turli mavzudagi tarixiy va ilmiy masalalar o'z aksini topadi. Mazkur kitob va maqolalar, ko'pincha, musiqali teatr san'atining ayrim davrlari va alohida olingan sahnaviy asarlarning tahliliga qaratilgan. O'zbek musiqali teatr san'atining yuzaga kelishidan to hozirgi davrgacha bo'lgan bir butun tarixini yorituvchi asarlar juda kam. Vaholanki, shu xildagi ilmiy nashrlar o'zbek musiqali teatrining tarixiy ildizlari hamda zamonaviy jarayonlarini bir butun tasavvur etish uchun juda muhim.

1991-yildan e'tiboran istiqlol yo'lida dadil qadamlar tashlayotgan O'zbekiston ijtimoiy va madaniy hayotida mislsiz o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu umumiy jarayondan musiqa madaniyati, teatr sohasi, jumladan, musiqali teatr san'ati ham mustasno emas, albatta. O'zbek musiqali teatrining

deyarli bir asr davomida erishgan yutuqlari, vaqt sinovidan o'tgan asl namunalariga bugungi kunda xalqimizning mushtarak ma'naviy merosi sifatida qadrlanayotganligi quvonarli holdir. Ana shu milliy qadriyatlarimizni hozirgi va bo'lg'usi avlod vakillariga yetkazish ustoz san'atkor va tajribali murabbiylarning muqaddas burchidir.

Maktablarda tashkil etiladigan havaskorlik drama to'garaklari ham ma'lum darajada shu maqsadga xizmat qilishga yo'naltiriladi. Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalar, tarixiy va ilmiy misollar drama to'garagi faoliyatini yo'lga qo'yishda asqatishi shubhasizdir.

6. XALQ CHOLG'U ASBOBLARI TO'GARAKLARI

O'zbek cholg'u asboblari turli-tumanligi bilan farqlanadi. Ular uch guruhga bo'linadi: torli, puflama va urma cholg'ular. Har bir guruh o'zining xillariga ega.

Eng katta guruh — bu torli guruhdir. U tirnama, urma va kamonli cholg'u asboblardan iborat. Torli tirnama cholg'ularga tanbur, doira, dutor, afg'on rubobi, qashqar rubobi kiradi.



1-rasm. Xalq cholg'u asboblarning torli guruhi:

1 — rubob prima; 2 — rubob sekunda; 3 — qashg'ar rubobi; 4 — afg'on rubobi; 5 — g'ijjak (kamolin cholg'u).

Tanbur, odatda, 3 ta sim tordan iborat bo'ladi. Tanbur turli xilda bo'lib, ba'zi simlarning juftlanishi bilan farqlanadi. Ko'rsatkich barmoqqa kiyiladigan sim — noxun yordamida tanburda kuy ijro etiladi. U noxsimon ko'rinishda bo'lib, yog'och kabi va uzun dastadan iborat.

Dutor torli tirnama qadimiy cholg'u, u to'rtta (ilgarilari uchta bo'lgan) sim tordan iborat bo'ladi. O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'iga kiyiladigan sim noxun bilan chalinadi. Umumiy uzunligi 1000—1300 mm. Notalar bas va skripka kalitlarida yoziladi.

Dutor chiroyli, nozik tovushga ega bo'lib, ipakdan qilingan ikki torni zarbli chertish usuli bilan ijro qilinadi. Ko'proq yakkanavoz tarzida ijro qilinadi.

Orkestrda dutorning alt, bas va kontrabas turlari qo'llaniladi.

Afg'on va qashqar ruboblari elektrli cholg'u asboblari. Ularning tuzilishi murakkabroq. Bu cholg'u asboblari malakali musiqachilar tomonidan yakka tartibda va ansambl jo'rligida chalinadi.

Do'mbira sekin va mayin tovush chiqarish xususiyatiga ega, u ikkita ko'k tomirdan iborat. Ijro etish usuli — zarbli usullardir.



2-rasm. 1 — torli; 2 — kamonli; 3 — urma; 4 — tirnama cholg'u asboblari.



3-rasm. Sato sozi.



4-rasm. 1, 2, 3 — torli tirnama cholg'ular; 4, 5 — urma, zarbli cholg'ular.



5-rasm. Kamoni cholg'u asboblari.

Urma-torli cholg'ularga chang taalluqli. Uning nota sirida yog'och bolg'achalar yordami bilan kuy ijro etiladi.

Torli kamoni asboblarning qobus, g'ijjak, satoni o'z ichiga oladi. Ular o'z tuzilishi, texnik imkoniyatlari va tembri bilan bir-biridan ajralib turadi. Keng tarqalgan cholg'u asbobi g'ijjakdir.

O'zbek xalq puflama cholg'u asboblarning katta guruhi — bu qamish, suyak va yog'ochdan yasalgan puflama cholg'ulardir. Yog'och puflama cholg'ularga nay va uning boshqa ko'rinishlari: sibiziq, qo'shnay, balaban, surnay kiradi. Bular orasida eng keng tarqalgan cholg'ular — surnay va nay.


Uzunligi 1–2 m bo'lgan mis-puflama cholg'u asbobi karnay o'zining keskin tovushi bilan hammaga ma'lum. U ansambllarda surnay va nog'ora jo'rligida qo'llaniladi hamda alohida shaklda tantanali sadolar va turli-tuman tovushlar yaratishda qo'llanadi.

Urma cholg'ular ichida eng keng qo'llaniladigan cholg'u doiradir. Doiraga hayvon terisi qoplangan va shu doiraga bir necha o'nlab halqalar taqilgan. Doira qo'l yordamida ijro etiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek xalqining barcha cholg'u asboblari Sharq xalq cholg'ulari bilan ko'p o'xshashlikka ega.



6-rasm. Qobus kontrabas.



7-rasm. Qonun sozi.



8-rasm. Bas dutori.



9-rasm. Musiqa to'garagi mashg'ulotlari o'tkaziladigan sinf ko'rinishi.

7. RAQS TO'GARAKLARI

Maktab ta'lim-tarbiyasi tarkibida raqs sabog'i deyarli yo'q darajadiligini nazarda tutsak, musiqa darslari mazmunida milliy raqs usullarini bolalarga yoshlikdan o'rgatish naqadar zarurligi ma'lum bo'ladi.

Shu bois musiqa o'qituvchisi milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilishi (ijro eta olishi) va darsda qo'llash usullarini puxta egallashi davr talabidir. Chapak va cholg'u asboblarida kuy chalish faoliyati ham raqs va musiqali harakatlar singari o'quvchilarning musiqa (o'quv qobiliyatlari) hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat boshlang'ich sinflarda milliy cholg'u asboblari bilan tanishish va ularning tovush tembrlarini anglab olish bilan uzviy bog'lanib amalga oshirilishi zarur. Bunda doirachalar, qayroq, qoshiq, kichik sopollar kabi urib chalinadigan cholg'u asboblaridan foydalanib, o'qituvchi ijrosi va magnitofon tasmasi orqali taraladigan kuylarga ritmik jo'r bo'lish malakalari rivojlantiriladi.

O'zbek xalq raqs elementlari

Kichkintoylarning aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishida musiqa bilan harakat katta ahamiyatga ega. Musiqa faoliyatining bu turi bolaning har tomonlama o'sishiga katta yordam beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy ritmik harakatlar bolalarga turli xarakterdagi musiqa ohangiga mos holda harakatlanishiga, kichik guruh, yakka

holda, juft-juft bo'lib, jamoa bilan hamohang harakat qilgan holda oddiy raqs elementlarini bajarishga o'rgatadi, mushaklarini mustahkamlaydi, nafas va qon aylanish a'zolari faoliyatini yaxshilaydi.

Raqsga tushish bolalarda nafislikni, go'zallikni, ifodali harakatlarni qaror toptirib, ijodiy qobiliyatini tarbiyalaydi.

Bolalarga o'zbek raqsalarini o'rgatishdan maqsad — milliy raqs harakatlari va ularning xarakteri bilan tanishtirish, harakatdagi quvnoqlik va jo'shqinlikning nafislik bilan uyg'unlashuvini bolalarga singdirishdan iborat.

Raqs elementlari bilan tanishtirish musiqa bilan bog'langan holda amalga oshirilishi kerak. Musiqa rahbari raqs elementi bilan bog'liq musiqa ohangini xirgoyi qilgan holda o'rgatadi. Faqat sanoq ostida o'rgatishga zinhor yo'l qo'yilmaydi. Notanish bo'lgan raqs elementini o'rgatish chog'ida musiqa rahbari bu elementni ifodali, yorqin ko'rsatib berishi kerak, toki musiqa va harakatdagi uyg'unlik bolalar ongiga yetib borsin. Harakatni to'g'ri ko'rsatib berish va tushuntirish bolalar diqqatini torta oladigan, raqs elementlari musiqa bilan bog'liq ekanligini anglab yeta oladigan darajada aniq, qisqa, ifodali bo'lishi darkor. Bolalarda o'zi o'rganayotgan raqs harakatini anglab, harakat aniqligi malakasini hosil qilgan holda harakatga taqlid qilish yoki obrazli taqqoslashlardan foydalanish tavsiya etiladi.

8. VOKAL VA FOLKLOR TO'GARAKLARI

Ochig'ini aytganda, O'zbekistonning barcha fuqarolari musiqa va xonandalik san'atidan boxabardir. Qo'shiq, musiqa insonni ezgulikka, kishilarga yaxshilik qilishga undashini, har bir qo'shiq, musiqa orqali insonda yashirilib yotgan qobiliyat va iqtidorlarni topish imkoniyati yuzaga kelishini yaxshi bilamiz. Xonandalik san'ati odamlardagi yaxshi sifatlarni kuchaytirishga yordam beradi. Eng muhimi, milliy madaniy merosni o'rganish va o'zlashtirish o'z diyorumiz bilan faxrlanish hissini uyg'otadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi, ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borish zarurati xususida to'xtalib, «Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak», deya ta'kidlagan edi.

Ana shu tizim pirovard natijada kishida faqat iste'molchilikdan iborat boqimandalik kayfiyatini bartaraf etadi. Ayni paytda, u kishilarda yaratish, iqtidorni namoyish etish kabi ijobiy ishlarni ham amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratadi. Shuning uchun ham san'at, qo'shiqchilikka qadimdan e'tibor bilan qaralgan. Bunga quyidagilar misol bo'la oladi.

Qadim-qadimdan qo'shiq inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Zero, qo'shiqsiz hayotni tasavvur etish mushkul. Donolar aytganidek: «Qo'shiqlar inson hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgudir».

Shu bois bo'lsa kerak, hazrat Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida «Ruh xush ovozdan oziqa, ko'ngil esa quvvat oladi», deb aytganlar.

Musiqaning sehri ohangda, ohangning sehri cholg'uda, cholg'uning mo'jizasi esa, albatta, ijrochidir. Bir cholg'uni ikki ijrochi o'zidek bir xil tarannum eta olmaydi. Zero, qo'shiq tarannumi

kishining qalbi bilan tutashadi, u o'z dardini ohanglarga ulashadi.

Musiqqa dunyosida inson ovozi eng mukammal cholg'u ekanligini hech kim inkor eta olmaydi. Ijrochining rang-barang harakati ovoz talqinida ifoda etilishi muqarrar holatdir. Qadim zamonlarda ovoz talqinidagi xonishlar turli yo'nalish hamda uslublar bilan boyib kelgan. Chunki bu jarayonda, ya'ni ovoz talqinida millat-elatlarni, sheva hamda yosh mezonlarini ham aniqlash qiyin emas. Aynan shu nuqtayi nazardan o'zbek qo'shiqchilik-xonandachilik san'ati qadimiy va qadrlidir.

O'zbek qo'shiqchilik san'ati juda qadimiy va serqirraligi bilan Sharq xalqlari madaniyati orasida alohida ajralib turadi. Kichik va oddiy ko'rinishlardan murakkab shakllargacha bo'lgan namunalar tobora takomillashib, rivojlanib, xalq orasida ommalasha borgan.

Shu o'rinda aytish mumkinki, Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining qadimiy qo'shiqchilik an'analari vaqt o'tishi bilan an'anaviy tarzda sayqallanib, takomillashib, bebaho merosimizga aylangan.

O'zbek qo'shiqchilik san'ati rivojida qadimgi davrlardan boshlab ona-Vatanimizda yashagan turli xalqlar, elat va urug'larning hissaları katta bo'lgan. Eramizdan avvalgi 3—2-ming yillarda Markaziy Osiyoda qo'shiqchilik ancha ravnaq topgan. O'tgan asr va keyingi davrlarda olib borilgan arxeologik ilmiy tadqiqot izlanishlarining natijalari shundan dalolat beradi. Islomgacha bo'lgan davr O'zbekiston madaniyati ijrochilik an'analari haqidagi ma'lumotlar devoriy tasvirlarda, qadimiy terrakota haykalchalarda va boshqa turli arxeologik manbalarda o'ziga xos aksini topib, bizga qadar yetib kelgan. Ammo shuni ham aytish kerakki, aynan islomgacha bo'lgan davr qazilma manbalarda va topilmalarda erkak xonanda va sozandalarning tasvirlari deyarli uchramaydi. Ayritom frizlarida tasvirlangan cholg'uchi ayol ko'rinishi ijrochilik va qo'shiqchilik an'alarining juda qadimiy tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Ma'lumki, zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» qadimiy ajdodlarimizning afsonalari, madhiyalari va qo'shiqlari maxsus ijrochilar tomonidan aytilganligi haqida ma'lumot beradi. Ularning kuylari qanday ohangda bo'lganligi noma'lum, ammo musiqiy cholg'u asboblarning ayrimlari bizgacha saqlangan. O'rta Osiyo musiqqa madaniyati tarixini o'rganishda Ayritom, Termiz, Xorazm kabi tarixiy maskanlarga uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalarning ahamiyati katta bo'ldi. Jumladan, G.A. Pugachenkova rahbarligidagi ekspeditsiya izlanishlari natijasida qadimiy «Xolchayon» saroy qurilmasidan cholg'uchi, hukmdorlar, malika, saroy xizmatchilari hamda ayol musiqachilarning



10-rasm. Qadimgi musiqachi ayollar tasviri.

qiyofa tasvirlari (10-rasm) topilganligi muhim ahamiyat kasb etdi.

O'tgan asrning 30-yillarida M. Masson rahbarligida amalga oshirilgan ekspeditsiya natijasida ayol ijrochilar guruhining tasviri topildi.

Unda ijrochilar ushlab turgan cholg'ulardan qadimiy ud, chiltor, urma cholg'ulardan tabla tasvirlangan.

Demak, aytish mumkinki, O'rta Osiyoning islomgacha bo'lgan davrdagi musiqqa madaniyatida aynan ijrochilik an'analari muhim ahamiyat kasb etgan.

Xonliklar davrida saroy musiqasi, ijrochilari xonanda va sozandalar katta hurmatga sazovor bo'lganlar. Ular maqom ijrochilik san'ati va qo'shiqchilik an'alarini rivojlantirib, o'z musiqiy bilimdonliklari bilan tarixga muhrlanganlar. Ularning san'atlari, asosan, aynan ustoz-shogird an'anasida namoyon bo'lgan.

Yana bir tarixiy ma'lumot:

Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Muhammad Xorazmshoh o'z davrida musiqqa va she'riyatni chuqur idrok etib, ardoqlaydigan inson bo'lgan, sozanda-yu qo'shiqchilarga saboq bergan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, muhim davlat ishlarini boshlashdan oldin, albatta, kuy chalar ekan. Bu unga katta ruhiy oziqa berar ekan. Manbalarda keltirilishicha, kunlarning birida Xivaga Buxorodan hurmatli mehmonlar tashrif buyurganlar. Xon tomonidan hurmat yuzasidan ular sharafiga katta bazm uyushtiriladi. Ajoyib bazm davomida xon sozanda-yu navozandalar ustidan tillalar sochadi. Ularga tashakkur bildirib, in'omlar beradi. Ko'plar qatori Bobojon balabanchiga ham iltifot ko'rsatiladi, biroq xon balabanchi ijrosida yuz bergan kichik bir xatoni inobatga olib qo'yadi.

Bazm yakunlangach, balabanchi xursand bo'lib uyiga qaytsa, xonning uch-to'rt navkari uning tomini buzayotgan ekan.

— Ey, nima qilyapsizlar? — deb soʻraydi balabanchi.

— Xonning buyrugʻini bajaryapmiz, — deb javob qaytaradilar navkarlar.

Vaziyatni anglagan balabanchi shoshilib, xon huzuriga qaytadi va vaziyatni unga aytib, sababini soʻrab, yalinadi.

Shunda xon:

— Siz bizning kuy jumlarimizni buzdingiz. Ularni buzishga nima haqingiz bor edi? — deydi.

Taqsim, ayb menda, bir qoshiq qonimdan keching. Ogʻzimda soʻlak toʻplanib qolib, avjdagi jumlaning oxirida toliqib ketdim. Bunday narsa boshqa takrorlanmaydi, — deb iltijo qila boshlaydi balabanchi.

— Mayli, boravering! Bizniki ham boshqa takrorlanmaydi, — deydi xon.

Balabanchi xomush uyga qaytib, ne koʻz bilan koʻrsinki, boyagi navkarlar tomni taʼmirlayotgan ekan. Xulosa qilib aytish mumkinki, qoʻshiqchilik, ijrochilik sanʼati tarixiy-madaniy voqelik, ijtimoiy hayodan xabarlovchi ohang va millatning yuksak madaniyatidan soʻzlovchi koʻzgu sifatida namoyon boʻlgan va juda qadrlangan. Bu kabi tarixiy rivoyatlarni koʻplab keltirish mumkin.

Dunyoda musiqa va xonandalik sanʼatiga qiziqmagan, oʻzi sevgan ashulasini xirgoyi qilmagan birorta ham odam topilmaydi. Uni oʻrganishga boʻlgan qiziqish esa mutaxassisda hamda tinglovchida yaxshilikka intilish, yaratish, oʻzlikni anglash, komillikka tomon yaqinlashish his-tuygʻularini uygʻotadi.

Oʻzbek musiqa merosi tarkibidagi qoʻshiq janri ning xususiyatiga biroz toʻxtalsak.

Merosimizdagi mavjud barcha janrlar oʻz davrida musiqashunos va musiqa bilimdonlari tomonidan ozmi-koʻpmi oʻrganilib, tadqiq etilgan. Ularni tadqiq etish darajasi turlicha boʻlib, ular orasida «qoʻshiq» janriga ham maʼlum taʼrif va tasnif berilgan.

Merosimizning koʻp qismini aynan qoʻshiq janri egallab, uni shakli, tuzilishi, ijro uslubi va ijro etilish sharoitiga binoan turli mezonlarga ajratish talab etiladi. Shu oʻrinda oʻzbek musiqa merosini toʻplash va uni tadqiq etish masalalari ahamiyatlidir.

Markaziy Osiyo xalqlari musiqa merosini toʻplash va yozib olish ishlari XX asrda muntazam va izchil amalga oshirib kelindi. Xususan, 1919-yili Turkiston Respublikasi Xalq Maorifi Komissiyasining Sanʼat boʻlimi huzurida Badiiy etnografiya komissiyasi tashkil etilgan. Komissiya aʼzolari Gʻulom Zafariy, Viktor Uspenskiy, N. Mironov, E. Meligaytislar oʻz oldilariga Oʻrta Osiyo xalqlari musiqa ijodini atroflicha oʻrganib, uni toʻplash, nashr etishni va boshqa ilmiy-ijodiy vazifalarni maqsad qilib qoʻydilar.

Oʻzbek anʼanaviy musiqa merosini toʻplash va notalashtirish jarayoni oʻtgan asrning 50-yillarida yangicha qarashda davom ettirilib, komissiya aʼzolari safi yosh mutaxassislar hisobiga kengaydi. Jumladan, Karima Alimbayeva «Shohsanam va Gʻarib» dostonining ayrim kuylarini notalashtirdi, Muzayana Alaviya, K. Abdullayevlar ekspeditsiyada faol qatnashib, Toshkent, Fargʻona, Xorazm viloyatlari xalq qoʻshiqlarini yozib olishga muvaffaq boʻldilar. Natijada «25 oʻzbek xalq qoʻshigʻi» toʻplami nashrga tayyorlandi.

Shu davrda tadqiqot institutining musiqa boʻlimi mudiri Fayzullo Karomatov rahbarligida Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro viloyatlari va Fargʻona vodiysi hududlariga ekspeditsiyalar uyushtirildi.

Akademik Yunus Rajabiy oʻzbek musiqa merosini asrab qolish va rivojlantirishga ulkan hissa qoʻshgan sanʼatkorlardan biridir. Musiqiy merosning barcha janrlariga mansub yozuv namunalari koʻp tomlik «Oʻzbek xalq muzikasi» (1955—1959)da nashr etilgan, ushbu toʻplamda bolalar qoʻshiqlari, xalq ayimlari, cholgʻu kuylari, yalla, lapar katta ashular, Toshkent-Fargʻona maqom yoʻllari, muhtasham «Shashmaqom» turkumi xalq musiqiy folklori hamda kasbiy qatlam namunalari oʻrin egallagan. Xorazm maqomlarining ham toʻliq turkum tarzida Matniyoz Yusupov (1925—1992) tomonidan yozib olinishi va 1958-yili «Oʻzbek xalq muzikasi» toʻplami tarzida chop etilishi eʼtiborga molikdir.

Bu borada samarali mehnat qilgan yana qator kompozitor, musiqashunoslarning nomlarini keltirish mumkin. Meros tarkibida 200 dan ortiq musiqa namunasi nashrdan chiqdi. U vaqtdagi ekspeditsiyalar natijasi maʼlum darajada bir-birini toʻldirgan boʻlsa, ayrimlari oʻzaro variantlariga egadir. Shu oʻrinda qoʻshiqlarni mazmun va mavzusiga koʻra quyidagi janr tasnifini koʻrsatish mumkin:

Lirik qoʻshiqlar.

Bolalar qoʻshiqlari.

Diniy qoʻshiqlar.

Marosim qoʻshiqlari.

Sevgi-muhabbat qoʻshiqlari.

Vatanni madh etuvchi qoʻshiqlar.

Vatanparvarlik qoʻshiqlari.

Ayollar qoʻshigʻi.

Bundan tashqari, bastakorlik ijodidagi qoʻshiqlarni ham aytib oʻtish mumkin.

Musiqashunoslarning mavjud barcha janrlarga bergan tasnifiy taʼrifining turlicha boʻlganligi sababli, ularni misol sifatida koʻrsatib oʻtamiz.

Xalq musiqa folklori har qanday xalq ijodi kabi mehnatkashlarning fikri, orzu-umidlari, turmush tarzi, axloqi, ijtimoiy va milliy ozodlik uchun kurashining ifodasi sifatida gavdalanadi. Xalq

musiqasining mavzu jihatidan keng qamrovliligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan oʻrniga muvofiq ular ikki guruhni tashkil etadi:

1. Maʼlum vaqt va maʼlum sharoitda ijro etiladigan qoʻshiq-ashulalar va kuylar. Bular oilaviy marosim qoʻshiqlari, mehnat qoʻshiqlari, ayollar davralari va boshqa turli marosimlarda ijro etiladigan kuylardir.

2. Istalgan vaqt va har qanday sharoitda, yaʼni hamma joyda ijro etiladigan qoʻshiq va cholgʻu kuylari. Ularga oʻzbek xalqining anʼanaviy musiqali folklori janrlari — terma (chublama), qoʻshiq (tor maʼnoda), lapar, yalla va ashula kabi janrlar kiradi.

Xalq ijodidagi barcha janrlar keng qamrovli va serqirraligi ularni tadqiq etish darajasi qanchalik keng boʻlmasin, baribir turli mulohazalarga muhtojdir. Mavjud janrlarning har biri oʻziga xos xarakterni belgilaydi.

Masalan, ijro etilishi maʼlum vaqt, sharoit bilan bogʻliq birinchi guruh ashula, qoʻshiq janrlarining mavzuyi oʻziga xos marosim yoki boshqa vaziyat bilan bogʻliq boʻlib, undan deyarli chetlashmasligi bilan ajralib turadi. Bosh mavzuda baʼzan uchraydigan chetlashishlar lirik oʻychanlik va umumlashtirilgan nasihatgoʻyliklar doirasida boʻladi. Misol sifatida kelin kuyov uyiga kuzatilayotgan paytda ijro etiladigan anʼanaviy «yor-yor»ni keltirish mumkin.

Hay - hay oʻ - lan jon oʻ - lan, kuy - dir - ma - gi - na,
 yor - yor yor - yor, kuy - dir - ma - gi - na, yor - yor.

Toʻy marosim qoʻshiqlarining mavzuyi kelinni maqtash, pand-nasihatlar, kelinning kuyov uyidagi odob qoidalari, sodir boʻlayotgan marosimning koʻtarinkiligi haqida obrazli poetik taqqoslashlar bilan chegaralanadi. Tahlil jarayonida shuni kuzatish mumkinki, bu qoʻshiqlar tor diapazon asosida, ikki qismli boʻlib, har biri sheʼriy misrani oʻziga qamrab olgan uchta tugallangan kuy tuzilmasidan tashkil topgan. Maʼlumki, «Yor-yor»larning yoʻnalishlarida oʻziga xos variantlar (Toshkent, Fargʻona, Andijon, Chimkent yor-yorlari va boshqalar) ham mavjuddir.

Marosim qoʻshiqlari oʻzining tuzilishi, tartibi, ohang xarakteri, emotsional taʼsirchanligi bilan farqlanadi. Shuni aytish kerakki, toʻy marosimi bilan bogʻliq qoʻshiqlardan farqli oʻlaroq marsiya, yigʻi-yoʻqlovlar uchun badiha tarzida rivojlangan va metroritmik erkinlik xarakterli boʻlgan janrlar ham uchraydi. Ular «Sadr», «Jaxrxonlik» deb ataluvchi marosim bilan bogʻliq. Odatda, marhumning jasadini olib chiqish oldidan ayollar tomonidan aytiladi.

Oʻzbek musiqa folklorida mehnat qoʻshiqlari ham alohida oʻrin egallaydi. Garchi ular mehnat jarayoni bilan xarakterlansa-da, lirik oʻychanlikning nasriy bayoni katta ahamiyat kasb etadi. Bunga «Mayda», «Yozi», «Yorgʻichoq», mollarni sogʻish paytida ijro etiladigan «Xoʻsh-xoʻsh», «Chiray-chiray» kabi qoʻshiqlar misol boʻla oladi.

Xalq ijodida termalar ham maʼlum darajada rechitativligi, tor diapazondaligi va ixchamligi bilan xarakterlanadi. Ularning matni turlicha mazmunda boʻlib, koʻpincha, barmoq vaznida yetti-sakkiz boʻgʻinli misralardan tashkil topadi. Baxshilar tomonidan ijro etiladigan rivojlangan shakldagi termalarda esa bundan ham koʻproq boʻgʻinlarni uchratish mumkin.

Mavzuyimizning diqqat markazida turgan «qoʻshiq» janrining boshqa ijrochilik janrlarga nisbatan umumiy tarzda ifodalanishiga qaramay, xalq musiqiy merosida janr sifatida «qoʻshiq» kichik diapazonli kuylardan tashkil topgan. Barmoq vaznidagi poetik matn toʻrtlikdan iborat bir bandni (yoki bir-ikki misrasini) qamrab oladi. Ayni paytda har bir sheʼriy misraga tugal melodik tuzilma moslashtirilgan boʻladi. Qoʻshiq keng tarqalgan janrlardan boʻlib, oʻz mazmunining xilma-xilligi, koʻp qirraliligi bilan oʻziga xoslikni belgilaydi.

Qoʻshiq kuylari uchun ritmik ravonlik va aniqlik xarakterlidir.

Qoʻshiqda har bir misradan soʻng naqarat soʻz va, shuningdek, har bir navbatdagi banddan (yoki uning yarmidan) keyin keladigan naqarotlarni ham juda koʻp uchratish mumkin. Qoʻshiq musiqali poetik asoslarining koʻpgina belgilari lapar uchun ham, garchi u naqarotsiz boʻlsa-da, xarakterlidir. Quyidagi misolga eʼtibor qiling:

So-ching-ni qa-ro dey-di-lar, do-no u-kam, yor - yor. Qo-ra soch u-kam

yor - yor. Ko'r-sat so-ching-ni bir ko'-ra-yin, jo-nim u-ka-me yor - yor yor - yor.

Lapar raqs bop kuyga ega bo'lib, ko'pincha, o'yin-raqs bilan ijro etiladi. Laparni, odatda, ikki qo'shiqchi o'yin-raqs bilan ijro etadi. Uning matnlari, asosan, ishqiy-lirik yoki didaktik, yumoristik, hazil she'rlardan tashkil topadi.

Bunga misol sifatida yigit va qiz o'rtasidagi dialogni keltirish mumkin. Dialog bir xil kuyning takrorlanishi tarzida ijro etiladi. Dialog matni turlicha kuyga asoslangan bo'lishi ham mumkin. Bunday hollarda matnning ikkinchi (javob) bandi qo'shiqning birinchi (va har bir keyingi) — savol bandidagi ohangni rivojlantiruvchi kuy tuzilmasiga mos keladi. Xorazmda raqs jo'rligida yakka ijrochi aytadigan

qo'shiqlar ham lapar deyiladi. Garchi mazmunan bir xil bo'lsa-da, kuyining raqs bopligi bilan qo'shiqdan farqlanadi.

Ayrim hududlarda esa «lapar» atamasi «o'lan» deb yuritiladigan dialog shaklidagi to'y marosim qo'shiqlariga nisbatan ham qo'llaniladi, bu aytishuv kelin hamda kuyov tomon vakillarining har bir guruhida alohida-alohida unison xor sifatida ijro etilishi yoki yakkaxonlar dialogi tusida bo'lishi mumkin.

Unison xor bilan ijro etish yallada ham alohida o'rin egallaydi. Odatda, yalla ham raqs jo'rligida ijro etiladi va ikki xil bo'ladi:

Ol-ma-cha a-no - ring-ga bal-li, do-na-yi xo-ling-ga bal-li. Bog' ay-la-nib shaf-to-li

yor qo'y-ni-da kaf-ta - ri. Ol-ma-cha a-no - ring-ga bal-li, do-na-yi xo-ling-ga bal-li.

Navbatdagi janr sifatida ashula imkoniyatlarini ko'rib chiqish mumkin.

Ashula o'z kuyining cho'ziq hamda rivojlanganligi, diapazonining kengligi, ritmi (usuli)ning sezilarli darajada sinkopaligi bilan xarakterlanadi. Ashula asosini nafaqat barmoq vazni, balki mumtoz she'riyatga xos aruz vaznidagi she'rlar ham tashkil etadi. Odatda, ashula kuyi she'riy matnni qamrab oladi. Falsafiy ma'nodagi fikrga ega bo'lgan, shuningdek, sog'inch, alam va hasratni ifodalovchi ishqiy lirik mazmun ko'proq ashula tematikasiga xosdir.

Rivojlangan ashula namunalarini esa og'zaki an'anadagi professional musiqa tarkibiga kiradi. Bunga ashula janrining yana bir boshqa turi — katta ashula yoki patnusaki ashulaga ham tegishlidir.

Katta ashula o'z kuyining deklamatsion xususiyatga egaligi, diapazonining kengligi (uch oktavaga yaqin), asosiy melodik tuzilmaning badiha tarzida (improvizatsiya) rivojlantirilishi hamda unda o'z ritmik o'lchovining muttasil bo'lmaganligi bilan xarakterlanadi.

Hayo, do'stlar, birodarlar, nigorim so'rgani keldim,

Hayo, do'stlar, birodarlar, nigorim so'rgani keldim-a,

Ulug' diyor ostoniga yuzimni surgani keldim.

O'zbek xalqining musiqa merosidagi mazkur janr, asosan, Farg'ona vodiysi uchun xos bo'lib, professional san'atkorlar — ikki yoki undan ortiq hamnafas ashulachi-hofizlar tomonidan doira yoki boshqa cholg'u asboblari jo'rligisiz, ma'lum an'anaviy tartibda ijro etiladi.

Ar - zim - ni ay - tay, bo - di sa - bo - ga - e
 biz - din sa - lom deng do - da ul be - va - fo - ga e
 Ko'z - la - ri cho'l - pon, zul - fi pa - ri - shon ne
 ko'z - la - rim cho'l - pon, zul - fi pa - ri - shon ne
 Rahm ay - la - may - san, do - da, man mub - ta - lo - ga e.

O'zbek qo'shiqchiligi janrlarining barchasi o'z xarakterli intonatsion-melodik tuzilmalari, lad-tonal hamda metroritmik asoslarini saqlab qolgan cholg'u variantlariga ham ega bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'rifi keltirilgan merosimizdagi mavjud janrlar qatori qo'shiq ham ma'lum darajada katta ko'lamni belgilabgina qolmay, uning asosiy bo'lagi milliy jihatlarimizni ifoda etadi. Xalq og'zaki ijodiyoti va musiqa san'atidagi janrlarni chuqur tahlil etish orqali ulardagi uzviy jihatlarni belgilash mumkin, ular umumiy yaxlit sintez janr tarkibida turkumli janrlar kabi talqin etishni talab etadi.

Xalq ijodi yo'lidagi qo'shiqlar o'z tuzilishiga ko'ra uncha murakkab bo'lmagan shaklga ega. Kuyining tuzilishiga ko'ra sodda, kichik diapazonli va erkin ijro uslubi bilan ijro etilishi tufayli har qanday sharoitda ham ularni o'zlashtirish va ijro etish qiyinchilik tug'dirmasdi.

Xalq ijodi yo'lidagi qo'shiqlarning yana bir xususiyati shundaki, ularning matni oddiy va esda qolarlidir. Qo'shiq — bu so'z va musiqa uyg'unligining eng sodda ko'rinishi va og'zaki tarzda an'analar orqali avloddan avlodga o'tib kelayotgan va hayotga singib borayotgan keng qamrovli janrlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Bu kabi tahliliy ta'rifni musiqa merosimizdagi mavjud yalla, lapar, terma kabi janrlarga nisbatan ham aytish mumkin.

Ammo ularning umumiy janr xususiyatlari ham alohida, ham o'xshash mezon va tamoyillar asosida belgilanadi.

Xalq ijodi bisotida shunday qo'shiqlar borki, ular jamoa tarzida aytilishiga ko'ra aynan laparning janrlilik mezonlari bilan uyg'unlikni ifodalaydi. Lapar janri ham shu qo'shiq kabi ijro uslubining yengilligi, shaklan soddaligi, aytishuvchanlik xususiyatiga ega ekanligi, raqs bilan bog'liq bo'lganligi, qo'shiq janri kabi oddiy kuy tuzilishi va yagona maqsad uchun xizmat qilishi bilan o'zaro bog'liqlikni belgilaydi. Merosimizdagi mavjud barcha janrlarning ta'rifiy tahlilida ushbu jihatlar muhim hisoblanadi. Bu kabi janrning o'ziga xos mezonlarini belgilovchi xususiyatlar har bir janr tarkibini tashkil etadi. Mavjud har bir janr ijrosi umumiy qo'shiq aytib o'ynash, raqs tushish kabi jihatlar bilan xarakterlanadi. Demak, ulardagi janrning o'ziga xos xususiyatidan ko'ra umumiy mutanosib o'xshash xususiyatlari muhimroqdir. Shu nuqtayi nazardan qo'shiq va ashula san'atining o'ziga xos tomonlari mavjud ekanligi ayon bo'ladi, ular aynan nazariy tomondan, shakl-shamoyili, kuy tuzilishiga binoan aniqlik kiritishni talab etadi.

Ma'lumki, ko'p ashulaning qo'shiq, qo'shiqning esa ashula kabi belgilanishiga guvoh bo'lamiz, vaholanki, ular orasidagi katta farq shundaki, ashula qo'shiqqa nisbatan birmuncha ham shaklan, ham

ijro uslubiga ko'ra murakkablikka ega (ayrim rivojlangan qo'shiqlar ham, yuqorida aytilganidek, murakkabliklarni ifodalab, professional ijroni talab etadi). Undagi kuy tuzilishi ijrochining ijro imkoniyatlari bilan belgilanib, diapazonining kengligi ijrochidan yetarli ijroviy malaka, qobiliyat, mahorat, bilimni talab etadi. Ashulaning rivojlangan kuy tuzilmasiga asoslanganligi, intonatsion murakkab harakatlar, diapazonining kengligi ijrochining ijrochilik darajasini belgilab beradi.

Bu jihatlar ashula va qo'shiqlarning janrlik xususiyatini chegaralab berishi qiyin. Ammo ularning xalq ijodidagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaviy mavzudagi qo'shiqlar

Qo'shiq ijrochilik san'atida turli mazmun va mavzudagi qo'shiqlar mavjud bo'lib, ularga inson kamolotining muhim omili sifatida qaraladi. Qo'shiqlar inson ruhiyatini tetiklashtirish, kayfiyatini ko'tarish, yuqorida ta'kidlanganidek, o'yin va raqs hamohangligida insonni ezgulikka yo'naltirish, umid bilan yashashga o'rgatish va, albatta, ma'naviy boyligini oshirishga xizmat qiladi. Zero, pand-nasihati, mehr-oqibat, vatanparvarlik va falsafiy mazmundagi qo'shiqlar ham merosimizning keng ko'lamini tashkil etadi. Ular tarbiyaviy ahamiyatga molik qo'shiqlar bo'lib, xalq yoki bastakorlik ijodiga mansubdir.

Qator bastakorlar mumtoz adabiyot namoyandalariining she'rlari asosida ko'plab ajoyib va betakror qo'shiqlar yaratganlarki, ularning ijodini doimo namuna sifatida keltirish mumkin.

Qo'shiqni tor ma'noda — xalq ijrochilik amaliyotidagi kichik hajmdagi, oddiy shakl va tuzilishga ega bo'lgan, ma'lum voqelikni ifodalovchi meros sifatida emas, balki keng ma'nodagi qo'shiqchilik an'alariga mansub musiqa namunalari tayanib baholash lozim. Ma'lumki, mustaqillikka erishilgandan so'ng bastakorlar ijodi serqirra ko'lamda boyidi. Bastakorlik ijodiyoti an'analari, qo'shiqchilik san'ati rivojida ham salmoqli o'zgarishlar yuz berdi. Hofizlik an'alariga bugungi kunda ma'naviyatimizning eng yuksak namunalari sifatida qaralib, ularning safi kengayishi milliy mumtoz musiqamizning har bir jabhasini belgilaydi. Bu an'ana imkon qadar radio, televideniye va matbuotlarda targ'ib etilishi, ko'rsatuvlar tashkil qilinishi millat ma'naviyatining o'sishiga xizmat qilib kelmoqda. Bunday musiqa san'ati targ'ibotchisi sifatida «Ohanrabo», «Tarannum», «Oltin meros», «Jonli ijro» kabi qator madaniy-ma'rifiy ko'rsatuvlarni aytib o'tish mumkin. Ularning efir orqali muntazam berib borilishi xalqimizning milliy merosga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, madaniy eh-

tiyolarini qondirishga xizmat qilmoqda. Xalqimiz va, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatining yuksalishi, boyishida bu kabi musiqiy ko'rsatuvlarning ahamiyati katta bo'lmoqda, ular xalqimizga birdek manzur bo'lmoqda. Vatanimizning turli chekka viloyatlarida ham bunday musiqiy ko'rsatuv va eshittirishlarga qiziqish bilan qaralmoqda, chunki ular jonli ijrodagi talqin hamda muhit bilan tanishish imkonini bermoqda. Shu bilan bir qatorda qobiliyatli yosh ijrochilar kashf etilib, qo'llab-quvvatlanib, iste'dodlari xalq orasida namoyish etilmoqda. San'atkor ahlining doimo el nazarida bo'lishida bu kabi jihatlar hamisha muhim bo'lgan. Bu jihatlar yoshlarning an'anaviy ijrochilikka bo'lgan qiziqishini yanada oshirmoqda. Bu sohadagi harakatlar, albatta, o'z samarasini, mevasini beribgina qolmay, millatimiz o'g'il-qizlarining ma'rifatga oshno bo'lishida, to'g'ri tarbiyalanishida bir vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Demak, aytish mumkinki, janrlar orasidagi mutanosib jihatlarning mavjudligi sababli ularning janrlilik ketma-ketligini uzil-kesil ajratib bo'lmaydi va o'ziga xos zanjir hosil bo'lishini ta'minlaydi. Har bir janrning o'z rivojlanish davri, shakllanish muhiti va ommaboplik xususiyatiga ega bo'lishida, ularning yagona tizim asosida mavjud bo'lishlarida «qo'shiq» janrining muhimligini ta'kidlash lozimdir.

Tayyorgarligi bo'lmagan yosh avlod uchun milliy musiqani hazm qilish, uni idrok etish ma'lum ma'noda murakkab jarayon. Bu fikr barcha yoshlarga tegishli, deb bo'lmaydi, chunki yildan yilga an'anaviy ijrochilik yo'nalishiga qiziqish yoshlar orasida o'sib borayotganini kuzatish mumkin. Shu o'rinda ularning ongiga milliy an'anaviy musiqiy ijrochilik merosining yangi sayqallangan ohanglar talqinida singdirilishi ham qaysidir ma'noda ma'qullanishi zarur va davr talabi deb belgilashni taqozo etadi.

Bugungi kun talabiga binoan rivojlanayotgan ommabop o'zbek estrada san'ati yo'nalishidagi qo'shiqlarning yaratilishida ham zamonaviy uslubda ijod etayotgan qator bastakor va shoirlarning hissasi katta. Ayniqsa, estrada va milliy ijrochilik an'analari bilan uyg'unlikda yaratilgan qo'shiqlarning ko'payishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kun ijrochilik amaliyotida bu kabi musiqiy namunalarni tasnifga ko'ra uch qatlamga ajratishni to'g'ri deb bilamiz.

1. Balogʻat yoshigacha boʻlgan tinglovchilarga moʻljallangan estrada qoʻshiqlari.

2. Oʻsmirlik yoshida boʻlgan tinglovchilar uchun yaratilgan estrada qoʻshiqlari.

3. Oʻrta yoshdagi tinglovchilar uchun moʻljallangan estrada qoʻshiqlari.

Oʻz oʻrnida musiqiy namunalarni turli mezonlar asosida yana qator tasnifiy koʻrinishlarga ajratish mumkin.

Keng maʼnodagi qoʻshiqchilik anʼanalaridagi boshqa yoʻnalishlar ham mavjudki, biz aynan misol sifatida estrada va oʻrta yosh tinglovchilari uchun moʻljallangan musiqa namunalari misol sifatida belgiladik. Zero, qoʻshiqchilik koʻlami serqirra, ular odob-axloq, pand-nasihat, mehr-oqibat, vatanparvarlik mavzusi va falsafiy mazmuni bilan faqat ezgulikka xizmat qiladi.

Shu oʻrinda taniqli xonanda Abdulxay Karimov tomonidan yaratilgan «Volidangni rozi qil» qoʻshigʻini koʻrib chiqaylik. Muallif yaratgan qator asarlar estrada janriga mansub. Shu bilan bir qatorda lirik yoʻnalishda ham uning oʻziga xos ijodkorligini koʻrish mumkin. U ritm erkinligi, xarakter jihatidan turlicha mazmundagi ijrolari bilan ajralib turadi.

Yuqorida tilga olingan qoʻshiqning kuyi tuzilish jihatidan bir oktava diapazonini qamrab (birinchi oktava Iya, ikkinchi oktava Iya oraligʻida), shakl jihatidan band naqarot tarkibini tashkil etadi. Oʻziga xos ijro murakkabligiga ega. Bastakor asarning mazmunidan kelib chiqib, uning taʼsirchanligini yanada kuchaytirishga xizmat qiluvchi ifodaviy vositalardan keng foydalangan. Sinkopaning aniq ifodasi mazkur kuyning tuzilish asosini tashkil etadi. Soʻzlardagi ifodaviylik aynan sinkopa uchun mos ravishda, boʻgʻinlarning aniqligini taʼminlagan. Musiqaning obraz — ifodaviylik xususiyatini, xarakterini belgilab beruvchi minor ladidan foydalanilganligi (si minor, h-moll) aytish mumkinki, ohang va soʻz uygʻunligi qoʻshiqning xalqchilligi va taʼsirchanligini yanada oshirgan. Qoʻshiqdagi tarbiyaviy nasihatlarni aynan ota-onaga nisbatan quyidagicha belgilash toʻgʻri boʻladi:

- ota-onaga doimo hurmatda boʻlish;
- hech qachon minnat qilmaslik;
- ularga gʻazab qilishdan tiyilish;
- ota-ona ruhsatisiz biror-bir nomaʼlum ishga qoʻl urmaslik;
- ularga quvonch keltirishga harakat qilish;
- ularga nisbatan xushmuomalali boʻlish;
- barcha yaxshilik, ezgulik amallarini ular hayotligida qilish;
- ular vafotidan soʻng haqlariga duoyi xayr qilish;
- qabrlarini muntazam ziyorat etish.

Bu kabi tarbiyaviy ahamiyatga molik misollarni koʻplab keltirish mumkin. Pand-nasihat bilan yoʻgʻirilgan qoʻshiq har bir inson qalbida aks sado topib,

uning maʼnaviy tarbiyasida muhim omillardan biri boʻlib xizmat qiladi.

Qoʻshiqlar qanday mavzuga oid boʻlmasin, barchasining zaminida faqat ezgulik, yaxshilik masalasi ilgari suriladi.

Mustaqillik davrida yaratilgan «Oʻzbekiston — Vatanim manim» mavzusidagi qoʻshiqlar orasida insoniyatni faqat komillikka yetaklovchi, yaxshi amallar qilishga undovchi, tarbiyaviy ahamiyati kuchli va shu bilan birga tarixiy voqelikdan soʻzlovchi asarlar koʻpaydi. «Oʻzbekiston», «Yoshlar madhiyasi», «Vatanni seving», «Ulugʻimsan, Vatanim» kabi asarlar allaqachon tinglovchilar qalbini zabt etib, yoshlardagi milliy gʻururni va vatanparvarlik tuygʻusini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Qoʻshiqchilik ijodiyotida bu kabi mazmunli, inson tarbiyasi uchun oʻta muhim boʻlgan, yaxshi amallarga yetaklovchi qoʻshiqlar yaratish barcha davrda ham birdek dolzarb vazifa hisoblanib kelgan.

Barcha sanʼatlar orasida oʻz taʼsir kuchi bilan inson ichki goʻzalligini, tafakkurini tarbiyalay oladigan janr faqat qoʻshiq hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda ham musiqa va sanʼat bilan shugʻullanish yoshlarning aqliy va madaniy rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bugun yurtimiz yoshlari qator xalqaro koʻrik-tanlovlarda sovrinli oʻrinlarni qoʻlga kiritib, oʻz isteʼdodlari bilan mamlakatimiz shuhratiga shuhrat qoʻshmoqdalar. Yosh musiqachilarimizning isteʼdodi barchani lol qoldirishi barobarida xalqimizning boy musiqiy madaniyatini namoyish qilmoqda.

Musiqa madaniyati darslaridagi vokal mashgʻulotlari oʻquvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashning eng faol shaklidir. Qoʻshiq kuylash oʻquvchilarning diqqat-eʼtiborini kuchaytiradi, xotirasi va nutqini rivojlantiradi, ovoz diapazonini kengaytiradi, musiqiy uquvni oʻstiradi, dunyoqarashi yildan yilga shakllanib boradi.

Vokal malakasini oshirish musiqa darsida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, musiqa madaniyati darslarida oʻquvchilarning diqqat-eʼtibori va faolligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi, oʻrgangan qoʻshiqlarini ijro etganda, zavqlanish hissi paydo boʻladi. Qoʻshiq kuylaganda ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va doʻstona jamoaga birlashadi.

Vokal malakasini oshirish yordamida oʻquvchilar qoʻshiq soʻzining maʼnosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asar mazmuni orqali hayotiy jarayonlarni mushohada qilish koʻnikmasini hosil qiladilar.

Yuqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal malakalarini shakllantirib borish va bunga qattiq rioya qilish shart. Chunki aynan vokal malakalarini shakllantirish bilangina yoqimli ohangdoshlikka, sof jarangdorlikka erishish mumkin. Ular

pat-la-ri sa - riq. Qa-rang ko'z-la-ri mi-so-li ta - riq

Har kun u - lar - ga
Yo' - qol-sa bi - ri

don-dun be-ra-man
to-pa-man shu on

mf

Har kun u - lar - ga
Yo' - qol-sa bi - ri

don-dun be-ra-man
to-pa-man shu on

Ba - ri but - mi deb ,
Jo' - ja as - rash-ning,

sa - nab ko' - ra - man
zav - qi bir ja - hon

A

Ba - ri but - mi deb sa - nab ko' - ra - man Hey
 Jo' - ja bo - qish - ning zav - qi bir ja - hon

ff

Jo' - ja jo' - ja

Jo' - ja - la - rim - ning pat - la - ri sa - riq qa - rang ko'z - la - ri

1. mi - so li ta - riq 2. mi - so - li ta - riq

Jo' - ja jo' - ja

Jo'-ja-la-rim-ning pat-la-ri sa-riq Qa-rang ko'z-la-ri

mi-so-li ta-riq Qa-rang ko'z-la-ri mi-so-li ta-riq Hey

rit. *A tempo* *ff*

Har kun ularga
 Don-dun beraman.
 Bari butmi deb,
 Sanab ko'raman.

Naqarot:

Jo'jalarimning
 Patlari sariq.
 Qarang, ko'zlari
 Misoli tariq.

Yo'qolsa biri,
 Topaman shu on.
 Jo'ja asrashning
 Zavqi bir jahon.


Naqarot:

Biz - istiqbol egasimiz

P.Mo'min she'ri


F.Alimov musiqasi

Allegretto




Duet: *mf* Xor:

Or-zu bo-g'in me-va - si - miz, me-va-si-




Duet: Xor: Duet:

miz. Hur ha-yot-ning jil-va - si - miz, jil-va-si - miz, biz is-tiq



Xor: *f*

bol e-ga - si - miz, qi-zu o'-g'il bo-la-lar - miz, sog'-lom, sof



dil bo - la - lar - miz, sog' lom, sof - dil

Qaytarish uchun | Tugallash uchun

bo - la - lar - miz bo - la - lar - miz.

Orzu bog'in mevasimiz,
 Hur hayotning jilvasimiz,
 Biz istiqbol egasimiz,
 Qiz-u o'g'il bolalarmiz,
 Sog'lom, sofdil bolalarmiz.

So'zlashamiz turli tilda,
 O'ylashamiz bitta dilda,
 Teng oila ona elda,
 Qiz-u o'g'il bolalarmiz,
 Sog'lom, sofdil bolalarmiz.

Biz o'rgansak ilm-u hunar,
 Izmimizga nur bo'ysunar,
 Qo'shiq aytsak olam kular,
 Qiz-u o'g'il bolalarmiz,
 Sog'lom, sofdil bolalarmiz.

DRAMA TO‘GARAKLARI

«YURTIM JAMOLI»

Ssenariy

O‘quvchi-yoshlarda ona Yurtimiz, uning shaharlariga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ularini tarkib toptirishda, undan faxrlanish va g‘ururlanish hissini tarbiyalashda respublikamiz shaharlariga bag‘ishlangan musiqiy tadbirlar muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Zero, ona diyorumizning har bir shahri o‘ziga xos qo‘shiqdir.

Ishtirokchilar: sayyoh, kechani olib boruvchi, hunarmandlar, o‘quvchilar, qo‘shiq ijrochilari va boshqalar.

Tayyorgarlik: qo‘shiqlarning nota yozuvlari, shaharlarning umumiy ko‘rinishi tasvirlangan suratlar, ishtirokchilar kiyimlari.

Tadbirning borishi: quvnoq qo‘shiq yangraydi va sahnaga sayyoh chiqib keladi.

Sayyoh: Salom, aziz do‘stlar! Salom, ey yaxshi insonlar! Men sayyohman. Sayohatim davomida juda ko‘p o‘lkalarda bo‘ldim. Ko‘plab shaharlarga bordim. Bilasizmi, nega sayohat qilaman? Men qo‘shiq yig‘aman. Safar xaltachamda turli millat va elatlarning qo‘shiqlari bor.

Mana, nihoyat O‘zbekiston degan yurtga yetib keldim. Bu o‘lka haqida sizlardan eshitmoqchiman, shaharlaringizni borib ko‘rmoqchiman.

Umid qilamanki, sizning yurtigingizdan ham ajoyib kuy va qo‘shiqlar olib ketaman.

Sahnaga qizaloq chiqib keladi.

Qizaloq: Salom sizga, ey jahongashta sayyoh, o‘lkamizga xush kelibsiz. Sizni mehmondo‘st diyorumizda ko‘rib turganimizdan juda xursandmiz, biz siz uchun eng avval yurtimizni madh etuvchi qo‘shiqni taqdim etamiz.

M. Otajonov musiqasi, Qambar Ota she‘riga yozilgan «O‘zbekiston — Onajon» qo‘shig‘i yangraydi (qo‘shiq notasi «O‘zbekiston — Vatanim manim» qo‘shiqlar to‘plamidan olinadi).

Sayyoh: Rahmat senga, ey qizaloq. Endi men yurtigingiz shaharlarini borib ko‘rmoqchiman. Shuning uchun yo‘limni davom ettiraman.

Sahnaga Buxoro arkinging umumiy ko‘rinishi tasvirlangan surat olib chiqiladi va sayyoh suratga tikilib turadi.

Shu vaqt bir guruh bolalar o‘tib ketadilar.

Sayyoh: Salom bolalar, to‘xtang, ayting-chi, men qaysi shaharga kelib qoldim?

Bolalar: Bu ko‘hna Buxoro shahri.

Sayyoh: Buxoro shahri tarixi haqida nimalar bilasiz?

Bolalar Buxoro haqida so‘zlab beradilar.

Buxoro — asrlar mobaynida Sharqning ma‘rifat va diniy markazi sifatida dunyoga mashhur bo‘lgan qadimiy shahardir. O‘tmishda savdo va madaniyat jihatidan u Turon — Turkistonning Balx, Hirot, Marv (Mari), Samarqand, Termiz, Nasaf (Qarshi), Choch — Shosh (Toshkent) va Xiva singari mashhur shaharlari orasida munosib o‘rin egallagan.

O‘rta asrlarda Buxoro Movarounnahrning yirik savdo, hunarmandchilik va ma‘muriy markazi bo‘lgan. O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarini Hindiston va Xitoy bilan bog‘lovchi qadimiy xalqaro savdo yo‘li aynan shu shahar orqali o‘tgan.

Buxoro asrlar davomida nafaqat fan, ma‘rifat, madaniyat va savdo munosabatlari rivojlangan shahar, balki Turkistonning yirik ma‘muriy markazi sifatida ham mashhur bo‘lib keldi.

Buxoro o‘zining ip-gazlama ishlab chiqarishi, zardo‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi, naqsh va miniaturalari bilan dunyoga mashhurdir.

Sayyoh: Rahmat sizlarga. Shahringiz haqida juda ko‘p narsalar bilar ekansiz. Men dunyo kezib, ko‘p yurtlar va shaharlarning kuy va qo‘shiqlarini to‘plab yuribman.

Shu payt bir qizcha o‘tib qoladi.

Sayyoh: Ey, dilbar qiz. Siz bilan tanishsam bo‘ladimi?

Zardo‘zchi qiz: Salom sizga, ey aziz mehmon. Men zardo‘zchi qizman. Qadimiy va azim Buxoro shahriga xush kelibsiz. Sizga o‘z shahrim haqida qo‘shiq kuylab beraman.

(Habibulla Rahimovning Safar Barnoyev she‘riga yozilgan «Buxoro» qo‘shig‘i ijro etiladi.)

Sayyoh bolalarga rahmat aytib, Xorazmga keladi. Uning qarshisidan yigit va qizlar chiqadilar.

Sahnaga Xivaning umumiy ko‘rinishi tasvirlangan surat olib chiqiladi.

Sayyoh: Salom sizga, aziz insonlar. Men dunyo bo‘ylab sayohat qilib, qo‘shiq va kuylar yig‘ib yuribman. Mening safar xaltamga qanday kuy, qo‘shiq taqdim eta olasizlar?

Yigit-qizlar juft-juft bo'lib Xorazm lazgisiga raqs tushadilar va Xorazm haqida gapirib beradilar.

Xorazm noyob madaniyat, nafis san'at, yuksak ma'rifat, dono falsafa, insonparvarlik, adabiyot va she'riyat maskani, dunyoviy ilm o'choqlaridan biridir (so'ngra M. Otajonov Zafariy she'riga bastalagan «Xiva haqida qo'shiq» ijro etiladi).

Sayyoh yana yo'lida davom etadi va Qarshi shahriga yetib keladi.

Sahnaga Qashqadaryoning umumiy ko'rinishi tasvirlangan surat chiqariladi.

Sayyoh: O, bu qanday go'zal shahar bo'ldi?

Qizlar: Bu gullar shahri Qarshi. Ona shahrimizda sizni xush ko'rdik, aziz mehmon.

Sayyoh: Ey, dilbar qizlar, meni qo'shiqlar orasiga elta olasizlarmi?

Qizlar M. Otajonovning N. Narzullayev she'riga yozilgan «Qashqadaryo» qo'shig'ini kuylashadi.

Sayyoh ularga rahmat aytib, yo'lida davom etadi. Hunarmand yigitlar oldidan chiqadi.

Sayyoh: Sizga ham salomlar bo'lsin, aziz yigitlar!

Yigitlar: Sizga ham salom, ey aziz mehmon. Ne maqsadlarda bizning Navoiy shahriga tashrif buyurdingiz?

Sahnaga Navoiy shahri tasvirlangan surat chiqariladi.

Sayyoh: Men turli-tuman kuy va qo'shiqlar to'playman. Shu sababli ko'p yurt kezdim. Sizning shahringizdan ham ajoyib kuy, qo'shiq olib ketmoqchiman. Menga yordam bera olasizlarmi?

Yigitlar: Qani yigitlar, boshladik.

M. Otajonovning N. Narzullayev she'riga yozilgan Navoiy haqidagi qo'shig'i ijro etiladi.

Sayyoh: Rahmat sizga o'z yurtining zabardast va mehnatkash, tanti va mard o'g'lonlari. Endi men boray, safarimni davom ettiray.

Yigitlar: Xayr, yo'lingiz bexatar bo'lsin.

Musiqa yangrab, sahnaga Toshkent shahrining umumiy ko'rinishi tasvirlangan surat chiqariladi. Sayyoh yo'lida davom etib, suv bo'yida qo'shiq aytayotgan qizlarni uchratadi. Ular Xurshida Hasanovanning Dilshod Rajabov she'riga yozilgan «O'zbekiston jannat» qo'shig'ini kuylaydilar.

Sayyoh: Juda ham ajoyib qo'shiq ekan.

Qizlar: Assalomu alaykum, aziz mehmon. Tinchlik va do'stlik shahri bo'lmish hamisha navqiron Toshkentimizga xush kelibsiz. Tashrifingiz boisi ne?

Sayyoh: Men jahon kezib, turli yurt va shaharlarga borib qo'shiq to'plab yuribman. Siz aytgan qo'shiq ham safar xaltachamdan joy oldi. O'z yurtigingizni juda ham sevar ekansiz.

Qizlar: Albatta, barchamiz ona Yurtimiz — O'zbekistonni judayam sevamiz.

Barcha ishtirokchilar sahnaga chiqib keladilar va G. Qo'chqorovanning D. A'zamova she'riga yozilgan «O'zbekimdan aylanay» qo'shig'ini kuylaydilar va barchaga egilib salom beradilar.

Kechani olib boruvchi: Shuning bilan bayramimiz yakunlandi. Yana uchrashguncha, xayr.

XALQ CHOLG'U ASBOBLARI TO'GARAKLARI

Lazgi

Allegro moderato

Habibulla Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan

The first system of musical notation consists of two staves. The upper staff is in treble clef and the lower staff is in bass clef. The time signature is 6/8. The piece begins with a forte (*f*) dynamic. The first measure features a chord with a sharp sign above it. The melody in the upper staff starts with a quarter note, followed by eighth notes. The bass line consists of chords. A dynamic change to mezzo-forte (*mf*) occurs in the second measure. The system concludes with a repeat sign.

The second system continues the piece. The upper staff features a melody of eighth notes. The lower staff provides harmonic support with chords. A forte (*f*) dynamic is indicated in the second measure. The system ends with a repeat sign.

The third system shows the continuation of the melody and bass line. A forte (*f*) dynamic is marked in the second measure. The system concludes with a repeat sign.

The fourth system is the final system on the page. It continues the melodic and harmonic development. The system concludes with a double bar line.

O'zbekiston

O'zbek xalq qo'shig'i

Habibulla Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan

Tempo di valse

The first system of musical notation for 'O'zbekiston' is in 3/4 time and B-flat major. It begins with a dynamic marking of *f* (forte). The right hand features a melody of eighth and quarter notes, while the left hand provides a steady accompaniment of chords. The system concludes with a repeat sign.

The second system continues the piece with a dynamic marking of *mf* (mezzo-forte). The melody in the right hand includes some sixteenth-note passages. The system ends with a repeat sign.

The third system features a dynamic marking of *f* (forte) at the beginning, which then changes to *p* (piano) for the latter part of the system. The right hand has some triplet-like figures. The system ends with a repeat sign.

The fourth system starts with a dynamic marking of *p* (piano). The right hand has a more active melody with some sixteenth-note runs. The system ends with a repeat sign.

The fifth system contains a first ending (marked '1.') and a second ending (marked '2.'). The first ending leads back to an earlier part of the piece, while the second ending concludes with a dynamic marking of *f* (forte). The system ends with a repeat sign.

Ufor

O'zbek xalq kuyi

Habibulla Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan

The first system of the score consists of two staves. The upper staff is in treble clef and the lower staff is in bass clef. The time signature is 6/8. The music begins with a mezzo-forte (*mf*) dynamic. The melody in the upper staff is composed of eighth and quarter notes, while the bass line features a steady eighth-note accompaniment. A repeat sign is present at the end of the first four measures.

The second system continues the piece. The upper staff has a melodic line with some rests, and the lower staff provides harmonic support with chords and eighth notes. A *Fine* marking is placed below the second staff at the end of the system.

The third system shows a more active bass line with eighth-note patterns. The upper staff continues with a melodic line. The overall texture is more rhythmic and driving.

The fourth system features a change in dynamics to forte (*f*). The upper staff is dominated by chords and block chords, while the lower staff continues with a rhythmic accompaniment. A repeat sign is used at the end of the system.

The fifth system maintains the forte (*f*) dynamic. The upper staff has a melodic line with some grace notes, and the lower staff has a rhythmic accompaniment. A repeat sign is at the end.

The sixth system concludes the piece. It features a melodic line in the upper staff and a harmonic accompaniment in the lower staff. The system ends with a double bar line and a fermata symbol.

Bahor valsi

Muhammadjon Mirzayev musiqasi

Moderato

The first system of the score consists of two staves. The upper staff is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a 3/4 time signature. It begins with a whole rest, followed by a half note G4, and then a series of eighth notes: A4, B4, C5, B4, A4. The lower staff is in bass clef with the same key signature and time signature. It starts with a half note G2, followed by a series of eighth notes: A2, B2, C3, B2, A2. A dynamic marking of *mf* is placed above the first measure of the upper staff. A repeat sign is present after the first four measures of each staff.

The second system continues the piece. The upper staff features a half note G4, followed by eighth notes A4, B4, C5, B4, A4. The lower staff continues with eighth notes G2, A2, B2, C3, B2, A2. A repeat sign is present after the first four measures of each staff.

The third system shows the upper staff with eighth notes G4, A4, B4, C5, B4, A4. The lower staff continues with eighth notes G2, A2, B2, C3, B2, A2. A dynamic marking of *f* is placed above the sixth measure of the upper staff. A repeat sign is present after the first four measures of each staff.

The fourth system continues with eighth notes in the upper staff and eighth notes in the lower staff. A repeat sign is present after the first four measures of each staff.

The fifth system continues with eighth notes in the upper staff and eighth notes in the lower staff. A dynamic marking of *f* is placed above the sixth measure of the upper staff. A repeat sign is present after the first four measures of each staff.

The sixth system continues with eighth notes in the upper staff and eighth notes in the lower staff. A dynamic marking of *dim.* is placed above the eighth measure of the upper staff. A repeat sign is present after the first four measures of each staff.

The first system of musical notation consists of two staves. The upper staff is in treble clef with a key signature of one sharp (F#). It begins with a melodic line of eighth notes: F#4, G4, A4, B4, C5, followed by a quarter rest. The lower staff is in bass clef and provides a harmonic accompaniment of chords: F#4-A4, G4-B4, and F#4-A4. A dynamic marking of *mf* (mezzo-forte) is placed above the second measure of the lower staff.

The second system of musical notation also consists of two staves. The upper staff continues the melodic line with a quarter rest, followed by a half note F#4, and then a half note G4. The lower staff continues the harmonic accompaniment with chords: F#4-A4, G4-B4, F#4-A4, and G4-B4. A dynamic marking of *p* (piano) is placed above the first measure of the upper staff. The system concludes with a double bar line.

RAQS TO'GARAKLARI O'ZBEK RAQSLARI

«O'g'il bolalar raqsi».

«Andijon polkasi», o'zbek xalq kuyi.

Dasturning mazmuni: O'zbek raqslariga xos harakatlarni ifodali ijro etishga o'rgatish. 8 yoki 10 nafar o'quvchi qatnashadi. Ular o'ng yon devor oldida, markaziy devorga qarab turishadi.

1—4-taktlarda, musiqa takrorlangan holda har taktda o'ng oyoqni to'pillatib, «Arqonni tort» harakati bilan markaziy devor oldida bir qator bo'lib, mehmonlarga qarab to'xtaydilar.

5—8-taktlarda, qo'llarini belda ushlagan holda, o'ng yonga egilib, yelka harakatini bajarishadi.

5—8-taktlardagi musiqaning takrorlanishiga mos holda chap yonga egilib, dastlabki harakatni takrorlaydilar. Oldindan 1—2-raqamli bolalarni belgilab olish lozim.

9—17-taktlarda, 1-raqamli bolalar bir tizzada o'tirib, yelka harakatini bajaradilar. Qo'llari belda, 2-raqamli bolalar 1-raqamli bolalarni «Xo'rozcha» harakati bilan har taktda o'ng oyoqni to'pillatib aylanib, o'z joylarida to'xtaydilar.

9—18-taktlardagi musiqaning takrorlanishiga xos ohangda, bolalar joylarini almashtirib, dastlabki harakatni takrorlashadi.

19—20-taktlarda, musiqa takrorlangan holda bolalar qator o'rtasidan teng bo'linib, ketma-ket bo'lib zalning o'rtasiga «Arqonni tort» harakati bilan kelib to'xtaydilar.

23—28-taktlarda, bir-birlariga qarab, gavdalari mehmonlarga qaratilgan holda egilib, yelka harakatini bajaradilar.

23—28-taktlardagi musiqa takrorlanganda bir-birlariga o'girilib, egilib, yelka harakatini bajaradilar.

29—32-taktdagi musiqa takrorlangan holda bolalar yon devorlarga orqa o'girib, qo'llari belda, o'ng oyoqni to'pillatib, orqaga yuradilar.

1—4-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, oldinda belgilangan yakka raqqosalar o'rtaga chiqib, «Arqonni tort» harakatini har taktda o'ng oyoqni to'pillatib bajaradilar.

5—8-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, yakka raqqosalar bir tizzaga o'tirib, «Arqonni tort» harakatini ko'krak oldida bajaradilar. Bir vaqtda, qatorlarda turgan bolalar ko'krak oldida chapak chalib, «ha» deb turadilar.

9—18-taktlarda, bolalar har taktda o'ng oyoqni to'pillatib, «Arqonni tort» harakati bilan markaziy devor oldiga, bir qatorga kelib to'xtaydilar.

9—18-taktlardagi musiqaning takrorlanishiga qarab bolalar bir vaqtda, ko'krak oldida chapak chalib, o'ng oyoqni to'pillatib, «To'pni yuqoriga ot» harakatini bajaradilar. Raqsning oxirida qo'llarini ko'krak ostiga qo'yib, ta'zim qiladilar.

Metodik ko'rsatmalar:

- raqsni qismlarga bo'lib o'rgatish lozim;
- «Arqonni tort» yelka harakatlarini ko'proq mashq qildirish kerak;
- yakka raqqosalar bilan alohida ishlash lozim.

«GULLAR BILAN RAQS»

«O'zbekiston», P. Rahimov musiqasi

Dasturning mazmuni: bolalarni musiqa xarakteriga mos harakatlarni ijro etishga o'rgatish. Qo'llarini yengil, mayin harakat qildirib, aniq va tartib bilan bajarishga erishish.

12 nafar qiz qatnashadi. Qizlar to'rttadan to'rt qator bo'lib, qo'llarida gullar bilan mehmonlarga qarab turadilar.

I QISM

1-taktda, tizzalarini ozgina bukib, qo'llari yuqorida, mayin harakat bilan o'ng yonga uzatadilar.

2-taktda, dastlabki harakatni chap yonga takrorlaydilar.

3—4-taktlarda, 1—2-taktlardagi harakat takrorlanadi.

5—8-taktlarda, tizzalarini ozgina bukib, har taktda «Qo'llarimiz chiroyli» harakatini ko'krak oldida bajaradilar. 1-qismdagi musiqaga mos ravishda 1—8-taktdagi harakatlar takrorlanadi.

II QISM

9—12-taktlarda, 2—3-qatordagi qizlar bir tizzada cho'kkalaydilar, 1-qatordagi qizlar 2-qatordagi qizlarning, 4-qatordagi qizlar 3-qatordagi qizlarning oldidan yengil yugurishib, aylanib, o'z joylariga kelib to'xtaydilar.

13-taktda, hamma qizlar turgan holatda tizzalarini bukib, bir deganda, o'ng qo'lni yuqoriga ko'tarib, chap qo'lni orqaga uzatadilar.

14-taktda, dastlabki harakat chap qo'lni yuqoriga ko'tarib takrorlanadi.

15—16-taktlarda 13—14-taktlardagi harakat takrorlanadi. 2-qismdagi musiqaning takrorlanishiga mos, 9—12-taktlarda 1—4-qatordagi qizlar bir tizzada cho'kkalaydilar.

2-qatordagi qizlar 1-qatordagi qizlarning oldidan yengil yugurib, aylanib, o'z joylariga kelib to'xtaydilar. 13—16-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

III QISM

17—24-taktlarda, birinchi qatordagi qizlar 4-qatordagi qizlarning ketidan, 3-qatordagi qizlar 2-qatordagi qizlarning ketidan yengil yugurib, ikkita

doira hosil qiladilar (tashqaridagi doira o'ngga qarab, ichkaridagi doira chapga qarab harakat qiladi).

III qismdagi musiqa takrorlanganda doiradagi qizlar doira yo'nalishini o'zgartirib harakat qiladilar.

IV QISM

25—26-taktlarda, doirani kichik qilib qo'llarini asta-sekin yuqoriga ko'tarib, yengil yuguradilar.

27—23-taktlarda, qo'llarini asta-sekin tushirib, joylariga qaytadilar (katta doira tuzib).

29—32-taktlarda, ikkinchi qismning 13—16-taktlaridagi harakatlar takrorlanadi.

12-qismdagi musiqaning takrorlanishiga mos ravishda 25—28-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

29—30-taktlarda, turgan joylarida qo'llarini ko'krak oldida tutib aylanadilar.

31—32-taktlarda, o'rtaga yengil yugurib to'planadilar. Ichki doiradagilar turgan holatda, tashqi doiradagilar bir tizzada o'tirgan holatda guldastani tasvirlab turadilar.

Metodik ko'rsatmalar:

— raqsni o'rganishdan avval katta va kichik doira tuzishni qaytarish lozim;

— oldindan boshqaruvchilarni tanlab olish kerak, so'ng qatorlardan ikkita doira tuzish o'rgatiladi.

«O'ZBEKCHA RAQS»

«Qari navo», o'zbek xalq kuyi.

Dasturning mazmuni: musiqa qismlari o'zgarishi bilan harakatlarni mustaqil bajarish malakasini

mustahkamlash. O'zbek xalq raqsiga xos harakatlarni ifodali ijro etishga o'rgatish.

6 nafar qiz qatnashadi. Qizlar markaziy devor oldida bir qator bo'lib mehmonlarga qarab turadilar.

I QISM

1—4-taktlarda, musiqa takrorlangan holda qadam almashish harakati bilan barmoqlarini bosh yuqorisida qirsillatib, qator bo'lib, o'ng va chap yonga qo'llarini uzatib, har taktda harakat qiladilar.

5—6-taktlarda, musiqa takrorlangan holda, turgan joylarida, 5-taktda «Gulni hidlab», 6-taktda «Ber» harakatini o'ng oyoqni to'pillatib bajaradilar.

7—8-taktlarda, 5—6-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

9—16-taktlarda, juft bo'lib, chap qo'llarini ushlab, o'ng qo'llari bilan «Qo'limiz chiroyli» harakatini o'ng oyoqni to'pillatib bajaradilar.

9—16-taktlarda, musiqaning takrorlanishiga xos ravishda qatorlar teng bo'linib, boshqaruvchilar o'ng va chap yon devorlar oldida, 1—4-taktlardagi harakatlarni takrorlangan holda qator turadilar.

17—20-taktlarda, musiqa takrorlangan holda boshlarining yuqorisida chapak chalib, bir-birlariga qarab, o'ng oyoqni to'pillatgancha uchrashib, mehmonlarga qarab, ikki qator — ketma-ket bo'lib to'xtaydilar.

II QISM

1—4-taktlarda, musiqa takrorlanib, o'ng qatordagi qizlar chap qo'li bilan, chap qatordagi qizlar o'ng qo'li bilan 1-taktdagi «Ko'zguga qara», 2-taktdagi «Ko'zguga qarama» harakatini o'ng oyoqni har taktda to'pillatib bajaradilar.

3—4-taktda, 1—4-taktdagi dastlabki harakatlar takrorlanadi.

5—8-taktlarda, 1-qismning 1—4-taktlaridagi harakatlar takrorlanadi. Boshqaruvchilar o'ng va chap yon devorlar bo'ylab markaziy devor oldida bir qator bo'lib turadilar.

9—16-taktlarda, musiqa takrorlangan holda 9-taktda «Yonimga kel», 16-taktda «Bormayman» harakatini har taktda o'ng oyoqni to'pillatib bajaradilar.

11—16-taktlarga, 9—10-taktlardagi harakatlarni takrorlaydilar.

9—16-taktlarda, musiqaning takrorlanishiga moslab bosh tepasida chapak chalib, har taktda o'ng oyoqni to'pillatib, turgan joylarida aylanadilar.

17—20-taktlarda, musiqa takrorlangan holda, 1-qismdagi harakatlar takrorlanib, raqqosalar mehmonlar qarshisida to'xtashadi. Raqs tugashi bilan o'ng qo'l ko'krakka qo'yilib salom beriladi.

Metodik ko'rsatmalar:

— raqsni o'rgatishdan avval bolalar bilan musiqa mashg'ulotlarida «Ko'zguga qara», «Ko'zguga qarama», «Gulni hidlab ber» harakatlarini mashq qildirish lozim;

— qadam almashish harakatini doirada mashq qildirish lozim;

— raqs bayram ertaliklarida ijro etiladi.

«Juftli raqs» (tayyorlov guruhi uchun).

«Chertmak», o'zbek xalq kuyi.

«SHO'X QIZLAR RAQSI»

«Yallama yorim», o'zbek xalq kuyi.

Dasturning mazmuni: bolalarda yengil hakkalab sakrash qobiliyatini mustahkamlash. Bolalarni musiqa xarakteriga va qismlariga qarab harakat qila olishga o'rgatish.

Dasturning mazmuni: musiqaning qismlariga qarab bolalarning mustaqil harakat qilish malakasini mustahkamlash.

Bolalar doirada juft bo'lib, qo'l ushlab turadilar. O'g'il bolalar chap tomonda, bo'sh qo'llari belda, qizlar o'ng tomonda, bo'sh qo'llari bilan ko'ylak etagini ushlagan holda turadilar. Musiqaning I qismida har taktda o'ng oyoqni to'pillatib, doira bo'ylab harakat qiladilar.

8-taktda, bir-birlariga o'girilib to'xtaydilar.

Musiqaning II qismida o'g'il bolalar ko'krak oldida chapak chalish bilan birga, o'ng oyoqni har taktda to'pillatadilar. O'g'il bolalar «To'pni yuqoriga ot» harakati bilan, qizlar har taktda o'ng oyoqni to'pillatib, «Maysani sila» harakatini bajaradilar. Musiqaning III qismiga o'g'il bolalar bir tizzasini bukib o'tirishadi, qo'llari belda, yelka harakatini bajaradilar. Qizlar bir vaqtda o'ng oyoqni to'pillatib, bosh yuqorisida chapak chalib, o'z juftlarini aylanadilar.

Musiqaning I qismidagi harakatlar takrorlanadi.

Musiqaning II qismidagi harakatlar takrorlanadi.

Musiqaning III qismida qizlar bir tizzalarini bukib, dutor chalish harakatini bajaradilar. O'g'il bolalar har taktda o'ng oyoqlarini to'pillatib, «Arqonni tort» harakati bilan o'z juftlarini aylanadilar.

Metodik ko'rsatmalar:

— raqsni o'rgatishdan avval bolalar bilan musiqa mashg'ulotida «Koptokni yuqoriga ot», «Maysani sila», «Arqonni tort» harakatlarini mashq qildirish lozim;

— raqs bayram ertaliklarida ijro etiladi.

I—II QISM

1—4-taktlarda, ko'ylak etagini ushlagan holda qizlar hakkalab, sakrab devor oldida, mehmonlarga qarab bir qator bo'lib to'xtaydilar.

5—8-taktlarda, qizlar oldinga ko'krak oldida chapak chalib, hakkalab kelib to'xtaydilar.

9—10-taktlarda, o'ng yonga, «Yonimga kel» harakatini har taktda o'ng oyoqni to'pillatib bajaradilar.

11—12-taktlarda, 9—10-taktlardagi harakat chap yonga takrorlanadi.

13-taktda, ko'krak oldida chapak chalib, o'ng oyoqni to'pillatadilar.

14-taktda, «Qo'llarimiz chiroyli» harakatini o'ng oyoqni to'pillatib bajaradilar.

15—16-taktlarda, sakrab, o'ng tovonni o'ng yonga qo'yib, dutor chalish harakatini bajaradilar.

17—18-taktlardagi harakatlar, chap tovonni qo'yib, chap yonga dutor chalish harakati bajariladi.

Musiqaning 15—18-taktlardagi takrorlanishida dastlabki 15—18-taktlardagi harakat takrorlanadi.

1—4-taktlarda, qizlar teng bo'linib, o'ng va chap yon devorlar oldida hakkalab, ikki qator bo'lib to'xtaydilar.

5—8-taktlarda, bir-birlariga qarab, ko'krak oldida chapak chalib, bir vaqtda hakkalab, yuzma-yuz to'xtaydilar.

9-taktda, qizlar bir-birlariga qarab, «Gulni hidla» harakatini o'ng oyoqni to'pillatib bajaradilar.

10-taktda, bir-birlaridan o'girilib, «Gulni ber» harakatini o'ng oyoqni to'pillatib bajaradilar.

11—14-taktlarda, avvaliga 9—10-taktlardagi harakat, so'ngra 15—18-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

III QISM

I qismdagi harakatlar takrorlanadi. Musiqaning tugallanishida qo'llarini yuqoriga ko'tarib, «Hey» deb raqsni tugatadilar.

Metodik ko'rsatmalar:

— musiqa mashg'ulotlarida raqs qismlarga bo'linib o'rgatiladi;

— qizlarga yelkama-yelka, juft holda «Gulni hidlab ber» harakatini mashq qildirish lozim;

— so'ng raqs o'rgatiladi.

«DOIRALAR BILAN RAQS»

«Ufor», o'zbek xalq kuyi

Dastur mazmuni: bolalarning quvnoq musiqa ohanglari ostida harakat qilish malakalarini mustahkamlash. Joyida turgan holda bir oyoqda hakkalab sakrashni o'rgatish.

Raqsdan 8 nafar qiz qatnashadi. Qizlar ketma-ket, o'ng yon devorlar oldida markaziy devorga qarab turishadi. Yuqorida o'ng qo'llari bilan doira, chap qo'llari bilan ko'ylaklari etagini ushlaydilar.

1—4-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, qizlar hakkalab sakrab, markaziy devor oldidan ikki qatorga bo'linib, yon devor bo'ylab harakat qiladilar. Yakka raqqosa o'rta yengil yugurib chiqib, to'xtaydi.

5—8-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, yakka raqqosa o'ng tovonini o'ng yonga qo'yadi va bir vaqtda doirani yuqorida shiqillatadi (5-taktda).

6-taktda, oyoqni juftlashtirib, doirani orqaga uzatib shiqillatadi. Bir vaqtda qatorlarda turgan qizlar ko'krak oldida doirani chalib, o'ng oyoqni har taktda to'pillatib uradilar.

7—8-taktlarda, 5—6-taktdagi harakat takrorlanadi. 7—8-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, qatorlarda turgan qizlar yakka raqqosa bajargan harakatlarni takrorlaydi. Yakka raqqosa esa qizlarga qarab ko'krak oldida o'ng oyoqni to'pillatib, doira chalib turadi.

17—18-taktlarda, musiqa takrorlangan holda, yakka raqqosa o'ng oyoqda hakkalab, doirani ko'krak oldida urib chaladi (17-taktda).

18-taktda, doirani orqaga uzatib, o'ng oyoqda hakkalab urib chaladi.

19—20-taktlarda, 17—18-taktlardagi dastlabki harakatlar takrorlanadi. Qatorlarda turgan qizlar bir vaqtda o'ng oyoqni to'pillatib, ko'krak oldida doirani urib, har taktda chaladilar.

21—24-taktlarda, qatorlarda turgan qizlar yakka raqqosa bajargan 17—20-taktlardagi harakatlarni takrorlaydilar. Yakka raqqosa bir vaqtda qizlarga qarab, o'ng oyoqni har taktda to'pillatib, ko'krak oldida doira chaladi.

25—26-taktlarda, yakka raqqosa qizlar bilan ko'krak oldida doirani chalib, hakkalab sakrab, markaziy devor oldida bir qator bo'lib mehmonlarga qarab to'xtaydilar. Musiqa tugallanishi bilan doirani yuqoriga ko'tarib, o'ng yonga o'ng oyoq tovonini qo'yib, chap qo'llari bilan ko'ylak etagini ushlagan holda doiraga qarab qoladilar.

Metodik ko'rsatmalar:

— raqsni o'rgatishdan oldin musiqa mashg'ulotlarida raqsni avval doirasiz, so'ng doira bilan o'rgatish lozim.

«CHITTI GUL» LAPARI

O'zbek xalq kuyi

Dastur mazmuni: bolalarni musiqaning xarakteri va qo'shiq so'zlariga qarab mustaqil harakat qilishga o'rgatish.

Bolalar doirada juft bo'lib, bir-birlariga o'girilib turadilar. O'g'il bolalar doira ichkarisida, qizlar tashqarisida.

Qo'shiqning kirish qismini tinglagach, 1-bandida, 1—4-taktlarda, I chorakda, ko'krak oldida chapak chaladilar. II chorakda, ko'krak oldida bir-birlarining kaftlariga uradilar.

Naqarot. 5-taktda oddiy qadam bilan joylarini almashtirib oladilar.

6-taktda, I chorakda ko'krak oldida chapak chalib, II chorakda ko'krak oldida bir-birlarining kaftlariga uradilar. Naqarotning takrorlanishida 5—6-taktlardagi dastlabki harakatlar takrorlanadi.

II bandida, bolalar qo'llarini beliga qo'ygan holda, har taktda o'ng va chap tomonga tizzalarini bukib, o'tirib-turish harakatini bajaradilar.

Naqarotdagi harakatlar takrorlanadi.

III bandida, 1—2-taktlarda qo'llari belda, oyoqlarini birin-ketin to'pillatadilar.

3—4-taktlarda, o'ng qo'llarini, kafti pastga qaratilgan holda, peshanalariga qo'yib, o'ngga qaraydilar. Naqarotdagi harakatlar takrorlanadi.

IV bandida, 1—2-taktlarda o'g'il bolalar qo'llarini, kaftlari yuqoriga qaratilgan holda, oldinga uzatadilar. 3—4-taktlarda qizlar qo'llarini o'g'il bolalarning qo'llari ustiga qo'yadilar.

Naqarotdagi harakatlar takrorlanadi.

V bandida, 1—4-taktlarda «Qo'llarimiz chiroyli» harakatini har taktda — o'ng oyoqni to'pillatib bajaradilar.

Naqarotdagi harakatlar takrorlanadi.

VI bandida, 1—4-taktlarning har taktida ko'krak oldida chapak chalib, o'ng oyoqni bir vaqtda to'pillatadilar.

Naqarotdagi harakatlar takrorlanadi.

Metodik ko'rsatmalar:

— qo'shiq harakatlari musiqa mashg'ulotida o'rgatiladi;

— bolalar qo'shiq so'zlarini yod olgandan so'ng harakatlarni o'rgatish lozim.

«PAXTAOY» RAQSI

Dastur mazmuni: bolalarni musiqa tinglab, harakatlarni ifodali ijro etishga, paxta novdalari bilan erkin harakat qilishga o'rgatish.

Raqsdan 6 nafar qiz qatnashadi. Qizlar uchtadan ikki qator bo'lib, ikki tizzada mehmonlarga qarab

o'tiradilar. Qo'llarida paxta novdasi, boshlarini oldinga egib, qo'llarini pastga qilib turadilar.

I—II QISM

1—2-taktlarda, qo'llarini asta-sekin yuqoriga ko'taradilar (paxta ochilishini tasvirlaydilar).

3-taktda, qo'llarini yuqoriga, o'ng tomonga nozik harakat bilan uzatadilar.

4-taktda, qo'llarini chap tomonga mayin uzatadilar.

5—7-taktlarda, har taktda «Qo'llarimiz chiroyli» harakatini bajaradilar.

8-taktda, boshlarini egib, qo'llarini pastga tushiradilar (paxta yopilishini tasvirlaydilar).

I qismdagi musiqaning takrorlanishiga, 1—8-taktlardagi harakatlarini o'rnida turgan holda takrorlaydilar.

9—12-taktlarda, qizlar doira tuzib, yengil yugurib, harakatni paxta novdalarini yuqoriga ko'targan holda bajaradilar.

13—15-taktlarda, har taktda «Qo'llarimiz chiroyli» harakati o'ng oyoqni to'pillatib bajariladi.

16-taktda, yengil yugurib, o'rtada kichik doira hosil qilinadi. Chap qo'llar birlashtirilib, o'ng qo'llar yonga uzatiladi.

II qismdagi musiqaning takrorlanishi, 9—10-taktlarda kichik doira bo'lib, birga yengil yugurishadi.

3—15-taktlarda, har taktda «Qo'llarimiz chiroyli» harakati o'ng oyoqni to'pillatib bajariladi.

16-taktda, kichik doira tuzib, ikki tizzada o'tirib, qo'llar yuqoriga ko'tariladi (ochilgan paxta tasvirlanadi).

Metodik ko'rsatmalar: paxta novdalari bilan erkin harakatlar bajarishni musiqa mashg'ulotida o'rgatib borish darkor;

— qo'llarni erkin, yelkani bo'sh tutishga e'tibor berish lozim;

— bolalarga katta va kichik doira tuzish mashqi raqsnı o'rgatishdan avval o'rgatiladi.

«TANOVAR»

O'zbek san'atining gulto'ji bo'lib qolgan «Tanovar» raqsi bevosita Mukarrama Turg'unboyeva nomi bilan bog'liq. «Tanovar» — mashhur raqqosa hayotining katta bir bo'lagi: ishq, sog'inch, umid, hijron — hamma-hammasi yo'g'rilib, evrilib, uyg'unlashib tanovar bo'lgan go'yo.

Bu raqsnı 1942-yili Mukarrama Turg'unboyeva baletmeyster Yevgeniy Nikolayevich Baranovskiy bilan birgalikda sahnalashtirgan.

Raqsnı mazmuni harakat, holatlar orqali ochib beriladi.

Shulardan biri ikki sevishgan — yigit bilan qiz ishq dardi, hijron azobi va sog'inch, intizorliklarini izhor qilish niyatida bog'da uchrashishga va'dalashadilar. Qizning harakatlaridan yigitni ham bog'da deb his qilasz.

Musiqqa o'lchovi: 4G'4. O'zbek xalq cholg'u ansambli jo'r bo'ladi.

LIBOSLAR

Raqqosaning boshida 70x70 kattaligida parang ro'mol; xohlagan rangda, qora va oqdan tashqari, durra qilib o'ralgan. Egnida oq krepdeshindan ko'krakburma, yoqali, yangi uzun ko'ylak, ustida beshbel qilib tikilgan, etagi kengroq, yangli, uzun

beqasam kamzul. Kamzulning oldi tugmasiz, uzun yangi uchidan ko'ylakning yangi biroz ko'rinib turadi. Atlas lozimga jiyak tutilgan. Oyog'ida o'rtacha poshnali tufli. Sochi mayda o'rilgan.

Taqinchoqlar: sirg'a, zebigardon, bilaguzuk va uzuk.

RAQS HARAKATLARI VA SHAKLLAR

Birinchi shakl

Musiqqa №1, 8-takt. Musiqqa №2, 6-takt.
Musiqqa chalinadi.

Raqqosa sahnaga chap tomondagi yonparda orqasidan chap yelkasi bilan chiqib, yon qadamlar bilan, chap yelka bilan tomoshabinga burilib, sahna markaziga yuradi. Yigitni qidirganday holatda.

1-chorakda: oyoq harakati: to'xtab-to'xtab yurish.

O'ng oyoqdan boshlab rasmiy qadam: bir vaqtda chap oyoq tovonni sal ko'tariladi. Tizza ham biroz egiladi.

2-chorakda raqqosa chap oyoq uchida ozgina oldinga jiladi.

3—4-chorakda: harakat chap oyoqdan takrorlanadi, bosh sal chapga buriladi. O'ng qo'l oltinchi holatda: kaft yuqoriga qaratilgan. Chap qo'l ro'molning chap uchini ushlagan.

Yana uch marta 9-takt harakati takrorlanadi.

Rasmiy ufori: 1-chorakda: o'ng oyoq bilan oldinga qadam bosiladi. So'ng chap oyoq tovonni ko'tarilib, uchi o'ng oyoqning yonrog'iga qo'yiladi. 2-chorakda: o'ng oyoq bilan yana oldinga kichik qadam qo'yiladi.

3—4-chorakda: shu harakatlar chap oyoqda takrorlanadi. Qo'l holati o'zgarmaydi.

Sahna o'rtasida. Bir joyda turish. 1-chorakda: o'ng oyoq tovonni sal ko'tariladi (4-holat); 2-chorakda: tinish; 3-chorakda: o'ng oyoq uchida orqaga sal bosiladi (6-holat); bir vaqtning o'zida raqqosa tomoshabinga qarab yuzlanadi; 4-chorakda tinish. Qo'llarning holati o'zgarmaydi.

Ikkinchi shakl

Musiqqa № 3, 6-takt.

Raqqosa sahnada gorizontall sakkiz raqami shaklida yuradi. Avval soat millari yo'nalishiga qarab kichik davra bilan yuradi. So'ng ikkinchi davrani soat millariga qarshi qilib ijro etadi. Oxirida tomoshabinga yuzlanib, to'xtaydi.

1-chorakda: oyoqlar oltinchi holatga o'tadi (o'ng oyoq uchida). Bir vaqtning o'zida qarsak, qo'llar oltinchi holatda). «Eh, yigit kelmabdi», deganday xo'rsinib, chuqur nafas olgan holatda yuriladi. Gavda va bosh biroz chap yonga egilganroq holatda.

2-chorakda: gavda muloyim o'ng yoni bilan mayingina o'ng tomonga sal egiladi. Chap qo'l yonga (birinchi holatga) ochiladi. O'ng qo'l kaftining tersi bilan tomoqning tagidan o'ng yuzga yaqin kelib, so'ng ikkinchi holatga ko'tariladi. (Qo'llar uchinchi holatga o'tadi.)

3—4-chorakda: soat millari yo'nalishiga qarab, kichik davra hosil qilib yuriladi. O'ng oyoqdan boshlab «rasmiy ufori» ijro etiladi.

Ikkita «rasmiy ufori» chap oyoqdan boshlab ijro etiladi. So'ng raqqosa tomoshabinga yuzlangan holda qoladi.

Soat millari yo'nalishiga qarshi yana kichik davra qilib yurish.

1—2-chorakda: chap oyoqdan boshlab «rasmiy ufori» ijro etiladi. Shu chorakda qo'llar beshinchi holatga — o'ng tomonga o'tadi. 3—4-chorakda chap qo'l oltinchi va birinchi holatlar orqali ikkinchi holatga ko'tariladi. O'ng qo'l birinchi holatda qoladi (qo'llar uchinchi holatda).

1—2-chorakda: chap oyoqda birinchi «rasmiy ufori» ijro etilib, tomoshabinga yuzlanib tugatiladi. 3—4-chorakda: oyoqlar ikkinchi holatga o'tadi. O'ng oyoq chap oyoqqa ko'ndalangroq bo'ladi. O'ng qo'l birinchi, ikkinchi holat orqali yuzidan pastga, kafti yerga qaragan, yettinchi holatga tushadi. Chap qo'l durraning uchini ushlaydi.

Oyoqlar uchinchi holatga o'tadi (chap oyoq uchi bilan qadam bosiladi). Raqqosa ro'molning uchi bilan

yuzining chap tomonini berkitadi. Gavda va bosh o'ng tomonga salgina egiladi. Yuz o'ngga, nigoh chapga qaragan, go'yo qiz yigitni ko'rib qolib, uyalib, yuzini to'sganday.

Uchinchi shakl

Musiqqa №4, 16-takt.

Diagonal bo'yicha pastki chap burchakka yurish, avval yurilgan tomonga, so'ng tomoshabinga yuzlangancha avanssena bo'ylab pastki o'ng burchaklarga yurish. Raqqosaning chap burchakka yurishi go'yo yigitga qarab ketgandek. 1-chorakda joyida turib, chap tomondan, ko'ndalang ravishda «uf tortib» qarsak uradi, kaftlar qapishgan. Gavda chap tomonga egilganroq holatda.

2-chorakda: o'ng qo'l kafti tersi bilan o'ng yuz tomonidan o'tib, bosh orqasiga qo'yiladi («xayol» harakati). Chap qo'l oltinchi yoki birinchi holatda bo'ladi.

3—4-chorakda: nuqtali yurish bilan burchakka ketiladi. O'ng oyoq uchi bilan oldinga o'rtacha qadam bosiladi. So'ng o'ng oyoq sal oldinga jiladi va to'liq bosiladi. Shu harakat chap oyoqdan takrorlanadi (qo'llar «xayol» harakatida).

Oyoq harakatlarining takrorlanishi.

1—2—3-chorakda: o'ng oyoqdan boshlab «rasmiiy ufori», oxirgi chorakda chap oyoq urg'u bilan o'ng oyoq yoniga to'liq qo'yiladi (rasmiiy holat). Shu vaqtning o'zida qo'llar ko'krak oldida, qo'llar chalmashgan, barmoqlar yonga qaragan. «Gulbargi» harakati. So'ng qo'llar birinchi holatda ochiladi. Oyoqlar rasmiiy holatda. 4-chorakda tinish.

1-chorakda: oyoqlar «qaychi» harakatini ijro etadi. O'ng oyoq to'voni yerdan sal ko'tarilib, o'ngga burilib, oyoq to'liq bosiladi. Bir vaqtning o'zida chap oyoq uchlari sal ko'tarilib, o'ngga burilib, to'liq bosiladi. Demak, oyoq uchlari bir-biriga yaqin keladi. «I»ga muvofiq o'ng oyoq to'voni sal ko'tarilib, o'ngga burilib, to'liq bosiladi. Chap oyoq to'voni yerdan sal ko'tarilib, o'ngga burilib, to'liq yerga tushadi. Demak, ikkala oyoq to'voni uchrashadi.

3 «i», 4 «i»dagi harakatlar chap tomonda takrorlanadi.

Chap qo'l rasmiiy holatga tushadi. Raqqosa o'ng qo'lini oltinchi holat orqali ko'ksiga olib boradi.

Raqqosa tabassum bilan egilib salom qiladi, salom chog'ida gavda tiklanib, qo'llar bir holatdan ikkinchi holatga ko'tarilib, kaftlar bir-biriga ro'para keladi.

Sahna oldidan tomoshabinga qarab o'ng tomonga yuriladi. Oyoq harakati: «yon yo'rg'a». O'ng oyoq oldinda, chap oyoq o'ng oyoqning orqasida. Tizza sal

Oyoq uchinchi holatdaligicha qoladi. Chap qo'l ro'mol uchini orqaga tashlaydi. Qo'llar ikki tomonga yoziladi.

bukilganroq, oyoq uchi bilan yuriladi (oltinchi holat). O'ng oyoq yerdan sal ko'tarilib, o'ngga kichik qadam bosiladi. O'ng tizza sal egiladi, oyoq rasmiiy holatga qaytadi. «I»da chap oyoq sal yerdan ko'tarilib, o'ng oyoq orqasiga bosadi. Ikki «i», uch «i», to'rt «i»da uch «yon yo'rg'a» harakati takrorlanadi. Bir «i»da qo'llar yelka kengligida ohistagina yonga ochiladi. Kaftlar yonga qaragan. Ikki «i»da kaftlar bir-biriga qaralilib, barmoq uchlari bir-biriga yaqinlashtiriladi, yonga ochiladi. Kaftlar yonga qaratilgan. Uch «i», to'rt «i»da harakatlar takrorlanadi.

9-taktdagi harakatlar yana takrorlanadi. Oxirida ijrochi o'ng burchakda qoladi.

Oyoqlar uchinchi holatda, qo'llar ikkinchi holatda qoladi. Mazkur harakatlar bilan qiz yigitga, «Na savdolar mening boshimga tushdi», degandek, dil hasratini bayon etadi.

1—2-chorakda: raqqosaning oyoqlari uchinchi holatda (o'ng oyoq uchida), chap qo'li birinchi holatda ochiladi. O'ng qo'li ko'ksiga ro'para, tirsagi bukilgan, kafti o'ziga qaratilgan (beshinchi holat).

3—4-chorakda: chappga buriladi. Gavda o'ng tomonga sal egiladi. Oyoqlar «rasmiiy ufori» harakati bilan o'ng tomonga chorak buriladi. O'ng qo'l birinchi holat orqali ikkinchi holatga ko'tariladi. Qo'llar o'zidan tashqariga bir aylanib, kafti yuqoriga qarab qoladi.

Chap qo'l birinchi holatda. So'ng qo'llar uchinchi holatga qaytadi.

Ushbu taktida qo'llar uchinchi holatda — o'ng tomonda, so'ngra o'ng oyoqda qadam bosilib, ikkita «rasmiiy ufori» harakati bajariladi.

Shundan so'ng qiz — raqqosa taktida chap burchakka qarab, yigit yo'qligini ko'rib, hayron bo'ladi va sekin tomoshabinga qarab (qo'llar oltinchi holatda), ularning orasidan yigitni qidirganday bo'ladi. Yigit o'ng burchakka o'tganligini ko'rib, qo'llar sal yonga ochilib, biroq to'xtab qoladi.

Oyoq oltinchi holatda, chap oyoq uchida qadam bosiladi. Kaftlar peshanada — o'ng bilak chap bilak ustiga qo'yiladi, gavda sal oldinga egiladi. Yigitni birdan ko'rib qolib, uyalib, kaftlari bilan yuzini berkitadi.

To'rtinchi shakl

Musiqqa №5, 12-takt.

Raqqosa orqasi bilan sahna o'rtasiga qiyalab keladi. Birinchidan uchinchi taktgacha oltita nuqtali yurishni ijro etadi. Har taktida ikkita harakat

bajariladi. O'ng oyoq uchida orqaga qadam bosib, raqsga tushadi. So'ngra chap oyoqda shu harakat takrorlanadi. Qo'llar birinchi taktida pastga, ko'krak ro'parasiga tushadi, kaftlar gavgaga qaratilgan.

Qo'llar oltinchi holatda muloyim cho'ziladi. Kaftlar yuqoriga qaratiladi, ustma-ust qo'yiladi. Yigitga yuragidagi bor dardlarini izhor qilayotgandek bo'ladi.

1—2-chorakda: chap oyoqda «rasmiy ufori» bajariladi. 3-chorakda: tinish. 4-chorakda: chap qo'l birinchi holatdagidek ochiladi. O'ng qo'l yuz osha birinchi va ikkinchi holat orqali ko'krakning chap tomoniga tushiriladi, kaft yuqoriga qaratilgan, barmoqlar erkin harakat qiladi (qo'llar beshinchi holatda, chap tomonda).

O'ng oyoqdan boshlab, ikkita «rasmiy ufori» bilan soat mili yo'nalishi bo'yicha kichik davra hosil qilib yurib, tomoshabinga qarab turiladi, shu taktida o'ng qo'l oltinchi, birinchi holat orqali ikkinchi holatga ko'tariladi (qo'llar uchinchi holatga o'tadi).

Sahna o'rtasida, joyida harakatlanish. Chap tizzada cho'kiladi. O'ng tizzaga chap bilak qo'yiladi. O'ng bilak yuzaro pastga tushirilib, chap bilak ustiga qo'yiladi. Barmoq uchlari yonga qaragan.

Harakatlar o'tirgan holda bajariladi. O'ng qo'l kafti birinchi holat orqali yuqoriga qaratilgan, zabt bilan ikkinchi holatga ko'tariladi va to'xtatmay pastga, o'ng

tizzaga tushiriladi, kaft pastga, barmoq uchlari chapga qaragan.

1-takt. Chap qo'l yettinchi takt harakatini takrorlaydi.

2-takt. 1—2-chorakda: o'ng qo'l yana yettinchi takti takrorlab, ikkinchi holatdan tushayotib, ko'zdan pastroqda to'xtaydi — kaft pastga, barmoqlari chapga qaragan holatda.

3—4-chorakda: tinish.

10-takt. 1—2—3-chorakda: bosh sal o'ngga, chapga, yana o'ngga buriladi. Yigitga «Siz bilmaysiz, hijron o'tida qanchalik o'rtanganlarimni...», deya-yotgandek bo'ladi.

4-chorakda: qo'llar oltinchi holatga keladi. O'ng qo'l kafti chap qo'ldasta terisiga qo'yiladi.

11-takt. 1—2-chorakda: qo'llar ko'krakka yaqinlashadi, 3—4-chorakda: yana oltinchi holatdagi singari cho'ziladi.

12-takt. 11-taktdagi qo'l harakatlarini davom ettirgan holda joyidan turadi. Oyoqlar ikkinchi holatni egallaydi. O'ng oyoq chap oyoqqa ko'ndalang holda turadi. Gavda va bosh birinchi holatda, tomoshabinga yuzlangan holda bo'ladi.

Beshinchi shakl

Musiqqa № 6, 8-takt.

1-takt. 1—2-chorakda: joyida ikki yonga ikkita tebranish, gavda va bosh oldin biroz chapga, so'ng biroz o'ngga egiladi, qo'llar yonga sal ochilgan. 3-chorakda: ikkinchi holatda ko'ndalang qarsak hamda chapga tebranish, 4-chorakda: tinish.

2-takt. Pastki chap burchakka diagonal ravishda o'ng oyoqdan boshlab, ikkita «rasmiy ufori» harakati bilan aylanib borish. Chap qo'l birinchi holatdagi kabi ochiladi. O'ng qo'l kafti tersi bilan, barmoqlar pastga qaragan holda, tomoq tagidan o'ng yuzini siypalab, ikkinchi holatga ko'tariladi. Gavda va bosh o'ng tomonga egilganroq bo'ladi. Oxirida qo'llar uchinchi holatga o'tadi.

3-takt. Diagonal bo'ylab yurish davom etadi. O'ng oyoqdan boshlab ikkita «rasmiy ufori», lekin aylanmasdan bajariladi. Qo'llar birinchi holatdagi singari ochilib, to'xtab qoladi.

1—2-chorakda: o'ng oyoq urg'u bilan rasmiy holatga qo'yiladi. Qo'llar «gulbargi» harakati orqali oltinchi holatda, birinchi holatdan balandroqqa keskin ko'tariladi. Kaftlar pastga qaragan.

Oltinchi shakl

Musiqqa №7, 16-takt.

1—2-chorakda: diagonal yo'nalishda o'ng tomonga yarim aylanib, sahna o'rtasiga ketadi. Oyoq harakati — «rasmiy ufori». O'ng qo'l

3-chorakda: oyoqlar rasmiy holatda, bosh sal o'ngga egilgan, yuz chaproqqa burilgan, o'ng qo'l bilan «uyalish» harakati bajariladi, chap qo'l birinchi holatda qoladi. 4-chorakda: tinish.

Oyoqlari bilan ikki yonga «qaychi» harakati ijro etiladi, qo'llar sal-sal ko'tarilib tushadi.

1—2-chorakda: oyoqlar uchinchi holatga o'tadi (chap oyoq uchida). Gavda og'irligi o'ng oyoqda, qo'llar ikkinchi holatga ko'tariladi. Gavda chap yelka bilan chap burchakka burilibroq qoladi. 3-chorakda: qo'llar yuzdan pastga tushib, ko'krak ro'parasida «qo'li band» harakatida bo'ladi. Chap qo'l o'ng tirsakning ichida, o'ng qo'l chap tirsakning ustida bo'ladi. 4-chorakda: tinish.

1—2-chorakda: oyoqlar uchinchi holatda, o'ng oyoq uchida, gavda og'irligi chap oyoqda, qo'llar oltinchi holatda. Chap qo'l o'ng qo'lga sirpangan, qarsak uradi. So'ng qo'llar uchinchi holatga ko'tariladi. O'ng qo'l yuqorida. Gavda chap yoni bilan chap burchakka egilganroq bo'ladi. 3—4-chorakda: tinish.

oltinchi holat orqali birinchi holatga ochiladi. 3-chorakda: oyoqlar uchinchi holatga o'tadi. Chap oyoq — uchida. Chap qo'l ikkinchi holat orqali bosh orqasiga o'tadi va kaft bosh orqasiga

qo'yiladi. O'ng yelka chap burchakka qaratilgan holda qoladi. 4-chorakda: o'ng bilak «chaqirish» holatini ijro etadi.

Aytilgan harakatlar chap oyoqda chapga yarim burilib ijro etiladi. Bu safar chap bilak bilan «chaqirish» harakati takrorlanadi.

Birinchi takt harakatlari takrorlanadi. Yorga: «Yuring, bog'ni sayr qilaylik», deb chaqirgan holatda bo'ladi.

4-takt. 1—2-chorakda: chap oyoqda chapga bir «rasmii ufori» bilan buriladi. Qo'llar birinchi holatga ochiladi. 3-chorakda tomoshabin tomonga o'ng yelka bilan qolib, o'ng bilak bilan «uyalish» harakati ila yuzini berkitadi. Chap qo'l birinchi holatda qoladi. Oyoqlar ikkinchi holatda, o'ng oyoq ko'ndalang.

5-takt. O'ng tomonga to'liq aylanish. Oyoq harakati: 4 ta «yarimqaychi» harakatini ijro etadi. 1-chorakda: o'ng oyoq uchi yerdan sal ko'tarilib, o'ngga ozroq siljib, to'liq yerga tushadi. «I»da o'ng oyoq tovoni, chap oyoq uchi bir vaqtning o'zida sal ko'tarilib, biroz o'ngga to'liq bosiladi. 2 «i», 3 «i», 4 «i» da 1 «i» harakatlari takrorlanadi. Qo'llar «uyalish» holatida.

6-takt. Joyida bir aylanib, tomoshabinga qarab to'xtaydi. 5 ta «yarimqaychi» harakatini ijro etadi. Qo'llar birinchi holatga ochiladi.

7-takt. 1—2-chorakda: o'ng oyoqda «rasmii ufori» bilan orqaga orqasi bilan ketadi. 3-chorakda: chap oyoq urg'u bilan rasmii holatda to'liq bosiladi. O'ng qo'l 7-holatga tushadi. 4-chorakda: tinish.

8-takt. 7-takt takrorlanadi. «Ufori» chap oyoqdan boshlanadi. Oxirida o'ngga chorak buriladi. Tomoshabinga chap yelka qaratilgan holatda qolinadi.

9—14-chorakda: ijrochi sahna oldi markaziga keladi. Oyoqlar 6-takt holatida, kaft orqada. Harakat nomi — «oqsatma».

1—2-chorakda: chap oyoq uchi bilan yerdan sal ko'tarilib, chap tomonga kichik urg'u bilan qadam bosadi. So'ng o'ng oyoq to'liq bosilganligicha siljib, chap oyoq oldiga keladi. Demak, yana oyoqlar oltinchi holatda bo'ladi. 3—4-chorakda harakatlar takrorlanadi, 6-taktida o'ng qo'l sekin-sekin yondan ko'tarilib, bosh ustiga tushadi. Kaft yuqoriga qaragan. Chap qo'l durraning chap burchagini ushlagan. Yuz tomoshabinga burilgan.

15-takt. Sahna oldiga yetib, tomoshabinga qarab buriladi.

Oyoqlar uchinchi holatda (chap uchida). 1, 2, 3-choraklarda: qo'llar to'rtinchi holatga, o'ng tomonga o'tadi. 4-chorak: tinish.

16-takt. 1—2—3-chorakda: chap qo'l yuz osha ikkinchi holatga ko'tariladi. So'ng «sildirma» harakati ijro etiladi. Gavdaning beldan yuqori qismi sal orqaga siljib, sekin rasmii holatga qaytadi. 4-chorakda ozgina tinish. Oyoqlar ikkinchi holatga o'tadi, chap oyoq ko'ndalang holatda. Qo'llar bosh ustida. Yelka yonga ochiladi. Kaftlar bir-biriga ro'para, barmoqlar qarsillatishga tayyorlangan. Gavda va bosh yonga, chaproqqa burilgan.

Yettinchi shakl

Musiqqa №8, 6-takt.

Joyida turib, chap tomonga to'liq bir marta aylangandan so'ng 4 marta «yarimqaychi» harakati ijro etiladi. Qo'llar birin-ketin barmoqlarni qarsillatadi. 2—3—4-taktlarda, birinchi takt harakatlari uch marta takrorlanadi, oxirida tomoshabinga qaragan holatda qolinadi. 1-chorakda: o'ng tomonga chorak burilib, chap oyoq bilan o'ngga qadam qo'yiladi. Orqada o'ng oyoq tovoni sal ko'tariladi. 2-chorakda: o'ng oyoq chap oyoq yoniga to'liq tushadi. 3-chorakda: chap oyoq yana oldinga qadam bosadi. 4-

chorakda: o'ng oyoq yana chap oyoq yoniga to'liq qadam bosadi. 1, 2-chorakda: bilaklar tashqari tarafga bir aylanib, raqqosa ko'ksiga ro'para tushadi. O'ng qo'l kafti chap bilak tersiga qo'yiladi. Barmoq uchlari yuqoriga qaragan. 3—4-chorakda: qo'llar tashqariga bir burilib, oldinga cho'ziladi, chap qo'l oldinga cho'zilgan.

Ushbu taktida oyoq harakatlari chapga yarim burilgan holda, o'ng oyoqdan boshlanadi. 5-taktning harakatlari chap oyoqda takrorlanadi. So'ng yana 6-holatga o'tiladi.

Sakkizinchi shakl

Musiqqa №9, 8-takt.

Raqqosa orqasi bilan yurib, sahna o'rtasiga keladi. 1—2-chorakda: oltinchi holatda sirpanma qarsak bilan, o'ng kaft chap kaftga ko'ndalang uriladi. So'ng qo'llar 3-holatga o'tadi. Chap qo'l yuz osha ikkinchi holatga, 2-taktidagi holatga ko'tariladi, o'ng qo'l yonga ochiladi. 3—4-chorakda: tinish.

1—2-chorakda: o'ng oyoq uchi bilan orqaga kichik qadam qo'yiladi, 2-chorakda chap oyoq to'liq

qo'yilib, sirpanib, o'ng oyoq yoniga boradi. Qo'llar uchinchi holatdaligicha qoladi.

3—4-chorakda: 1—2-chorakdagi harakatlar takrorlanadi. 3—4-taktlarda 2-takt harakatlari ikki marta takrorlanib, ikkinchi holatga qo'yiladi. O'ng oyoq ko'ndalang holatda. Chap tizza bukilganroq. Qo'llar beshinchi holatda chap tomonga o'tadi.

Harakatlar bir joyda bajariladi. Chap qo'l birinchi holatda qoladi. O'ng qo'l yuz osha yuqoriga

ko'tariladi. Barmoqlar qarsillatilib, oltinchi holatga tushadi. Bosh va gavda o'ng qo'lni kuzatadi. O'ng oyoq uchi har chorakka urg'u berib turadi.

1—2—3-chorakda: oyoqlar rasmiy holatda, birin-ketin sal yerdan ko'tarilib, urg'u bilan yana rasmiy holatga qo'yiladi (o'ng-chap, yana o'ng). Bir

vaqtning o'zida o'ng qo'l 1—2-holat orqali 7-holatga tushadi. Gavda sal o'ng, so'ng chapga burilibroq, keyin to'g'riga qarab qoladi. 4-chorakda: tinish.

7-takt harakatlari takrorlanadi. Bu safar chap qo'l 7-holatga tushadi. Oyoq urg'ulari chap oyoqdan boshlanadi.

To'qqizinchi shakl (Avji)

Musiqqa №10, 14-takt

Raqqosa sahna oldining o'rtasiga keladi.

1—2-chorakda: chaproqqa burilib, oltinchi holatda ko'ndalang qarsak urib turadi, gavda va bosh sal yonga, qo'l tomon egiladi. Kaftlar yopishgan. Xo'rsinib nafas olganday. Oyoqlar uchinchi holatda, o'ng oyoq uchida. Gavda sal u yon-bu yonga tebranadi. 3—4-chorakda: raqqosa o'ng oyoqdan bir «rasmiy ufori» harakatini bajarib, o'ngga buriladi. 2-takt, yana ikkita «rasmiy ufori» bilan sahna oldiga aylanib keladi va tomoshabinga qarab yuzlanadi. Shu taktlarda chap qo'l birinchiga ochiladi. O'ng qo'l kaftning tersi bilan.

1-takt. 10-taktning oyoq harakatlari takrorlanadi, bilaklar (kaftlar yuqoriga qaragan) oldinga cho'ziladi.

13-takt. O'ng oyoqda bir «rasmiy ufori», oxirida oyoqlar rasmiy holatda qoladi. Bilaklar tashqari tarafga bir aylanib, yuz osha ikkinchi holatga ko'tariladi. Barmoq uchlari bir-biriga yopishgan bo'ladi. Oxirida: tinish.

14-takt. Joyida. Oyoqlar rasmiy holatda, o'ng qo'l birinchi, oltinchi holatlar orqali belning oldini quchadi. Chap qo'l tersi bilan orqaga — belga qo'yiladi. Yuz tomoshabinga qaratilgan, bosh sal o'ngga egilgan. So'ng — tinish.

O'ninchi shakl

Musiqqa № 11, 16-takt.

Sahna oldi o'rtasida.

1-takt. Ikkita «rasmiy ufori», qo'llar chap tarafdan, birinchi holatga ochiladi. 1—2-chorakda: chap oyoqda bir «rasmiy ufori». Chap qo'l rasmiy holatda turadi.

2-takt. 3-chorakda: o'ng oyoq urg'u bilan chap oyoq yoniga qo'yiladi. O'ng qo'l keskin rasmiy holatga tushadi. Bosh o'ngroqqa buriladi. 4-chorakda: tinish. U yon-bu yonga jilish.

3-takt. Oyoqlar ikkita «qaychi» harakati bilan chappa jiladi.

Chap qo'l barmoqlari bilan biroz ichkariga bukilganicha yarim musht holatida, to'xtab-to'xtab, bosh balandligigacha ko'tariladi. So'ng birinchi holat orqali rasmiy holatga tushadi.

4-takt. Shu harakatlar o'ng qolda takrorlanadi. Oyoq harakatlari davom etadi.

5—6; 3—4-taktning oyoq harakatlari — «qaychi».

Qo'llar rasmiy holatdan ikkalasi bir vaqtda to'xtab-to'xtab, bosh balandligiga ko'tariladi.

Qo'llar yarim musht holida. So'ng raqqosa, «Eh, yigit, kuchli-qudratlisan, nega mendan xabar olmaysan?» degandek, xalqqa qarab qoladi.

7-takt. Sahna o'rtasiga keladi. O'ng oyoqdan boshlab ikkita «rasmiy ufori». O'ng oyoq ko'ndalang.

Qo'llar bir-biriga chalmashtirilgan. Birinchi holat orqali oltinchi holatda, o'ng qo'l kafti bilan chap qo'lining tersiga qo'yiladi. Barmoqlar yonga qaragan. Avvalo, o'ziga yaqinroq tortiladi, 3—4-chorakda: oltinchi holat balandligiga cho'ziladi.

Qo'llar yana o'ziga tortilib, so'ng yana oltinchi holatga cho'ziladi. «Hajringda yuragim yonganini bilsang edi» degan ma'noda.

1—2-chorakda: o'ng oyoqdan o'ng tomonga bir «rasmiy ufori» ijro etiladi. Qo'llar birinchi holatga ochiladi. 3-chorakda: chap oyoq oldinga, tovonidan boshlab kichik qadam bosadi. O'ng oyoq tovonini ko'tariladi. Chap qo'l bel oldiga keladi. Kafti pastga qaragan. Barmoq uchlari o'ng tomonga qaragan. Bir vaqtning o'zida o'ng qo'l bosh ustiga, kaft yuqoriga qaragan, 4-chorakda: chap oyoq urg'u bilan to'liq yerga qo'yiladi. Shu vaqtning o'zida o'ng oyoq uchi pastga qarab, tizza biroz egilib, sal yerdan ko'tariladi. O'ng kaft bosh orqasiga qo'yiladi. Chap qo'l belni quchadi.

Orqasi bilan o'ng oyoqdan boshlab ikkita «rasmiy ufori». Qo'llar birinchi holatga ochiladi. Ijrochi sahna o'rtasida qoladi.

9—10-taktlardagi harakatlarni takrorlaydi. Bu taktlarda harakatlar chap oyoqdan boshlanib, chap tomonga bajariladi. Qo'llarning joyi ham almashadi. Qo'llar birinchi holatda ochilgan.

Tizzalar sal egilib, yana rasmiy holatga qaytadi. O'ng qo'l belni quchadi, chap qo'l bosh orqasida bo'ladi.

13-takt harakatlari takrorlanadi. Oyoqlar ikkinchi holatda. Chap oyoq ko'ndalang. O'ng qo'l yettinchi holatda, ohista titraydi. Chap qo'l rasmiy holatda.

Oyoqlar rasmiy holatda. Ijrochi o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, salom (ta'zim) qiladi va hokazo.

VOKAL VA FOLKLOR TO'GARAKLARI

Vokal mashqlari

Hamma vaqtlarda vokal maktablari pedagogika amaliyotida turli mashqlardan zarur xonandalik ko'nikmalarini tarbiyalash, xonandalik mahorati elementlarini egallash uchun foydalanilgan.

Ovozni «boshqariladigan» qilish, uni «itoatkor asbobga» aylantirish uchun ovoz hosil qilish apparati barcha qismlari muvofiqligi ustida muntazam, mashaqqatli mehnat talab qilinadi. Bu ishni sodda musiqiy ifoda, murakkab bo'lmagan, o'quvchi e'tiborini tovush shakllanishining asosiy momentlariga qaratishga ko'maklashadigan parchalarda bajarish eng oson usuldir.

Vokal pedagogikasida mashqlarni saralash va to'g'ri qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mashq ma'lum yo'nalishga ega bo'lishi kerak. Ta'limning boshlang'ich bosqichida bunday mashqlar tor cheklangan vazifalarga ega bo'ladi, tovushni to'g'ri shakllantirish — bu vokal texnikasining turli ko'rinishlarini rivojlantirish, ya'ni ovozni to'g'ri qo'yish demakdir.

Yangi o'quvchilarni tanishtirayotgan har bir pedagog «qaysi mashqlardan boshlash kerak» degan savol ustida o'ylanadi. Hamma vaqt ham unga birdan javob berib bo'lmaydi. Ko'pincha, bu boshlovchi xonandaga qaysi mashqlarni qay ketma-ketlikda berish kerakligini belgilash uchun o'qituvchidan katta kuzatuvchanlik va vaqt talab etiladi.

O'quvchilarning ko'pchiligi uchun ohista bajariladigan mashqlardan boshlash qulay. Alohida hollarda ular mushak siqishi, tomoq bo'g'iqligi hissini keltirib chiqaradi. Birinchi holatda ohangning ohista, bosqichli harakatlari, ikkinchisida — tez, stakkatolangan harakatlar foydali bo'ladi. Bu davrda legato va ton legato kuylash usullarini qo'llash taklif etiladi.

Mashqlar ustidagi ilk ishlardanoq xonandalarda tovushni shakllantirish, kuylovchilik ko'nikmalarini egallash va fiksatsiyalashga ongli munosabatni tarbiyalash zarur. Nafaqat pedagog, balki o'quvchi ham u yoki bu mashq nima uchun berilgani, qo'yilgan vokal texnik maqsadga qay darajada yo'naltirilganligini yaxshi bilishi lozim. O'zlashtirilishi qiyin va diapazonni zo'raki kengaytirish jarang keskinligini keltirib chiqaradigan mashqlar mutlaqo foyda bermaydi, hatto tuzatib bo'lmas zarar yetkazishi mumkin. Har bir

o'quvchi ovoz tipidan qat'i nazar o'z ovoz apparati qurilishi xususiyatlariga ega. Shu sababli unga eng yaxshi natijalarga erishishda ko'maklashadigan mashqlarni tanlash lozim. Mashqlar ustida ishlash jarayonida ikki jihat muhim:

- 1) xirgoyi, ya'ni ovoz apparatini «qizdirish»;
- 2) ma'lum kuylovchilik usullarini o'zlashtirish.

Birinchi bosqich — xirgoyi. Mushaklar tizimini kuylashga tayyorlash, shu holatga keltirish uchun ba'zan ikki-uchta qulay mashq yetarli bo'ladi. Ikkinchi bosqich uzoqroq davom etadi, u tovush sifatini shakllantirish texnikasi, kuylovchilik, eshitish, musiqiy ko'nikmalar elementlarini rivojlantirish bilan bog'liq.

Xirgoyi chog'ida pedagog haddan ziyod qat'iyatli, jarang sifatiga talabchan bo'lmasligi kerak. Ovozning «qizishi» sari talaba oldiga ma'lum vazifalar qo'yiladi, ular o'ylangan va shu bosqichda erishish mumkin bo'lishi kerak.

Mashqlarning to'g'ri tanlanishi, maqsadning aniq-ravshan anglab yetilganligi xonanda ovozinin yaxshi rivojlanishiga ko'maklashadi. Ovoz apparati yaxlit bir butunlik sifatida ishlashini unutmashlik kerak, zero, har qanday mashq barcha vokal texnik va musiqiy-badiiy vazifalarning birday sifatli bajarilishini talab qiladi.

Har bir mashq intonatsion sof, tekis, xonandalik nafasida, erkin dumaloqlangan tovush bilan kuylanadi. Gavda qo'yilishi chiroyli, artistik tarzda bo'lishi lozim. Unlilar (aniq va bir tembrlik) va undoshlar (aniq, umumiy kuylovchilik ustanovkasini buzmay)ni to'g'ri talaffuz qilish ham qat'iy talab etiladi. Artikulatsiya, pastki jag' holati, yuz mimikasi, ko'zlar ifodasi tabiiy bo'lishi kerak.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mashqlarni ijro etish kuylashning barcha momentlariga e'tibor berishni talab qiladi, biroq barcha vazifalarni bir paytda bajarishga intilib, o'quvchi o'zini yo'qotib qo'yishi mumkin, shuning uchun uning e'tiborini, avvalo, asosiy vazifaga qaratish lozim.

Kuylovchilik ko'nikmalarini shakllantirishda ovozning eng yaxshi tembral xususiyatlari rivojlanishidan kelib chiqish kerak. Tovushni to'g'ri shakllantirish mezoni kuylashning «qulayligi», ovoz hosil qilish

apparati erkinligi hissi, tovushni «choʻzish» imkoni, jarangning butun diapazon boʻyicha bir tembrdaligi sanaladi. Bu koʻnikmalar dastlab ovoz markazida (oktava yo desima doirasida) ishlanadi, keyinroq diapazon asta-sekin kengaytiriladi, mos ravishda pedagogik talablar ham murakkablashadi, shundan soʻng xonanda mashqlarni fikrini jamlab, oʻz ovoz jarangiga diqqat bilan quloq solib, uning sifatini tahlil qilib, eng yaxshi tovushga hamroh hislarini eslab qolib kuylashi kerak.

Mashgʻulotlar boshidanoq oʻquvchilar bilan chiroyli ton va kuylovchi, jaranglaydigan unlini aniqlash zarur. Bu unlini kuylashda ijobiy natijaga erishilsa, mashqni boshqa unilarda takrorlash va bunda dastlabki xonandalik pozitsiyasini saqlashga intilish lozim.

Taʼkidlaymizki, mashqlar, odatda, «a» tovushida kuylanadi — u asosiy tovush sanaladi. Keyinroq barcha unilar jarangini ishlash kerak boʻladi.

Koʻplab xonandalar uchun diapazon markazidan «a» va «i» (ayniqsa, jarangsiz «a» boʻlsa)ni kuylashni boshlash juda qulay va foydali, biroq bu unilarni kuylashga haddan ziyod berilishi, ayni diapazonning yuqori qismida ovoznining tor, keskin jaranglashi, mushak siqilishiga (ayniqsa, ayol ovozida) olib kelishi mumkin.

Boshqa unliga oʻtish lablar, til artikulatsiyasini juda tez va kam sezilarli almashtirish bilan amalga oshiriladi. Esnashni sezish hissi boʻgʻizni mushak siqilishidan xalos etishga koʻmaklashadi. Tomoq erkin, siqilmagan boʻlishi kerak. Esnashni sezish usuliga kuylashdan oldin bir necha marta ogʻizni ochmay esnash (muloyim esnash) bilan oʻrganish mumkin: ogʻizda boʻsh joy — qattiq tanglay va til oʻrtasida boʻshliq sezgisi yuzaga keladi.

Kuylovchilik koʻnikmalarini ovoz markazida, na past va na baland tonlarsiz, erkin va qulay jaranglovchi tonlar doirasidan chiqmay oʻzlashtirish zarurligiga yana bir karra eʼtiborni qaratamiz. Bu davrda diapazonning chekka tovushlari, ayniqsa, registr tovushlari ustida ishlash ovozni buzadi, baqiroqlik, trimolatsiya, jarang kuchlanishiga olib keladi.

Barcha ovozlarga dastlab pasayib boruvchi ohang va mashqlarni oʻrta registr tovushlarida kuylash tavsiya qilinadi. Noqulaylik, ovoz apparati siqiligi sezilsa, tonalligini oʻzgartirish lozim, bu koʻngilsiz sezgilarni bartaraf etmasa, mashqni qulayrogʻiga almashtirish kerak.

Demak, nafaqat mashqlarni tanlash, balki ularning tonalligi oʻquvchilarning individual xususiyatlariga mos kelishi lozim. Baland ovozlarga uchun yozilgan mashqlar oʻrta va past ovozlarga tegishli tonallikka, odatda, tersiyaga past transpozitsiyalanadi.

Vokal mashqlari birinchi galda maʼlum texnik koʻnikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, biroq

kuylash musiqa boʻlgani sababli, har bir mashq nafaqat texnik jihatdan toʻgʻri, balki musiqa asari parchasidek boʻlishi kerak.

Vokalni oʻrganish jarayonida fortepiano joʻrligi muhim rol oʻynaydi, xususan, mashqlarning ifodali uygʻunligini taʼminlaydi, nafaqat musiqiy didni tarbiyalaydi, maʼlum maʼnoda tovush sifatiga taʼsir qiladi, uni yangi obertonlar bilan boyitadi va hatto ovoz jarangini faollashtiradi. Bundan kelib chiqib, qoʻllanmaga murakkab garmonizatsiyali mashqlar kiritildi.

Vokal partiyasini cholgʻu asbobida chalish kerakmi yoki garmonik qoʻllab-quvvatlash yetarli? Bu xususda fikrlar turlicha. Har bir pedagog har bir aniq vaziyatda metodik tartibdagi fikrlardan kelib chiqib, oʻzi toʻgʻri deb bilganidek yoʻl tutadi.

Tez va sekin templarni birlashtirish jarang tekisligiga erishishda koʻmaklashadi. Tez tempda ovoz goʻyo oʻz nuqsonlarini aniqlab ulguradi (koʻplab pedagoglar fikricha). Tez surʼatdagi mashqlar, ayniqsa, tovushni «silkitish», yaʼni uning haddan ziyod vibratsiyasi bilan kurashishida foydali. Bu oʻrinda mushak inersiyasi qonuni, «mushak xotirasi» qonuni ishga tushadi. Tez surʼatda kuylangan mashq silliqroq jaranglaydi, shu zahoti sekin takrorlanganda u tovush silliqligini saqlaydi.

Stakkato va legato kuylashni almashtirish juda foydali. Stakkato — tovush «yaqinligi», pozitsiyaga koʻproq aniq tushish hissini beradi. Bundan tashqari, stakkatoning turlari legato bilan birlashtirilgan tovush tayanchini sezishga koʻmaklashadi. Metodik tavsiyalarda «bosiq jarang» termini tez-tez uchraydi. U, avvalo, ovoz kuchining nafas olish holatini saqlagan qolda pasayishini anglatadi va tovushning aniq boshlanishi, past, tabiiy, kuchlanishsiz jarangini koʻzda tutadi, bunda ijrochi intonatsiya sofliqini yaxshiroq nazorat qila oladi, ovoznining tabiiy tembral xossalarini aniqlay oladi.

Xonandalik nafasi xususida ikki ogʻiz soʻz. Taʼkidlash joizki, unga haddan ziyod eʼtibor va baʼzida notoʻgʻri tasavvur xonandalarga oʻz ovozi, intonatsiyasi, jarang sifatini nazorat qilish, ijodiy momentlarga yetarli eʼtibor qaratishga imkon bermaydi. Shu sababli boshlovchi xonandaga eʼtiborini nafas jarayoniga ortiqcha jalb qilmaslikni tavsiya etgan boʻlardik, ayni paytda uni buzishga ham yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Masalan: yelkarni koʻtarish, qorinni chiqarish, nafas olishdagi ortiqcha harakatlar, ayniqsa, ortiqcha havo olish, shuningdek, «nafassiz» kuylash — nafas tayanchisiz kuylash.

Nafas olish normal kechsa, avval aytilganidek, kuylovchi asosiy eʼtiborini chiroyli, erkin jarangga qaratishi, bu doimo butun ovoz hosil qilish apparati toʻgʻri ishlashi bilan bogʻliqligini yodda tutishi lozim.

Xonandalik nafasiga oid amaliy maslahatlar quyidagicha: kuylashni boshlamay turib, o'quvchi gavdasi rostlangan, qorin tortilgan, ko'krak birmuncha ko'tarilgan, bel va yelkalar tekis bo'lishi kerak. Xonandaning umumiy kayfiyati butun organizmning to'liq mushak erkinligi holatida ijodiy faollik, ko'tarinki kayfiyatini ko'zda tutadi, go'yo kishi yoqimli g'ayratlangandek. Bunda xayolan aytilgan «Ax»da pastki qovurg'alar kengayadi, ularni fanatsiya oxirigacha tutib turish lozim.

Nafas olish yengil, shovqinsiz (burun va sal ochilgan og'iz orqali). Nafas soniyasining ulushida go'yo tutib qolinadi va shu «yashirin» nafasda kuylay boshlanadi. Nafasni juda tejab, nafas olish ustanovkasini saqlashga urinish kerak (xuddi havo olishda davom etayotgandek). Bu tovush tayanchini sezish imkonini beradi. Yanada chuqur nafas olish uchun o'quvchiga o'zi sevgan gul hidini sekin hidlashini tasavvur qilishni aytish lozim. Bu usul ko'plab taniqli pedagog vokalchilar amaliyotidan o'rin olgan. Xonandalik nafasini asta-sekin rivojlantirish va mustahkamlash kerak.

Yana bir muhim ko'nikma — tovushni atakalash xususida. Eng yaxshisi — yumshoq, lekin aniq ataka, ya'ni tovush siltashsiz va nafas olishsiz, ovoz paychalariga qat'iy zarbasiz tug'iladigan kuylashning boshlanishidir. Bu silliq ovoz hosil qiladi, tobora chiroyli ovoz tembrini ta'minlaydi, to'qimalarni toliqishdan saqlaydi.

To'g'ri, ayrim hollarda, masalan, ovoz paychalari bo'shang bo'lsa, qattiq, faol ataka qo'llaniladi. Ifodalilik vositasi sifatida va metodik maqsadlarda ba'zan nafas olib atakalashdan foydalaniladi. Jarang boshlanishi kabi uning oxiri ham e'tibor talab qiladi. Tajribasiz xonandalar nafasni taqsimlay olmagan uchun frazalar oxiri notinch, beqaror jaranglaydi, jarangni «olish» va to'xtatish aniqligi yo'q.

Vokal mashqlari xonandani badiiy asarni ijro etishga tayyorlaydi, ularda vokal mahorati elementlari ishlanadi. Shunday elementlardan biri ritmik uyushqoqlik. Ijroning aniq va bir maromdaligi, pauzalarga rioya etish ma'lum saboqni talab qiladi.

Ritmik aniqlikka qat'iylik bilan erishish lozim. Odatda, kuylash oldidan, mashq berilgan tempda va barcha uzoqliklarga qat'iy rioya qilib, modulatsion sekvensiya bo'g'inlari o'rtasida pauzalarni aniq tutib chalinadi. Ta'limning birinchi qadamlaridanoq ritm hissini rivojlantirish zarur ko'nikmalarni tarbiyalash tizimida juda muhim jihatdir.

Oldinda turgan vazifalarni o'zlashtirish uchun mashg'ulot boshlanishdagi kayfiyat, xonandaning kuylashga tayyorligi va ijodiy holatga kira olishi katta ahamiyat kasb etadi. Faol bo'lmagan, tonusi past o'quvchi yuqori natijaga erisha olmaydi.

Diqqatni jamlash, pedagog ko'rsatmalarini fiksatsiyalash, ijodiy ko'tarinkilik birinchi galda o'quvchining o'ziga bog'liq, bunda uning qobiliyati, professional sifatlari namoyon bo'ladi. Zarur psixologik sozlanishda pedagogning rolini kamsitib bo'lmaydi. Uning zarur ijodiy muloqot o'rnata olish qobiliyati, emotsional qunti ko'p holda o'quvchi kayfiyatini belgilab beradi.

Endi tovushlarning ba'zi turlari haqida qisqacha to'xtalamiz.

Ochiq tovush.

Ochiq tovush «oq rang»ga ega, keskin va silliq jaranglaydi, pozitsiyasi past, diapazonda cheklangan va bir xil jaranglaydi. Ochiq tovush bilan kuylanganda, asosan, ko'krak rezonatori ishlatiladi.

Yopiq tovush.

Yopiq tovush «qora rang»ga ega, yumshoq, dumaloq jaranglaydi, bosh va ko'krak rezonatorlari ishlaydi. Pozitsiyasi yuqori, tovushi nozik, parvozli, sur'ati chiroyli.

Kantilena.

Kantilena — kuylash asosini tashkil etuvchi, uzluksiz qo'yiladigan tovush. U har bir keyingi tovush oldingisining davomi sifatida, undan go'yo «quyilganday» hosil bo'ladi, kuylashning bu uslubi bog'lanishli yoki legato kuylash deyiladi.

Vibrato.

Vibrato — ma'lum tonning balandligi, kuchi va tembrning davriy o'zgarishi.

Og'izni yopib kuylash.

Og'izni yopib kuylash birlashgan lablar birmuncha tushirilgan, pastki jag' yordamida kichik esnash tuyg'usi bilan amalga oshiriladi. U bosh jarangga sozlaydi, biroq to'g'ri rezonator hislari yuzaga kelgandagina, aniqrog'i, xonanda burun to'qimalari vibratsiyasini yaxshi sezgandagina yordam beradi. Yopiq og'iz bilan kuylashni xirgoyi boshlanishida qo'llash tavsiya qilinadi.

Jo'rsiz kuylash.

Cholg'u asbobi jo'rligisiz kuylash — kuylashga o'rganishdagi muhim, maxsus ko'nikmalardan biri. Eshitish kuylashda hal qiluvchi omil sanaladi.

Jo'rsiz kuylash ichki eshitishni rivojlantirishda muhim va zarur omildir, zero, kuylovchi e'tibori musiqa rezonatori va shu kabi sezgichlarda jamlangan.

Mustaqillik va o'z-o'zini nazorat boshqalarning yordamida qayta yaratilgan tovushni baholash kuchayishiga imkon beradi.

Amaliyot ko'rsatadiki, jo'rsiz kuylashda ovoznining tabiiy tembri yaxshiroq namoyon bo'ladi, u yanada tekis jaranglaydi. Jo'rsiz kuylaganda ovozda qo'shimcha tovush kamayadi.

Jo'rsiz kuylashga o'rgatish intonatsiyalash qonuniyatlarini ongli qo'llash, berilgan tonallikda

qolishi, barqaror ko'nikmalarni egallashga asoslanishi lozim. Bu tovushni farsirovkalashdan qutulishga ko'maklashadi.

Akapella kuylash ko'nikmalarini shakllantirayotib, ta'limning boshlang'ich bosqichida ovoz apparati ishi uchun qulay sharoit yaratish uchun soddaroq, metrotipik rasmlı, diapazoni cheklangan (oktavadan emas), testuralı asarlar tanlash lozim, u kuylovchi ovoz jarangi primar zonasiga yaqin bo'lsin.

Tovushning kerakli balandligini izlash, jarang nyuanslari, to'g'ri intonatsiya, uning saqlanishi (qo'shiq kuylashni barqaror qayta yaratish) emosional kayfiyat, ijroning faollik darajasi (tonus)ga bog'liq.

Yaxshi o'zlashtirilgan, to'laqonli, ifodali vokal jarang va barqaror intonatsiya jo'rsiz murakkab bo'lmagan, ovozni yetarlicha egallashni talab qilmaydigan (testura, ohang harakati, tovush dinamikasi, ma'no va badiiy-musiqiy vazifalariga ko'ra) materialni kuylaganda intonatsion vazifalarni bajarish imkonini beradi.

Yuqori pozitsiya.

Tovushning baland pozitsiyasi. Aynan «boshni» sezish kuylashga yuqori pozitsiya baxsh etadi. Italiyalik ustalar «ovoz jarangini boshga ko'chira oladiganlar haqiqatan yaxshi kuylaydi», deydilar.

Yuqori pozitsiyani ishlashdagi asosiy vazifa — ovozning butun diapazonida bosh rezonatorlari harakatini saqlash ekanini yodda tutish lozim. Bunga ovoz apparatida ma'lum texnik sharoitlarni yaratish ko'maklashadi. Ular quyidagilardir:

1. Chuqur elastik nafas olish.

2. Yetarlicha ochiq bo'g'iz, talaffuz erkinligi va to'siqlar havo-tovush oqimini ta'minlaydi, bunga tanglay pardasini ko'tarish va pastki jag'ni erkin tutish hisobiga erishiladi.

3. Yopiq va butun diapazonda dumaloq tovush hosil qilish.

4. Tovushni yumshoq atakalash.

5. Undosh va unlilarni yopiq shakllantirish.

6. Xonandaning umumiy tonusi.

TO'GARAK RAHBARLARIGA DAVRA SUHBATLARI UCHUN QO'SHIMCHA MATERIALLAR

An'ana, odat, marosim va bayram tushunchalari

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an'ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o'rin tutadi. Ular kishilar turmush tarzida o'ziga xos sifatda namoyon bo'ladi.

«An'ana», «odat», «marosim» bevosita «bayram» tushunchasi bilan bog'liq.

An'ana — tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avlodlar avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida, kishilar ongiga singgan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi.

O'tkazgan tadqiqotimiz natijasida «xalq an'analari» tushunchasining ijtimoiy-ma'naviy mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: xalq an'analari — uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati asosida, atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog'liq holda avlodlar avlodga o'tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu-o'ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy-madaniy merosga aylangan.

Odat (urf-odat) — kishilarning turmushiga singib ketgan ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi harakatlar, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida qariyalar, kasal, ojiz, qiynalغان kishilar holidan xabar olish, qo'ni-qo'shnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi.

«Odat» degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo'lib, u ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, kishining fe'l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o'z-o'zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma'nosini bildiradi.

An'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Odat esa muayyan bir kishining turmush tarzi, xatti-harakati, xulq-atvori,

muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Marosim — inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi. Masalan, ism qo'yish, nikohdan o'tish, xotirlash, ekishga kirishish (urug' qalash) marosimlari va hokazolar.

Odat kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim esa inson hayotida muhim hodisalar sodir bo'lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim kabilarni) qayd etadi, rasmiylashtiradi. Marosimlarni o'tkazishda avlodlar avlodga o'tadigan, ramziy va rasmiy an'analari, qoidalarga amal qilinadi. Marosimga, bo'layotgan voqeaga «guvoh» sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g'ami yoki quvonchiga sherik bo'lishadi, kelajak uchun yaxshi niyatlar qiladi. Har bir marosimning o'ziga xos umum qabul qilingan tuzilishi (boshlanishi, o'rtasi, oxiri) bo'ladi.

Inson hayotida bo'lib o'tayotgan muhim voqeani nishonlash jarayonida an'ana ham, odat ham, marosim ham mujassamlashtiradi.

Buni quyidagi misolda ko'rish mumkin: yoshlar voyaga yetganida — yigitlar uylanadi, qizlar turmushga chiqadi. Bu avlodlar avlodga o'tib keladigan an'ana sanaladi. Yigit-qizning oila qurishi uchun nikoh to'yi o'tkaziladi. Nikoh to'yi o'tkazish esa insoniyat hayotiga singgan, muayyan qoidaga, ma'lum tartibga ega bo'lgan urf-odat hisoblanadi. Nikoh to'ylarining asosiy shartlaridan biri kuyov va kelinning nikohdan o'tishidir. Har bir davrda bu to'y bilan bog'liq o'ziga xos odatlar vujudga keladi. Masalan, hozirgi paytda maxsus bezatilgan mashinalarda ko'chalarda yurish, guvohlar bilan «Baxt uyi»ga borish, nikohdan o'tayotganida gimnning yangrashi, «Baxt uyi» xodimlarining savollariga javob berish, kerakli hujjatlarga imzo chekish, nikoh uzuklarini almashish kabi odatlarga amal qilinadi. Bu rasmiy va tantanali ravishda o'tadigan marosimdir. Nikoh to'yidagi odatlarning ado etilishi kelin-kuyov, ularning qarindosh-urug'i, yor-do'stlari uchun haqiqiy shodiyona sanaladi.

«An'ana», «odat», «marosim» bir-biri bilan bevosita bog'liq hodisa hisoblanadi. Shu bois an'analarining tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo'lishi mumkin. Masalan, bilim yurtini bitirgan yosh mutaxassislarining ishlab chiqarishga borib ish boshlashi odat tusiga kirib qolgan. Bu muhim voqea munosabati bilan an'anaviy tadbirlar tashkil qilish mumkin. Bu odatning tarkibiy qismi — yoshlarni tantanali ravishda mehnat jamoasiga qabul qilish o'z-o'zidan marosimga aylanadi.

Ba'zi holatlarda «an'ana», «odat» va «marosim» tushunchalari alohida ishlatilsa, ular mavhum ma'noni anglatishi ham mumkin. Bunday paytda ularga aniqlovchi so'zlar qo'shib, masalan, «an'anaviy bayram», «an'anaviy festival», «an'anaviy kecha» yoki «mukofotlash marosimi», «to'y marosimi», «nafaqaga kuzatish marosimi» tarzida qo'llanadi. «Marosim» so'zi jamoatchilik ishtirokida o'tkaziladigan katta tadbir ma'nosini bildiradi.

Ba'zi marosimlar (qayg'uli hodisalardan tashqari) bayramlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ular bayram kunidan boshqa paytlarda tashkil qilinsa ham, u bayram tusini oladi. Masalan, «chigit qadash», «diplom topshirish» marosimlari o'z-o'zidan bayramga aylanadi. Tantanal ravishda attestat topshirish marosimi ham har bir o'spirin uchun katta bayram sanaladi. Bular marosim bayramlarining tarkibiy (yoki asosiy) qismi ekanligini bildiradi.

«An'ana», «marosim», «bayram» atamaları o'zgar-mas tushunchalar emas. Zamona taraqqiyoti va turmushdagi o'zgarishlar ta'sirida tushunchalar mazmuni ham kengayib boradi.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ta'sirida talabga javob bermay qolgan an'ana va bayramlar asta-sekin unutila boshlaydi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo'lgan an'analar taraqqiy etdi. Masalan, Navro'z, Qovun sayli, Lola sayli va hokazo bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun asrlar davomida yashab kelmoqda. Xalq turmushining o'zgarishi unga mos an'analarni vujudga keltiradi. O'zbek xalqi hayotida ham yaqin yillar ichida avvallari mavjud bo'lmagan ko'plab ijtimoiy va shaxsiy-oilaviy an'ana, marosim va bayramlar paydo bo'ldi.

Keyingi paytlarda ilmiy adabiyotlarda, davriy nashrlarda «an'anaviy bayramlar», «yangi an'analar» so'zlari ishlatila boshlandi.

«An'anaviy bayramlar» deganda ma'lum vaqtda muntazam o'tkazib turiladigan azaliy madaniy-ommaviy tadbirlar — Gul bayrami, Lola sayli, Qovun sayli, Xirmon to'yi (hozirgi Paxta bayrami) nazarda tutiladi. Chunki ular qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lgan xalq bayramlaridir.

«Yangi an'analar» hayotimizga endi kirib kelayotgan va joylarda endigina boshlangan tadbirlardir.

XX asrning ikkinchi yarmida, zamon o'zgarishi bilan keyingi davrda hayotimizga tug'ilgan chaqaloqlarning ota-onalariga guvohnoma yoki voyaga yetgan yoshlarga pasport topshirish, o'quv yurti bitiruvchilarini tantanali ravishda mehnat jamoasiga qabul qilish, Birinchi maosh tantanasi, Avlodlar uchrashuvi, Oltin va Kumush to'ylar, tantanali nafaqaga kuzatish tadbirlari kabilar kirib kelgan edi. Hozirgi paytga kelib, ular «yangi» emas, balki «an'anaviy tadbir» bo'lib qoldi.

UMUMXALQ BAYRAMLARI

ENG AZIZ, ENG ULUG' MILLIY BAYRAMIMIZ

O'zbeklarning azal-azaldan to'ylari ko'p bo'lgan. To'ylar — orzu-umidlar ushalishi ayyomi sifatida hozir ham davom etmoqda. XXI asrning so'nggi 10 yilligi boshida o'zbek to'ylari qatoriga yana bir shodiyona — respublikamizning mustaqillik bayrami kuni qo'shildi. 1991-yildan boshlab 1-sentabr kuni eng aziz, eng ulug' milliy bayram kuni sifatida mamlakatimiz miqyosida har yili katta shodiyona bilan nishonlanmoqda.

Mustaqillik o'zbek xalqiga o'z qadr-qimmatini, bo'y-bastini, madaniyati va an'alarini, diniy e'tiqodini, tili va ma'naviyatini qayta tiklab olishga, milliy g'urur va Vatanga muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishga to'la-to'kis asos yaratdi. Mustaqillik bayrami o'zbek xalqining eng muhim an'anasiga aylanmoqda.

Dunyoning barcha xalqlari mustaqillik kunini o'zlarining eng asosiy bayrami deb hisoblashadi,

AQSH, Finlandiya, Gretsiya, Bangladesh, Senegal, Kipr kabi juda ko'plab mamlakatlarda mustaqillik kuni davlatning eng asosiy bayrami sanaladi.

Ba'zi davlatlarda respublika mustaqilligi bilan bog'liq bir necha sana nishonlanadi. Masalan, Qozog'istonda 25-oktabr — Respublika kuni, 16-dekabr — mustaqillik kuni sifatida bayram qilinadi. Janubiy Afrika Respublikasi, Makedoniya kabi davlatlarda milliy bayram Respublika kuni deb ataladi. Turkmaniston esa 12-dekabr kuni mustaqillik bayramini nishonlaydi. Qirg'iziston 31-avgustda, Tojikiston esa 9-sentabrda mustaqillik kunini bayram qiladi. 2016-yilda Ukraina, Gruziya Respublikalari ham o'z mustaqilligining yigirma besh yilligini nishonladilar. Ozarbayjonda 28-may Ozarbayjon Respublikasi tiklanish kuni (1918-yil) sifatida bayram qilinsa, 18-oktabr Mustaqillik kuni hisoblanadi. Armanistonda 28-may Mustaqillik kuni, 21-sentabrda Armaniston

Respublikasi Mustaqilligi to'g'risida referendum yilligi nishonlanadi. Belarus Respublikasi 3-iyulni Mustaqillik kuni deb belgilagan bo'lsa, shunday bayram Moldovada 27-avgustda o'tkaziladi.

Ko'pgina mamlakatlarning mustaqillik bayramlari o'ziga xos nomlar bilan ataladi.

Avstraliyada Avstraliya kuni, Yangi Zelandiyada Vaytangi kuni, Bolgariyada Usmon imperiyasidan ozod bo'lgan kun, Marokashda Taxt kuni, Argentinada May inqilobi yilligi, Fransiyada Bastiliya kuni, Singapur Respublikasida Milliy kun, Germaniyada Germaniya birligi kuni (1990-yil) milliy bayram deb ataladi. Albatta, bu kunlar mazkur mamlakatlarning tarixi bilan bog'liq (Sh. Jabborov. Milliy bayram: uni dunyoda kim qanday nishonlaydi? Xalq so'zi. 2000-yil 21-avgust).

1991-yil 1-sentabrda O'zbekistonda ilk bor mustaqillik bayrami nishonlandi.

Bu bayramning nishonlanishi haqida «Xalq so'zi» gazetasi quyidagilarni yozgan edi: «Ko'p millionli O'zbekiston xalqi jumhuriyat Oliy Kengashining sessiyasida ta'sis etilgan yangi bayram — Mustaqillik kunini birinchi marta nishonladi. Jumhuriyat parlamenti qabul qilgan Qonunga muvofiq, O'zbekiston mustaqil respublika bo'lib qoldi, bayramning belgilanishi ana shu shonli voqea bilan uyg'unlashib ketdi. Endi 1-sentabr bayram sifatida nishonlanadi va dam olish kuni deb hisoblanadi. Shu kuni O'zbekiston poytaxtining bosh maydonida tantanalar uyushtirildi. Bu yerda odatdagi dam olish kunlaridagidek odamlar sayr qilib yurishdi, ayni vaqtda musiqa sadolari, rang-barang bu kunning tantanavorligini bildirib turdi. Kechqurun esa badiiy havaskorlik jamoatlari shaharliklarga o'z mahoratlarini namoyish etishdi. Shaharning boshqa maydonlarida, oromgohlari, xiyobonlari va bog'larida ham artistlar, ijodiy guruhlarining chiqishlari bo'ldi. Xalq sayllari o'tkazildi.

Shu kuni Toshkent dorulfununining markaziy maydonida miting bo'ldi. So'zga chiqqan kishilar to'planganlarni Mustaqillik kuni bilan tabrikladilar, eng ezgu tilaklarini izhor qildilar. Mustaqillik kuni O'zbekistonning barcha viloyatlarida keng nishonlandi (Xalq so'zi. 1991-yil 3-sentabr).

Endi esa istiqloq yillari bu bayram qanday nishonlanib kelinayotganligiga biroz to'xtalib o'taylik.

1992-yil. Mustaqilligimizning bir yillik bayrami xalqimiz xotirasida yaxshi kunlardan biri sifatida saqlanib qoldi. Toshkent. Mustaqillik maydoni. Maydon uzra turfa bayroqlar shamol ekinida silkinadi. Eng balandda esa respublikamiz bayrog'i hilpirab, har bir yurakka shukuh baxsh etadi. O'zbekistonning milliy ramzlari tushirilgan ulkan sharlar havoda muallaq qotgan. Maydondagi bosh sahna bir necha lahzadan so'ng tomoshalar boshlanishidan darak berib turibdi. Maydonning eng

to'rida, baland shohsupada ulkan Yer shari. Unda O'zbekiston hududi ramzi yarqirab ko'rinadi. Qaraysan-u, mushtdek yuragingga ummondek sevinch, faxr, g'urur jo bo'ladi. Minglab hamshaharlarimiz bu yerga erkimizning bir yoshini bayram qilish uchun yig'ilgan.

Maydonning ikki tomonida «O'zbekiston: Mustaqillik, Tinchlik, Hamkorlik» degan shior bilan bezatilgan havo sharlari. Karnay-surnay va nog'oralar sadosi to'y boshlanishidan xabar berib, atrofga taraldi. Havoni o'nlab karnay-surnay, nog'ora-surnaylarning sadolari titratib yubordi.

«Ey muazzam, ozod yurt, istiqloq muborak!

Olamga ko'z-ko'z etarliq baxt-u iqboling muborak!»... deb boshlangan she'rlar yangraydi.

Bosh sahnaga onalarimiz chiqib kelishadi. Ular go'yo buyuk Zebuniso, Nodira, Uvaysiy, To'marislar qiyofasida xuddi asrlar qa'ridan chiqib kelishayotgandek. Ulardan so'ng namoyon bo'lgan hazrat Navoiy va Bobur o'z lutflari ila barchaning dilini sarafroz etadi.

Bayram tomoshalarida xalqimiz tarixini, buguni va kelajagini yoritishga alohida o'rin berildi. Darhaqiqat, Mustaqil davlat tuzish asrlar davomida xalqimiz farzandlarining tinimsiz olib borgan mashaqqatli kurashlari natijasi bo'ldi. Maydon bo'ylab o'tgan «Buyuk ipak yo'li» karvonlari bizning hayolimizni istiqloq tomon olib ketdi. Bu tarixiy yo'llarda ajdodlarimiz bosqinchilarga qarshi kurashdilar, erk uchun jon fido qildilar. To'maris, Shiroq, Spitamenning yovlarga qarshi kurashlari, Alpomishning ikkiga bo'lingan urug'ini birlashtirish uchun qilgan qahramonlik harakatlari, Amir Temur va Boburning ulug' davlatchilik barpo etishdagi ishlari bunga misol bo'la oladi. Istiqloq sari odimlab kelayotgan Mullo Solihbek, Azizbeklar. Ular bilan birga Munavvar Qori, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosirlar jabhalardan, janggohlardan to'g'ri huzurimizga kirib kelayotgandek. Ha, ular to'kkan qon evaziga istiqloqimiz shafaqlari nurlandi.

Istiqloq, Tinchlik, Totuvlik — eng avvalo bolalar uchun! Teatrlashtirilgan ommaviy tomoshalarni sho'x va quvnoq kuylar ostida yurtimizning kelajagi bo'lgan kichkintoylar raqs va qo'shiqlar bilan boshlab berdilar. Maydon uzra sho'x qo'shiqlar sadolandi. Sahnada yuzlab bolajonlar xuddi lolalardek sochilib ketishdi, ularning baxtiyor chehralari har qanday bayramga chiroy bag'ishlaydi, albatta.

Maydonga jahon va olimpiada o'yinlarida O'zbekiston sharafini himoya qilib, sovrindor bo'lgan o'nlab sportchilar kirib keldilar. Sport — tinchlik, farovonlik belgisi. Agar tinchlik bo'lmasa, sport musobaqasi yurakka sig'armidi? Bu namoyish insonning ko'nglida ana shunday hisni paydo qiladi. Beixtiyor o'z yurtindan yetishib chiqqan chempionlarni ko'rib g'ururlanasan, kishi.

Shundan so'ng maydonni yaqindagina tashkil etilgan milliy gvardiyachilar vakillari egallab, o'z harbiy mahoratlarini ko'rsatdilar.

Badiiy jamoa a'zolari o'z dasturlarini namoyish qildilar (O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992-yil 4-sentabr).

Bayram tantanalari respublikamizning barcha shaharlarida erta boshlanib, oqshomgacha davom etdi.

Toshkent shahrining deyarli hamma yerida ommaviy xalq sayillari bo'lib o'tdi. Maydonlarda, ko'chalarda, xiyobon va istirohat bog'larida xushchaqchaqlik hukm surdi. Toshkent viloyatida ham bu bayram o'zgacha shukuh bilan nishonlandi.

2001-yil — mustaqillikning 10 yilligi arafasida yurtdoshlarimiz: «Bu bayramning ilk bor nishonlanganligini qanday eslaysiz?» — degan savolga quyidagi javoblarni berishdi:

Egamqul Tohirov (Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani): — 1992-yilda O'zbekiston mustaqilligining bir yilligi bayram qilinganda, avvaliga ajablandim. Har holda «bu ellik yoki oltmish yillik sana emas-ku, bir yilligi ham shunchalik bo'ladimi?» — degan fikr xayolimdan o'tdi. Keyin ko'zimizni kattaroq ochib qarasak, dunyoda mustaqillik bayramidan ko'ra buyuk shodiyona yo'q ekan. Ishonchim komilki, istiqlolni mustahkamlashda har yili orziqib kutadigan eng ulug', aziz bayramimizning o'rni alohida bo'ladi.

Nasir Sattorov (Sayxunobod tumani): — O'z mamlakating, o'zing mansub bo'lgan millatdan g'ururlanish kerakligini bizga shu bayramlar o'rgatdi. Bunda mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimovning tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Mana, bu yil o'ninchi bor bayram qilamiz.

Toshboy Omonov (Denov tumani): — Uni ko'pchilik eslay olsa kerak. Chunki bayram oqshomi ham shakl, ham mazmun jihatidan yangicha tartibda o'tgandi. Bayramlarimiz ilgari bunday o'tkazilmagani uchunmi, uni ilk bor televizordan ajib bir hayrat bilan tomosha qilganman.

Abdulhamid Abdug'aniyev (Xo'jaobod tumani): — Ha, biz ilk bor xalqimiz quvonchining ifodasi bir maydonga jam bo'lganidan shodlangandik. 1992-yilda o'tkazilgan tantana ma'naviy hayotimizdagi tub burilishga sarchashma bo'lgandi (Xalq so'zi. 2001-yil 1-sentabr).

Qarshi shahrida mustaqillik kuni arafasida «Do'stlik sayli» bo'lib o'tdi. Unda shu vohada yashab, mehnat qilayotgan barcha millat va elat vakillari ishtirok etdi. Har bir millatning shoir-u oqinlari chiqishlari uyushtirildi. Badiiy buyumlar, o'yamkorlik san'ati, kulolchilik bo'yicha ko'rgazmalar ochildi. San'atkorlar, yosh ijrochilarning chiqishlari raqs bayramiga fayz kiritdi.

Savdo xodimlari «Do'stlik sayli» tantanalariga alohida ruh kiritdilar. Xiyobon va ko'chalarda,

istirohat bog'larida savdo uyushtirildi, oshxonalar tashkil etildi.

Namanganda 50 mingdan ortiq kishi markaziy o'yingohga kelib, erk va ozodlik ne'mati naqadar totli ekanligini yanada chuqurroq his etdilar. Bu yerda san'at va sport bayrami tantanasi g'oyat ko'ngilli o'tdi.

Farg'ona aholisi Mustaqillik tongini karnay-surnay sadolari ostida qarshi oldi. Mahalla-ko'y, ko'cha va xiyobonlarda kishilar bir-birlarini bayram bilan qutlab, tantana sharafiga tuzilgan dasturxon atrofiga yig'ildilar. Viloyatning barcha shahar va qishloqlarida istiqlol sharafiga elga nahorgi osh tortildi.

Farg'ona shahri yaqin yillar ichida bunday tantana, anjumanni ko'rmagan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ertalabdan oq ko'cha va xiyobonlar, maydon va bog'lar odamlar bilan to'ldi. Ahmad Farg'oniy nomi berilgan madaniyat va istirohat bog'i tantanalarning markazi bo'ldi. Bu yerda Ahmad Farg'oniy sharafiga o'rnatilgan byust tantanali ravishda ochildi.

Qo'qon ham istiqlol bayramidan go'yo yosharib ketganday. Shahar manzaralarida ko'hna o'tmish bilan erkinlikka esh bugungi kun porloq bir tarzda uyg'unlashib ketgan edi.

Marg'ilonda esa Mustaqillik bayrami gullar va qushlar bayrami bilan uyg'unlashib ketdi. Shaharning 4 ta dahasida alohida-alohida teatrlashtirilgan bayram tantanalari bo'lib o'tdi. Kechqurun esa «Spartak» stadionida viloyat san'atkorlari, badiiy havaskorlar, sportchilar, harbiy qismlarning xizmatchilari 3 soat davomida teatrlashtirilgan tomoshalarni namoyish etdilar.

Mustaqillik bayrami kuni Termiz haqiqiy ma'noda mamlakat darvozasiga aylandi. Bayramda chet el firmalari bilan bevosita hamkorlikda ishlayotgan o'nlab qo'shma korxonalar o'z faoliyati natijalarini ko'rsatishdi.

Shu kuni istiqlol sharafiga tashkil etilgan savdo rastalarida chorvachilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozordagidan ancha arzon narxlarda sotildi. Badiiy havaskorlik jamoalari ertadan kechgacha tomosha ko'rsatdilar. Sovrinlarning eng zo'ri abjir chavandozlarga va kuchli polvonlarga nasib etdi.

Viloyatda bayram arafasidagi eng katta yangilik shu bo'ldiki, Termiz shahrining qoq o'rtasidagi maydonda Termiziy haykali qad tikladi, haqiqat qaror topdi.

Samarqand uzra erta tongdanoq karnay-surnay ovozlari keng taraldi. Mustaqillik kuniga bag'ishlangan tantanalarda erta tongdan kechgacha davom etdi. Bayram arafasida bir qancha korxonalar, katta zavod va fabrikalar filiallari, yangi maktab binolari va boshqa obyektlar ishga tushirildi. Viloyat va shahar hokimligi rahbarlari, jamoat tashkilotlari vakillari ana shu kun arafasida korxonalarda, qariyalar va bolalar uylarida bo'lishib, sovg'a-salomlar topshirdilar.

NAVRO‘Z BAYRAMI

«Navro‘z hayot abadiyligining, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz sahovatining, shu bilan birga bizning bir necha ming yillik qiyofamizning, urf-odatlarimizning mangulik ifodasi, tasdig‘idir».

Islom KARIMOV

O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan so‘ng Navro‘z respublikamizning asosiy bayramlaridan biriga aylandi va har yili katta tantanalar bilan nishonlanmoqda. Navro‘zga tayyorgarlik ishlari 2—3 oy avval boshlanadi. Respublika, viloyat, shahar, tuman, korxonalar darajasida bayramni tashkil qilish kengashlari ish boshlaydi. Navro‘zga tayyorgarlik ko‘rish rejalari va uni yuqori saviyada o‘tkazish tadbirlari belgilanadi. Bayram oldidan shaharlar, qishloqlar, mahallalar, ishxonalarda hasharlar o‘tkaziladi. Shuningdek, xayriya ishlari: muhtojlarga yordam berish va qariyalarni ziyorat qilish, kasallar holidan xabar olish ishlari amalga oshiriladi. Navro‘z arafasida va bayram kuni sumalak, halim, ko‘k somsa kabi taomlar pishiriladi. Qizlar Navro‘z kuni kiyadigan liboslarini tayyorlashga kirishadilar. San‘atkorlar Navro‘zga bag‘ishlangan kuy-qo‘shiq, raqs tomoshalarini tayyorlay boshlaydilar. Navro‘z kuni barcha joylarda katta tomoshalar, tantanalar va xalq sayillari bo‘lib o‘tadi. Toshkent shahrining «Milliy bog‘ida har yili Navro‘zga bag‘ishlangan eng yirik teatrlashgan tomoshalar bo‘lib o‘tadi.

Bu tadbirlarda san‘atkorlar bahorni kutib olish, tabiatning yangilanishi, dillarning poklanishiga va dalalarda yangi mehnat mavsumi boshlanishiga bag‘ishlangan kuy, qo‘shiq, raqs ijro etadilar. Navro‘zga bag‘ishlangan asosiy tomoshalardan so‘ng shaharning Mustaqillik maydonida, Istiqlol saroyida, Alisher Navoiy teatri, Sayilgoh ko‘chasida, Xadra maydonida va boshqa joylarda katta xalq sayillari bo‘lib o‘tadi. Sayilda har kim o‘ziga yoqqan tomoshalar, tanlovlar, musobaqalar, konsert va o‘yinlarda qatnashishi mumkin. Xalq sayli kechgacha davom etadi.

1991-yil Navro‘z bayramining Toshkentda o‘tkazilgan asosiy tomoshasida (ssenariy mualliflari U. Qoraboyev, B. Aminov, B. Norboyevlar, bosh rejissor B. Hamidov) koinot va tabiat qonunlari asosida Quyoshning Hamal burjiga kirishi, bahorgi kun bilan tun tengligi, tabiatning jonlanishi, dalalarda yangi mehnat pallasining boshlanishiga oid g‘oyalar o‘z aksini topdi. Shuningdek, bayramda do‘stlik, turli millatlarni birlashtirish, ona-Vatanimiz tarixidan lavhalar hikoya qilish g‘oyasi ko‘zda tutildi.

Navro‘z tomoshasining boshida maydonga Gul, Navro‘z, Bahoroy, Dehqon bobo kabi siymolar kirib

kelishi qatnashchilarga navbahor go‘zalligini his qilishga imkon yaratadi.

Bosh maydonning turli tomonlarida Toshkentning 12 darvozasi va qadimgi shahar ramzi yaratildi. Navro‘z shahriga Ipak yo‘li bo‘ylab turli tomonlardan karvonlar kirib keldi. Dillarga shukuh baxsh etuvchi katta tomosha boshlandi. «Navro‘z», «Xalqlar do‘stligi» tomoshalari bayramona kayfiyat baxsh etdi.

Bayramda Surxondaryoning «Boysun», Andijonning «Sumalak», Samarqandning «Beshqarsak», Buxoroning «Nozanin» ansamblari xalq an‘analari, o‘yin va tomoshalarini jonlantirdi. «Boysun» ansamblining suv va dehqonchilik bilan bog‘liq qadimiy «Sust xotin» nomli teatrlashtirilgan tomoshasi, yomg‘ir chaqirish odati ifodalangan «Yada toshi raqsi», dalaga qo‘sh chiqarish, birinchi urug‘ qadash kabi marosimlar badiiy shaklda taqdim etildi (O‘zbekiston san‘ati. T., 2001. — 190-bet).

Katta Navro‘z sayli shaharning bosh maydonida, Alisher Navoiy nomli teatr maydonida, Xadra maydonida ertalabdan kechgacha davom etdi. Kechqurungi mushakbozlik Navro‘z osmonini charog‘on etdi.

1992-yil, 21-mart. Gullarga burkangan Xalqlar do‘stligi maydoni uzra Navro‘z quyoshi charaqlaydi. Maydon uzra O‘zbekiston bayrog‘i hilpiraydi, karnay-surnay, nog‘ora-yu childirmalarning sadosi olamni tutadi. Minglab sharlar osmon tomon intiladi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning Navro‘z bayramiga atalgan tabrik nutqi yangraydi. Keyin maydon o‘rtasida oppoq libosdagi oqlik kunlarga yetgan «Ona Tabiat», o‘z dugonalari bilan sabzavoriy libos kiygan «Gulbahor», o‘z jo‘ralari bilan «Navro‘zbek» tashrif buyuradi. Shunisi quvonarliki, diyorimizda Navro‘z tantanalari sevishganlarning to‘ylariga ulanib ketadi.

Mamlakatimizda barqarorlik, tinchlikni saqlab, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda millat va elatlar o‘rtasidagi do‘stlikni kuchaytirish, ularning hamkorligini mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda milliy madaniyatimizdagi yutuqlarni, ularning ijobiy foydali tomonlarini doimiy ravishda o‘rganish, ulardan keng va atroflicha foydalanish milliy madaniyatlarni o‘zaro boyitishning, kishilarni totuvlik ruhida tarbiyalashning zarur yo‘llaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Har bir millatning muayyan bir davrdagi hayot tarzi, madaniyati, bayramlarini boshqa davrda yashayotgan avlodlarga yetkazadi. Dunyoning barcha xalqlari kabi o‘zbek xalqi ham o‘z milliy bayramlarini g‘oyat qadrlaydi va ularni shukuhli va mazmunli qilib o‘tkazishga intiladi.

Bu borada butun san‘at ahlining, shu jumladan, musiqa san‘ati namoyandalarining xizmati beqiyosdir.

Daryo toshqin

M.M. ♩ = 92-96

Dar-yo tosh-qin (ey),
 suv-lar to'l-qin (ey), o'tol - may-man (o),
 O-tim o - riq (ey), man - zi - lim - ga (yo) ye - tol
 - may-man (o). Ot - gi - nam-ni (yo)
 o - riq qil - gan (o) shul may - da tosh (o),
 ran - gi - - nam - ni (yo) sa - riq qil - gan (o)
 shul qa - - lam qosh (o).

Daryo toshqin, suvlar to'liqin, o'tolmayman,
 Otim oriq, manzilimga yetolmayman.
 Otingamni oriq qilgan shul mayda tosh,
 Ranginamni sariq qilgan shul qalamqosh!

Daryolarning ul yuzida uylaringiz,
 Oqaribon ko'rinadi bo'ylaringiz.
 Ipakmidi, shoyimidi kiyganingiz,
 Bizlardan ham ortiqmidi suyganingiz?!

Farg'onacha jonon II

M.M. ♩ = 132-138

En-di sen-dek jo-no, (ey), jo-non qay-da - dur (ey),

Ko'-rib gul yu - zing-ni (ey) bog'-da ban-da - dur (ey),

Saq-lay ish-qing to-ki (yo) jo-nim

tan - da - dur, say-lay ish-qing to-ki (yo) jo-nim

tan-da - dur (ey), (o) rahm ay-la, ni-go - rim (ey),

O'-zim har joy - - - da - man (o),

ko'ng-lum sen - da - dur (ey).

Endi sendek jono, jonon qaydadur,
 Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,
 Saqlay ishqing toki jonim tandadur,
 O'zim har joydaman, ko'nglum sendadur.

Mehring o'ti nogoh tushdi jonlarga,
 Parvoyim yo'q zarra xonumonlarga,
 Lola yanglig' to'lib bag'rim qonlarga,
 O'zim har joydaman, ko'nglum sendadur.

O'zganacha

M.M. ♩ = 92

Bog' - da ma - gar, jo - no,

raf-tor ay-la - ding (yo - rey) raf-tor ay-la - ding (yo - rey),

Pa - ri ka - bi fe' - lu at - vor ay - la - ding,

(o) at - vor ay - la - ding. Bur-qa o - chib

ar - zi rux-sor ay-la - ding (yo - rey) rux-sor ay-la-ding

(yo - rey), G'un-cha - lar-ni diy - da xun-bor ay-la - ding

(o) xun - bor ay - la - ding.

Ar-zim e - shit, ey dil - ba - ri ya - go - na, ya - go - na,

De - sam, has - rat - la - rim sig' mas ba - yo - na (yo),

sig'-mas ba - yo - na, Haj ro'-qi-g'a ko'k-sim qi-lib ni - sho -

-na, yo Ne jurm et - dim, jav- r(u), bis - yor ay - la -

ding (o) bis - yor ay - la - ding?

Bog'da magar, jono, raftor aylading,
 Pari kabi fe'l-u atvor aylading.
 Burqa ochib arzi ruxsor aylading,
 G'unchalarni diyda xunbor aylading.

Arzim eshit, ey dilbari yagona,
 Desam, hasratlarim sig'mas bayona,
 Hajr o'qig'a ko'ksim qilib nishona,
 Ne jurm etdim, javr bisyor aylading?

Devonamen, so'rma kor-u borimni,
 Ravshan etgil kelib shabi torimni,
 Rashk o'tig'a o'rtab jismi zorimni,
 Ravomudi, mayli ag'yor aylading?

Aylab tazallumlar oshiqqa pasha,
 Tangrini ham gohi qilg'il andesha,
 Raqib birla qo'l ushlab hamesha,
 Tiriklikni menga dushvor aylading.

Galdir

M.M. ♩ = 120–128

Oh de-dim, ov - vo - ra bo'l - dim, yo - r(a) bil - may-dur

ha-nuz, Dod e-tar dod e-tar - man kim-

ga ah - vo-lim - ni, so'r - may-dur ha-nuz, vo-lim - ni, so'r -

- may-dur ha-nuz. Du - di o - himbarq u-rib

har dam fa-lak - ning sah - ni-da du - di o -

- him barq u-rib har-dam fa-lak - ning sah - ni-da, U1

ke-lib ul ke-lib bir dam me-ning qo - shim - da tur - may-dur

ha-nuz, qo-shim - da tur - may-dur ha-nuz.

(o)

Um - ri-ni xush o't - ka-zib bir ne - cha yax - shi-lar

b(i) lan, Biz yo-mon, biz yo- mon - ni yo ma-gar ko' - zi -

ga il - may-dur ha-nuz, ko'-zi - ga il - may-dur ha-nuz.

Oh dedim, ovvora bo'ldim, yor bilmaydur hanuz,
 Dod etarman kimga ahvolimni, so'rmaydur hanuz.

Dudi ohim barq urib har dam falakning sahnida,
 Ul kelib bir dam mening qoshimda turmaydur hanuz.

Umrini xush o'tkazib bir necha yaxshilar bilan,
 Biz yomonni yo magar ko'ziga ilmaydur hanuz.

Ililla yor

M.M. ♩ = 76-80

The first system of musical notation is in 2/4 time with a key signature of one sharp (F#). It features a treble clef and a melody line with lyrics underneath. The lyrics are: "I - lil - la, yo-rim uy-g'on-sin, i-lil-la yor,". Below the main staff, there is a separate line of notation showing a 2/4 time signature and a rhythmic pattern of eighth notes.

The second system of musical notation continues the melody in 2/4 time with a key signature of one sharp. The lyrics are: "i-lil - la, Soch - la-ri bel - ga chul-g'on-sin(o), i-lil - la yor, i-lil - la."

The third system of musical notation continues the melody in 2/4 time with a key signature of one sharp. The lyrics are: "Ro'mo-lim - ni o - lib - san, i - lil - la yor, i - lil - la,".

The fourth system of musical notation concludes the melody in 2/4 time with a key signature of one sharp. The lyrics are: "O - lib dor - ga so - lib - san (o), i - lil - la yor, i - lil - la."

Ililla, yorim uyg'onsin, ililla yor, ililla,
Sochlari belga chulg'onsin, ililla yor, ililla.


Ro'molimni olibsan, ililla yor, ililla,
Olib dorga solibsan, ililla yor, ililla.

Ro'molimni ber baqqa, ililla yor, ililla,
Hazilingni qo'y aqqa, ililla yor, ililla.

Senga tegmay man o'lay, ililla yor, ililla,
Seni olmay man o'lay, ililla yor, ililla,
Toza qoldim chatoqqa, ililla yor, ililla.

Yoshligimda

M.M. ♩ = 96



Yoshligimda qora magizni
 Ko'p yebmikinman, ko'p yebmikinman?
 Tilginamning shirinligi
 Shundanmikin, voy, shundanmikin?

Yoshligimda o'smalarni
 Ko'p qo'yibmikinman, ko'p qo'yibmikinman?
 Qoshginamning qoraligi
 Shundanmikin, voy shundanmikin?

Qizgina

M.M. ♩ = 112–116

Yo-rim fi - ro - qing - giz ni - ma?
Qil - gan gu - no - hi - miz ni - ma? Yuz no - zu ka - rash - ma, noz bi - lan,
O' r - gi - lay, noz bi - lan, ay - la - nay, So - chin ta - ray - di
qiz - gi - na. Qa - ni, qa - ni? Ma - na ma - na. Oh, qa - ni? Oh, ma - na.
So - chin ta - ray - di qiz - gi - na, So - chin ta - ray - di qiz - gi - na.

Yorim, firoqingiz nima?
Qilgan gunohimiz nima?
Yuz noz-u karashma, noz bilan,
O'rgilay, noz bilan, aylanay,
Sochin taraydi qizgina.
Qani, qani?
Mana, mana.
Oh, qani?
Oh, mana.
Sochin taraydi qizgina,
Sochin taraydi qizgina.

Yorim, xitobingiz nima?
Bizning gunohimiz nima?
Yuz noz-u karashma, noz bilan,
Aylanay, noz bilan, o'rgilay,
Do'ppi tikodir qizgina.
Qani, qani?
Mana, mana.
Oh, qani?
Oh, mana.
O'sma qo'yadi qizgina.

Qizil gul

M.M. ♩ = 132–138

Sen cha- man-ning

gu - li bo'l-sang, Mencha- man - ning bul - bu-li, Sen chi-ro - ying ga i-shon-sang,

Men u-ning o - shiqqu-li. As-ra qi-zil gul - ni, e-gam, (ey), Saq-la qi-zil gul

ni, e-gam (ey). Ba-ho - si-ga yet-ma-sa-lar, sot-ma qi-zil gul - ni, e-gam (ey).

Sen chamanning guli bo'lsang,
Men chamanning bulbuli,
Sen chiroyingga ishonsang,
Men uning oshiq quli.

Naqarot:

Asra qizil gulni, egam,
Saq-la qizil gulni, egam.
Bahosiga yetmasalar,
Sotma qizil gulni, egam.

Qarchig'ay bo'ylikkinamga
Kim berar achchiq sharob.
Ko'zlari o'tdek yonodir,
Qildi bag'rimni kabob.

Naqarot:

Eshik ochib to'rga boqsam,
To'rdan bir oy o'turur.
Qoshlari qiyg'och qalamdek,
G'amzasi jon o'ldirur.

Yalla jonim

M.M. ♩. = 72

Yur-dim dar-yo kech-ga - li,

yal-la, jo - nim, yal-la. O'1-tir-dim suv ich-ga - li, yal-la, jo - nim, yal-la.

Yo-rim-din kel - sa xa - bar, yal - la jo - nim, yal - la (ey),

Qa-no - tim yo'q uch-ga - li (ey), o - ro - mi-jo - nim, yal - la.

Yurdim daryo kechgali, yalla jonim, yalla,
O'tirdim suv ichgali, yalla jonim, yalla.
Yorimdin kelsa xabar, yalla jonim, yalla-ey,
Qanotim yo'q uchgali, oromijonim, yalla.

Yuring, daryo boraylik, yalla jonim, yalla,
Kanalga suv olaylik, yalla jonim, yalla.
Yozovon cho'llarini, yalla jonim, yalla-ey,
Suvga serob qilaylik, oromijonim, yalla.

Norin daryo bo'yimiz, yalla jonim, yalla,
Kanal qazish to'yimiz, yalla jonim, yalla.
Norin bilan Sirlarni, yalla jonim, yalla-ey,
Yo'lga solish o'yimiz, oromijonim, yalla.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq soʻzi. 2010-yil 30-yanvar.
2. *J. Yoʻldoshev*. Taʼlim yangilanish yoʻlida. T., «Oʻqituvchi», 2000.
3. *J. Yoʻldoshev*. Oʻzbekiston Respublikasi taʼlimi taraqqiyot yoʻlida. T., «Oʻqituvchi», 1994.
4. *G. Sharipova*. Musiqa oʻqitish metodikasi. Maʼruzalar. T., TDPU, 2006.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

NAZARIY QISM

1. Maktabda to'g'arak ishini tashkil etish va uning maqsadi	4
2. To'g'arak ishini yo'lga qo'yish va uning vazifalari	7
3. To'g'arak rahbarining pedagogik mahoratini belgilash omillari	8
4. Xor to'garagini tashkil etish va xor bilan ishlash uslubiyati. O'zbekistonda bolalar xori ravnaqi	9
5. Drama to'garaklari	14
6. Xalq cholg'u asboblari to'garaklari	16
7. Raqs to'garaklari	21
8. Vokal va folklor to'garaklari	21

AMALIY QISM

XOR TO'GARAKLARI

Daraxtlar suhbatlari	30
Sariq jo'jalarim	31
Biz — istiqbol egasimiz	35

DRAMA TO'GARAKLARI

Yurtim jamoli (ssenariy)	37
--------------------------------	----

XALQ CHOLG'U ASBOBLARI TO'GARAKLARI

Lazgi	39
O'zbekiston	40
Ufor	41
Bahor valsli	42

RAQS TO'GARAKLARI

Gullar bilan raqs	44
O'zbekcha raqs	45
Sho'x qizlar raqsi	46
Doiralar bilan raqs	47
«Chitti gul» lapari	47
«Paxtaoy» raqsi	48
Tanovar	48
Raqs harakatlari va shakllar	49

VOKAL VA FOLKLOR TO'GARAKLARI	54
--	-----------

TO'GARAK RAHBARLARIGA DAVRA SUHBATLARI UCHUN QO'SHIMCHA MATERIALLAR	58
--	-----------

FOLKLOR TO'GARAKLARIDA KUYLASH UCHUN TAVSIYA ETILGAN ASARLAR

Daryo toshqin	63
Farg'onacha jonon II	64
O'zganacha	65
Galdir	67
Ililla yor	69
Yoshligimda	70
Qizgina	71
Qizil gul	72
Yalla jonim	73
Foydalanilgan adabiyotlar	74

Karimova, Dildora Anvarovna
K25 **Musiqa to‘garagini tashkil etish.** Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv
qo‘llanma (2-nashri) / D.A. Karimova, S. Karimov, D.Q. Qodirov.
— T.: ILM ZIYO, 2016. — 76 b.
1. Karimov S.
2. Qodirov D.Q.

UO•K 372.878(075)
KBK 74.200.58

ISBN 978-9943-16-315-7

**DILDORA ANVAROVNA KARIMOVA,
DAVRON QABILOVICH QODIROV,
SALIM KARIMOV**

MUSIQA TO‘GARAGINI TASHKIL ETISH

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

2-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

Muharrirlar: *K. Bo‘ronov, T. Mirzayev*
Rassomlar: *Sh. Odilov, M. Burxonov*
Nota muharriri *A. Ashurov*

Noshirlik litsenziyasi AI № 275, 15.07.2015-y.
2016-yil 29-sentabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60×90^{1/8}.
«Times TAD» garniturası. Shartli bosma tabog‘i 9,5. Nashr tabog‘i 9,0.
Jami 441 nusxa. Buyurtma № 76

«ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
Shartnoma № 26—2016.

«PAPER MAX» xususiy korxonasi da chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.